

Ayn Harfining Ayyorlarining Alomati "Favoyiddin  
288

Menga bu nukta xarobot aro bo'ldi masmu  
Ki, fano jomi riyo ahlig'a bo'lmish mamnu.  
Qaysi rindeki riyo zotida yo'qtur bittab,  
Ko'runur jomi fano tortsa behad matbu.  
Kimki zotida erur shoibai ujbu riyo,  
Qilg'ali qobil emas faqr tariqig'a shuru.  
Dayr piri qulimenkim, qilibon may shoyi,  
Bergay ul ujbu riyo jonibi o'rtarga shuyu.  
Toki bir jom bila mug'bachai bodafurush,  
Xiradu aqlni majnun yasag'ay bal masru.  
Manga ul jomni gar tutsa, fidosidur aning  
Ilmu dinu xiradu zuhd ila taqvo majmu.  
Dayr piri bila to mug'bacha bo'lmay, qilma,  
Ey Navoiy, yigitu qarig'a holingni ruju.  
289

Qilg'ali begonalarga oshno jonona tab,  
Oshnolarg'a bo'lubtur, voykim, begona tab.  
O'rtanurmen tokim ul el tiyra shomim yorutur,  
Bo'lg'ali ul shamvash, men bo'lmisham parvona tab  
Xoli sari aylasa parvoz ko'nglum, tong emas,  
Kim taajjub aylagay gar qushqa istar dona tab,  
Yor chun kulbanga kirmas, xonumon tark ayladim,  
Yo'qsa bo'lmoq istamasmu yor ila hamxona tab.  
Men jahon afsonasi, ul sho'x mayl etmas, netay,  
Garchi sho'x atfolig'a doim tilar afsona tab.  
Yor to azm etti, tabimg'a buzug'lug' qo'ydi yuz,  
Bo'lmisham ul husn ganji hajridin vayrona tab  
Davlati boqiy tilar ko'nglung, fano kasb aylakim,  
Dahri foniy sari mayl aylamas farzona tab.  
To meni dayr ichra rasvo ayladi ul mug'bacha,  
Bog'ladim zunnoru istar sog'aru paymona tab.  
Ey Navoiy, ul vafosizdin qutulsang, tutma uns,  
Har nechakim bevafolar mayli qilsa yona tab.  
290

Masti bebokim qachon holimg'a bo'lg'ay muttale  
Kim, qulog'ig'a desam sirrini, bo'lmas mustame.  
Jam etar chog'da ko'ngul, zulfung parishondur base,  
Lek solurda parishonlig', bo'lur ko'p mujtame.  
Qahr qilsa o'lturub, bu turfakim, lutf etsa ham,  
Qatl ishida bo'lmish ul qotil bag'oyat muxtare.  
Tufrog'imni yel sovurmay ko'yidin sof o'lmadi,  
Bo'ldi bori, bor esa mendin g'ubori murtafe.  
Ishq oyinida bidatlar tuz etting zulm aro,  
Qaysi bir mazhabdasen, kofurdek o'lg'ay muvtade.  
Ishq o'tin tark etmasam nosih so'zi birla, ne tong,  
Pand ila parvona kuymaktin bo'lurmu mumtane.  
Do'stlar, yozg'urmang ar daf aylay olmon ishq o'tin,  
Chora birla kim qazo bo'lg'anni qilmish mundafe.  
Kim fano dashtig'a kirdi, o'zni hamroh etmasun,  
Qat chun bo'lmas bu yo'l, o'zluqtin o'lmay munqate.  
Ko'rgach ul oyni Navoiy tortti bexud fig'on,  
Kim bo'lur behud, fig'on qilmoqtin o'lmas muttale.  
Dilbar yuzin ko'rarga bo'ldi niqob mone,  
Ul navkim, quyoshqa bo'lg'ay sahob mone.  
Terga uzoring andoq g'arq o'ldikim, ko'runmas  
Kim ko'rdi ul ko'rarga bo'lg'ay gulob mone.  
Kulgilki, zohir o'lsun g'unchangda jolalarkim,  
Dur rishtasig'a bo'lmish yoquti nob mone.  
Ko'zda yoshunmish ul oy, ashkim boshimdin o'tmish,  
Daryoda kim ko'rubtur durg'a hubob mone.  
Ul g'amza qon qilurg'a, ul ko'z vafo qulurg'a,  
Bedodu zulm bois, nozu itob mone.  
Tan tufrog'in sovurmay, yetmas safo ko'ngulga,

Bo'lg'an kebi safodin sug'a turob mone.  
Yor istasang, Navoiy, sabr istagilki, doim  
Keldi visol ishiga jahdu shitob mone.  
292

Chun shabiston ichra qildi orazin jonona sham,  
Mashali mehr o'lsakim, ko'zga ko'runmas yona sham.  
Band ayog'ida nedindur boshida savdo o'ti,  
Ey pariy, ishqingda gar xud bo'lmamish devona sham?  
Yig'laru o'rtar o'zin to subh go'yo har kecha,  
Hajr aro bo'ldi meni mahzun bila hamxona sham.  
Dema kuymak savtikim, uyqu yo'qig'a rahm etib,  
Der zabona shaklidan til tortibon afsona sham.  
Ekkali parvonalar ko'nglida go'yo tuxmi mehr,  
Ashkdin atrofida ham su sochar, ham dona sham.  
Yo muhabbat o'tidin parvonani kuydurgali,  
Yorutur oraz o'tin har lahza mahbubona sham.  
Qo'ymadi parvonani fonus aro men zordin,  
Ul mahi xirgahnishin bo'lg'an kebi begona sham.  
Balki oshiq do'stlardin dururkim o'rtanur,  
Toki shavqi o'ti ichra o'rtanur parvona sham.  
Ey Navoiy, bot o'chur ohing yelidin shamni,  
Topti chun ul yuz furug'idin bizing vayrona sham.  
293

Ko'zum yoshardi, ayon bo'lg'ach ul jamoli bade,  
Bulo'tqa su to'lar ul damki, bo'ldi fasli rabe.  
Tasavvur etsa qoshing toqini ko'ngul titrar,  
Qazo muhandisi baskim chekibtur ani rafe.  
Nedin ayog'inga tushkay boshing'ga evrulubon,  
Quyosh gar o'lmasa husn ichra qullug'ung'ga mute.  
Qoshing xayoli toriqmay ko'ngulda evrulsun,  
Erur chu qiblanamo po'yasig'a huqqa vase.  
Ne nav barqni deykim, buroqi yanglig' erur  
Kim, ul batiyduru muzlim, bu bir muniru sare.  
Navoiy, uyla tirilkim, uyatdin o'lmagasen,  
Agar Rasul alayhis-salom bo'lsa shafe.  
Qilurni ayla rioyat demakda asra adab  
Ki, do'st felingu qavlingg'adur basiru same.  
294

Qizil ko'nglak yengin orazg'a yopsang, vajhi yo'q voqe:  
Quyosh ollida ko'rmaydur kishi gulgun bulut mone.  
Yuzidek mumkin ermas oy, musavvir, chekma zahmatkim,  
Quyosh jirmin qo'shub hal aylasang, rang o'lg'usi zoye.  
Labi ham o'rtadi jonim, ham ochiq so'z dedi, yani  
Chuchuklukdin isitqang'a achig' sharbat erur nofe.  
Yuzin ochsa, necha qilsam nazar, og'zini ko'rmasmen,  
Nazarg'a garchi kelmas zarra, xurshid o'lmayin tole.  
Jamol ochqan soyi majnunlug'um oshsa, ajab ermas:  
Pariyning jilvasi savdog'a hargiz bo'lmadi dofe,  
Labing jonimg'a qilsa mayl, darding xasta ko'nglumga,  
Tong ermastur, nedinkim, aylar ashyo aslig'a roje.  
Ko'zung fikri bila tan xilvatida notavon ko'nglum,  
Riyoat aynidindur kunda bir bodom ila qone.  
Fano yo'lig'a o'zluqtin shuru etganga tor o'ldi,  
Gar o'lsa hodi tavfiq ochiqdur behad ul shore.  
Navoiy dayr aro gar butparastu mast esa, tong no'q,  
Ne qilsa piri dayr, ul ham qilur, chunkim erur tobe.  
G'ayn Harfining G'azolalarining G'avg'osi "Favoyiddin  
295

Oncha mahzun ko'nglum o'lmish ishqdin ozorlig'  
Kim, qilurmen yig'labon, har kimni ko'rsam, zorlig'.  
Do'stlar, ko'p zorlig' qilsam ajab ermaski, bor  
Zor ko'nglum do'st javridin, base, ozorlig'.  
Bois ermish yng'lamoqlarg'a bo'lub ko'ngli zaif  
Oshiqekim, furqat ichra cheksa ko'p bemorlig'.

Kimsaga gar g'am yetar, g'amxori bo'lsa, g'am emas,  
Ul erur g'amkim, yetib g'am, topmag'ay g'amxorlig'.  
Tig'din afgor emas, marhamni tashlangkim, iloj  
Vasldur, topqan ko'ngulga hajrdin afgorlig'.  
Bo'lma gulzoringg'a ko'p mashuf, ey dehqonki, yo'q  
Tongla rangidin bu gullarning chaman osorlig'.  
Chun Navoiy yoridur Shirinu Laylidek, ne tong  
Aylasa farhodvashlig', yo'qsa majnunvorlig'.  
296

Otashin laling o'ti ayladi ko'nglumni nsig',  
Bo'ldi bag'rim dog'i ko'nglum isig'i birla qizig'.  
Yaraqon ot qo'yadurlar manga hikmat ahli  
Kim, harorat yuzu ko'zumni dog'i qildi sarig'.  
Men anga oshiqu ko'z ham yuziga oshiqdur,  
Ishq ahlining erur rangi sarig', ashki arig'.  
Men agar yig'lar esam talx chuchuk laling uchun,  
Ko'zlarim dog'i to'kar ashkni achchig'-achchig'.  
Ani chun ko'rdum, aning ko'yida qoldim mung ila,  
Do'stlar, siz o'tung, ish tushti manga osru qotig'.  
Husni davrig'a vafo yo'q, bu quyosh bot uyoqur,  
Xo'blardin xush erur yaxshilig'u yaxshi qilig'.  
Qon to'kar ko'ngli Navoiyning ashk ikki ko'zi,  
Ulgusi ishq g'amin gar yemasa issig'-ilig'.  
297

Yetmay ikki labing mayidin ko'ngluma osig',  
Sho'roba oqti ikki ko'zumdin ochig'-ochig'.  
Gohi yuzumga bir guli rano g'amida boq,  
Qonlarki tomni - bir yuzi gulgun, biri sarig'.  
To oqti sayli ashk, yudi do'st g'ayridin  
Ko'zni, bu vajah ila ko'zum o'lmishturur orig'.  
Faryodkim, tushar manga chun dard ila firoq,  
Ishq ahli ichra qatl uchun solsalar solig'.  
Daryoi shavqidin meni man etma, ey xirad  
Kim, o'lgum uylakim tushar ayru sudin balig'.  
Ko'p qovma, shayx, mug'bachalar ko'yidin meni  
Kim, ko'nglum osru yumshoqu bu ish erur qotig'.  
Derlar fano yo'li safarida osig', base,  
O'zluk bila Navoiy agar kirsar, ne osig'.  
298

Yuzung hajrida kim chekti fig'onu zor men yanglig',  
Kim ochti yuzda gulgun ashkidin gulzor men yanglig'!  
Agar ushshoqini bir tig' ila husn ahli qat etti,  
Kishi hijrona qolsa, o'lmadi dushvor men yanglig'.  
Firoq ahli agarchi o'lmak istar, ey ajal, kelkim,  
Emas sendin kishi bu ishta minnatdor men yanglig'.  
Ko'zung qatl aylab, el qonini ko'p ichti javr ila, lekin  
Asire topmadi ul qotili xunxor men yanglig'.  
Majonin bo'ldilar atfol toshidin ko'p ozurda,  
Vale boshtin-ayoq bir bo'lmadi afgor men yanglig'.  
Biravni, eyki, sevmak orzu qilding havosinda,  
Iligdin ixtiyoring bermagil zinhor men yanglig'.  
Kishi badxo'lar ishqidin etmak ehtiroz avlo,  
Yo'q ersa ko'rgusi har lahza yuz ozor men yanglig'.  
Tilar bo'lsang zamona qayg'usi dafiq'a bexudlug',  
Kerak bo'lsa maqoming kulbai xammor men yanglig'.  
Agar bulbul guliston ichra ko'rda xordin ozor,  
Va lekin ko'rmadi, ey lolarux, ozor men yanglig'\*.  
Navoiy, gar xirad mulkida savdodin batang o'lsang,  
Qadam urg'il fano dashtida majnunvor men yanglig',  
299

Agar kelmasa, intizorim qo'yar dog',  
Valek iztirob o'rtar, ul oy kelur chog'.  
Manga bog'u gulzor aning orazidur,  
Gar ul bo'lmasa, baytul-ahzon erur bog'.

Dema shavq o'tig'a taskin berur may,  
Yonar, shulam o'tig'a ko'p quymag'il yog'.  
Men ar mastu bemorlig' birla o'ldum,  
Hamisha jahon ichra sen bo'lg'asen sog'.  
Dedingkim, ololmasun dilrabolar  
Ki, ko'nglunga qo'ydung og'ir hajrdin tog'.  
Bahori jamolingda nolamni xush tut  
Ki, tengdur, bahor o'tsa, bulbul bila zog'.  
Navoiy firoqingda ul nav itti  
Ki, gardi topilmas, g'aming solsa tufrog'.  
300

Zahri hijroning chu ayshim komini qildi ochig',  
No'shi vasling elga yetkandip manga yo'qtur osig'.  
Tosh yog'durg'andin atfol o'lmadim, o'lturdi hajr  
Kim, suubatda bular andoq emas erdi qotig'.  
Ashk aro o'ldum, yig'ishtur emdi zulfung shastini  
Kim, su uzra kelgusi daryo aro o'lgan bolig'.  
Qatra-qatra qon yoshimdin chehram o'lmish uylakim,  
Tim-tim etgaylar qizil kog'aznikim, bo'lg'ay sorig'.  
Yuzda hajringdinki tirmog' o'rni xatlar bo'ldi qon,  
Har biriga ashkdin su ochibon qildim orig'.  
Olg'ali dunyo arusin, eyki, sotting naqdi din,  
Umr sotib, marg olmoq angla, bu sotig'-olig'.  
Istaram, lalig'a qilg'aymen chuchuk jonim fido,  
Ey Navoiy, anga dermen kelmagay nogah ochig'.  
301

Pariyni kim desa ul mehri xovari yanglig',  
Erur nachukki, degay devni pariy yanglig'.  
Boshimki, hajr yo'lida falakdek aylandi,  
Ko'zum yoshi erur ul charx axtari yanglig'.  
Firoq shulasida pora-pora ko'nglum erur,  
Demay kabobkim, ul o'tning axgari yanglig'.  
Ko'zung fusungar, aning o'ti otashin laling,  
Labingda xol aning o't uzra anbari yanglig'.  
Junun eli shahimen, tog' avji taxtimdek,  
Qush oshiyonlari boshimning afsari yanglig'.  
G'animat angla vafo bulbulungg'a, ey gulkim,  
Xazon yeli yetishur hajr sarsari yanglig'.  
Navoiy, o'zga shahu o'zga kishvar etma havas  
Ki, topmagung shahi G'oziy bila Hiri yanglig'.  
302

Muddai, chun daming ermastur issig',  
Qilma sovug'lug'u hamgomani yig'.  
O'xshar axloqinga husnungki, erur,  
Yaxshiliq lozimasi yaxshi qilig'.  
Tutti gar dashtni Layli, ne ajab,  
Kishvari husnung aro tutti qirig'.  
Zaxmlar uzra magar qo'yg'ali dog',  
Xanjaring ko'nglum aro bo'ldi qizig'.  
Husnunga o'xshadi jonbaxsh so'zung,  
Kimki bor o'zi silig', so'zi silig'.  
Pardadarlig' chu erur zohid ishi,  
Xirqa uzra ne osig' muncha sirig'.  
Ko'yidin qovsa, Navoiy, seni yor,  
Ohu ashking bila chig' issig'-ilig'.  
Fe Harfining Fitnalarining Fusuni "Favoyiddin  
303

Ulki qilg'ay o'zi kashshof ramuzin makshuf,  
Kashfi yo'q aylamayin o'zluki harfin mahzuf.  
Bahra yetkurmadi zuhd ahlig'a fayz iksiri,  
Naqdi umrin chu riyo kasbida qildi masruf.  
Xirqai faqr kerak sirri nihon kasbig'akim,  
Pardai roz aning zaylig'a keldi matuf.  
Aylagil naqdi hayotingni fano ahlig'a vaqf,

Luqmai vaqf yemakni vale etgil mavquf.  
Dunyo asbobi najosat kebidur mazbalada,  
Pokravlar nachuk o'zni anga qilg'ay mashuf.  
Har ne haq amrini der murshidi komil, ani qil,  
Gar sifotulloh aro o'zni tilarsen mavsuf.  
Soqiyo, hajr xumoridin o'larmen - rahm et,  
Charxni zarf qilu ulki bilursen mazruf.  
Topsa ul zarf ila mazrufni xush sipqarg'ay,  
Ulki oriflig' ila dahrda bo'lg'ay maruf.  
Ey Navoiy, boru ushshoq ayog'i tufrog'i bo'l,  
Ishq sirrin, tilasangkim, sanga bo'lg'ay makshuf.  
304

Qilmadim ul sarvi gulrux manzili bo'stonni tavf,  
Do'zax ahli aylay olmas ravzai rizvonni tavf.  
Ko'nglum ichra yuz balo mahbus topqung, aylasang  
Tavf ani andoqki, shahlar aylagay zindonni tavf.  
Ochilur ko'nglum, qilur sayr el buzulg'an ko'nglini,  
Chug'z qilg'andek tarab kasbig'a har vayronni tavf.  
Durri ashk oqizg'ali hajring ko'zum atrofida,  
Tojiredekturki, qilg'ay sohili Ummomni tavf.  
Ul pariyvash manzilidakim, yiqildim, qasd emas,  
Soldi bu holatqa men majnuni sargardonni tavf.  
Poya oliy istasang, tajrid et avval ixtiyor,  
Iso andin aylar ushbu nilgun ayvonni tavf.  
Bir Navoiyning buzug' ko'ngliga evrul, rahm etib,  
Netti gohi Yusuf etsa kulbai ehzonni tavf.  
305

Garchi tog'din og'ir etti dardu ozorimni zaf,  
Lek xasdin ham yengil qildi tani zorimni zaf.  
Bilmagil, holimni gar ahbob so'rmaslar, ajab,  
Kim qilibtur tanimasdek jismi bemorimni zaf.  
Hajr shomi ne ajab to'lg'anmoqu boshimda o't,  
Shamning chun toridek qildi namudorimni zaf.  
Rishtai laling, degay, topmish uchug' birla girih,  
Ko'rgan elkim, qong'a solmish joni afgorimni zaf.  
Sabr mumkin yo'q junun oshubi dog'i zafdin,  
Vahki, nobud ayladi oxir yo'qu borimni zaf.  
Xatti mavhum o'ldi tan anda, ko'ngul imkoni yo'q,  
Qo'ymadi asrarg'a yer ishq ichra asrorimni zaf.  
Ul quyosh ishq qaviyroqdur, Navoiy, nechakim,  
Zarracha ham qo'ymadi hijronda miqdorimni zaf.  
306

Birovga musallam tariqi tasavvuf  
Ki, zotida mavjud emastur taxalluf.  
Tasavvuf rizo ahlidin yaxshi axloq,  
Erur istilohoti zebu takalluf.  
Tasavvuf emas zuhdu taqvoyu toat  
Ki, anda riyo yo'l topar betavaqquf.  
Erur mahz taqvoyu lekin riyosiz  
Ubudiyat sarfu ayni talattuf.  
Ne el qavlu felig'a andin taaddi,  
Ne haq amru nahyig'a andin tasarruf.  
O'zin uyla beixtiyor anglabonkim,  
Ne qolib taraddud anga, ne taassuf.  
Qilib haq vujudida mahv o'z vujudin,  
Navoiy, muni bil tariqi tasavvuf.  
307

Chok ko'nglumni olib dardini qilding tazif,  
Meni bedilg'a ani bermas esang, qil tansif.  
Kufri zulfini qo'yub, kim desa, islomg'a kir,  
Bordur islom elini kufrg'a qilmoq taklif.  
Yuzung ollida quyosh vasfini qilmog'lig' erur  
Sham nurini quyosh o'llig'a qilmoq tarpf.  
Husn sinfida, yuzung vasfida mingdin bir emas,

Oshiqing yuz ming esa, har biriga ming tasnif.  
Dardu ranjing bila borini qilibmen mamlu,  
O'qlaring zaxmiki ko'nglum aro solmish tajvif.  
Hajr o'ti birla manga ishq beribtur varzish,  
Voizo, do'zax o'tidin yana qilma taxvif.  
Yana masjidida Navoiyni tilarsen, ey shayx  
Tilasang ani, ketur maykada sari tashrif.  
308

Jonim ichra zafdur yuzlangali jonong'a zaf,  
Bo'lmasun jononima zaf, o'lsa o'lsun jong'a zaf.  
Orazida tobu yo'q og'zida kulgu go'yiyo,  
Mehr tobidin erur ul g'unchai xandonga zaf.  
Aylanurda boshig'a zaf ayladi go'yo asar,  
Qildi aning zafidin bu zori sargardong'a zaf.  
Hayratim zafig'a mundoq aylamish bexud meni,  
Zafig'a hayron qolib, bo'lmish meni hayrong'a zaf.  
Bistari gulrang uza ul nav uzalmish zafdin  
Kim, uzori uzra bo'lsa nargisi fattong'a zaf.  
Soqiyo, bir jura birla quvzating'a bois o'l  
Kim, base, g'olibdurur bu xastai hijrong'a zaf.  
Ey Navoiy, yor zafi buzdi ko'nglum, uylakim,  
Mamlakat bo'lg'ay xarob, o'lg'an zamon sultong'a zaf.  
Qof Harfining Qiyomatlarining Qironi "Favoyiddin  
309

Bu nukta so'rda fano dayri ichra piri tariq  
Ki, betariqqa yetmas hidoyati tavfiq.  
Tariqi joddai shar erur bu dayr ichra  
Ki, anda kimki suluk etti - bo'ldi ahli tariq.  
Yana hidoyati tavfiq ulki, bergay haq,  
Ko'ngulga dag'dag'ai azmi kishvari tahqiq.  
Yo'l osru bo'rtoq erur, tun qorong'u, dasht uzun,  
Ko'p osru qati tariq ahliyu yo'q anda rafiq.  
Kishiga bo'lmasa hodi, padid emas maqsad,  
Hidoyat o'lmay aning qatin etmagil tasdiq.  
Bu dasht qatn ajab sab erur, tut, ey soqiy,  
To'la qadahkn, g'amim bahri yanglig' o'lsa amiq.  
Kim uyla bahr ichiga shavq zavraqin sursam,  
Ham o'z'lukum, ham o'zum bo'lg'ay anda barcha g'ariq.  
Erur bu bahri xarobot ishq jomi mayi,  
Tutarg'a mug'bachalar bo'lsa dilpaziru shafiq.  
Navoiyo, seni ul bahrning g'ariqi degan  
Magarki mast ko'rub, buyla ayladi tahqiq.  
310

Ey, jamoling shamig'a jon birla ko'nglum muhtariq,  
Gah muxolif aylanib boshing'a, gohi muttafiq.  
Ikki parvonaki, bir sham ustiga aylansalar,  
Gah muvofiq, gah muxolif, shak yo'q o'lmoq muhtariq.  
Gar zakoti husn ulashmak istasang, ey ko'rkaboy,  
Bil yaqinkim, ushbu munglug'dek topilmas mustahiq.  
Dafa-dafa dudi ohim hadsiz uchqun birla ko'r,  
G'am tunidek bir-bir uzra charxu anjum muntabiq.  
Chunki sensen ruhi poku men nachukkim tiyra xok,  
Suhbatimdin topsa tabing tiyralik, sensen muhiq.  
Har nekim kelsa qazodin, shokir o'lmoq shart erur,  
Sudi yo'q juz g'ussa, kimsa har necha bo'lsa mudiq.  
Chun Navoiy riqqat aylab, nazm etar sharhi firoq,  
Furqat ahlig'a tong ermas bo'lsa ashori muriq.  
311

Choqin o'ti qila olmas g'amim tunini yoruq,  
Sahob yetkura olmas tugonlarimg'a momuq.  
Chu bordi xastamen onsiz, har oyinaki kishi  
Ki, jondin o'lsa yiroqroq, bo'lur o'lumga yovuq.  
Yuzung nazzorasidin ko'zki qoldi, yoptingkim,  
Emas mutolaasiz rasm mushaf o'lmoq ochuq.

Manga siyosati hajr ichra bir sharar basdur  
Ki, mo'r o'rtagali ermas ehtiyoj tomuq.  
Xayolidur mutazarrar ko'ngulda ohimdin  
Qi, yo'q tahammuli xoh issig' o'lsa, xoh sovuq.  
Base yorug'lug' umid o'ldi uyla ravzanadin,  
Tobonki dashti fano po'yasidin o'lsa yoruq.  
Qul o'ldi manglayida dog' ko'p ko'rub ehson,  
Vafosi bazmida baskim Navoiy etti tobuq.  
312

Ey aql, qilmag'il ko'p tavsanlig'u harunluq  
Kim, ishq bizga soldi ojizlig'u zabunluq.  
Men yo'qki, charxi azam to bir quyosh mehrin,  
Ishq ichra qilg'ali fosh, o'ldi anga nigunluq.  
Kim hajr zulmatida itsa ne tongki qilg'ay,  
Aynul hayot vaslin ham Xizr rahnamunluq.  
To ishq shiddatida tavshalmas odamizod,  
Noodamiylik andin ketmas yiroqu dunluq.  
Gar ishq zaxmig'a vasl marham desangki qo'ysun,  
Xijronda osru qilma besabru besukunluq.  
Har nechakim yuz o'lsa hijronda zafaroni,  
G'am yo'q berur chu qon yosh ul yuzga lolagunluq.  
Bir jom ul pariyvash to tutti, kimki ko'rdi  
Aytur meni: erur bu yo mast, yo jununluq.  
Bu ishq pok birla xirqamni huru rizvon  
Yirtishlar, qilurg'a hullalarin yurunluq.  
Vasl istading, Navoiy, ofat boshingg'a yog'di,  
Boshingda qayda tushti bu tole ozmunluq.  
313

Ne haddim orzu qilmoq ul oy bazmida mahramliq,  
Muyassar bo'lsa xushtur, itlari xaylig'a hamdamliq.  
Meni devona qilg'an vajhdin ani pariy dermen,  
Yana bir vajh bukim, tavrada kam ko'rdum odamliq.  
Inon, tuz qomating haqqiyu ohimdin hazar qilg'il  
Ki, gulshan ichra nozuk naxlg'a yeldin bo'lur xamliq.  
Qotiq holimga charx aylab taponcha birla ko'k yuzni,  
Nujum ashkidin etti nilufar bargini shabnamliq.  
Manga bo'l yorkim, ishq ahli birla husn eli ichra,  
Muqarrarlig' manga yetti, sanga tegdi musallamliq.  
Ne husnu nutq erur, yo rabki, zohir aylasang andin  
Quyoshqa tiyralig' bo'lgay, ayon Isog'a abkamliq.  
Zamon ahlini qotiqmu deyin yo sustkim, yo'qtur  
Jafo ichra alarda sustlig', ahd ichra mahkamliq.  
Fano dayri gadoyimen, mayim eski safol ichra,  
Tamosho aylab, ey shayxlar, ko'rung ul jom ila jamliq.  
Navoiy, dayr piri nuktasin fahm etmasang, mast o'l,  
Nedinkim osru ko'p voqidur ish sirrida mubhamliq.  
314

Ne haddim bor itingning poybo'sin muddao qilmoq,  
Manga basdur muyassar bo'lsa yer o'pmak, duo qilmoq.  
Ayog'ingdur manga hojatki, gom urg'ay mening sari,  
Sanga osondurur bu hojatim, jono, ravo qilmoq.  
Tilu xomam jahonni tutti, ammo husnungu ishqim  
Qalam ham aylay olmas naqshu til dog'i ado qilmoq  
Ko'zu qoshing ko'ngulning ro'zg'orinkim qora qildi,  
Kerak shukr etmasa zohir, yuzin dog'i qora qilmoq.  
Agar mujgonu qoshing hayrati ermas edi gardun,  
Ne erdi aylamak ohim o'qu gardunni yo qilmoq.  
Qilay ming sajdai shukr, ulki umrum sajdada o'tti,  
Topa olsam qoshing mehrobida borin qazo qilmoq.  
Xato qilg'ach, ibodat tarki tana urma, zohidkim,  
Ubudiyat ishinnng lozimi keldi xato qilmoq.  
Riyodin ayladi ujbumni afzun xonaqah shayxi,  
Xaroboti fano pirig'a avlo iltijo qilmoq.  
Navoiy ishq ul oy husni birla tavomondurlar,  
Alarni bo'lmas, ey pand ahli, bir-birdin judo qilmoq.

315

Bir qatla bo'lsa erdi ul gul uzor oshiq,  
Bo'lg'aymu erdi muncha ollida xor oshiq.  
Ishq ichra kuysa erdi bir tun, qilur edi rahm,  
G'am shomi oh o'tidin cheksa sharor oshiq.  
Xore ayog'in afgor etmay ne fikri bo'lg'ay,  
Gar qilsa xora birla ko'nglin figor oshiq.  
Jonni fido qilsam tan etmangizki, bordur  
Yor ollida o'larga beixtiyor oshiq.  
Shami jamolin ochqoch, o'rtanmakim ne tongkim,  
Kuymak aro keraktur parvonavor oshiq.  
Ishq ichra etiboring gar yo'q, bu mutabardur,  
Bo'lsa kerak fanodin beetibor oshiq.  
Oshiq esang, Navoiy, ko'p zafdin toriqma,  
Ne bo'lg'usidur o'lmay zoru nazor oshiq.

316

Ashkdin jismim binosin qo'ymadi obod ishq,  
Ohdin berdi vujudim tufrog'in barbod ishq.  
Hajr aro g'urbat yana bemorlig' birla junun,  
Qildi jonim qismati bu nav yuz bedod ishq.  
Shulasidin tushti o't olamda ul yuz hajrida,  
Har qachon ko'nglumni qildi o'rtamak bunyod ishq.  
Hajru dardu sabrsizlig' keldilar qotil bari,  
Lek bu fan ichra bordur barchag'a ustod ishq.  
Yuz fasonam bor ani ko'rgan zamon arz etgali,  
Jilva qilg'ach, voykim, bermas birin ham yod ishq.  
Qatlini ishq ahli topmas jon berib, to ayladi  
G'amza tig'i birla mahvashlar ko'zin jallod ishq.  
Sendin o'rgangan kebi Layliyu Shirin zulmu kin,  
Mendin o'rganmak kerak Majnun bilan Farhod ishq.  
Vasl tahsili uchun, ey shayx, taqvo qilma amr  
Kim, fano oyinin aylabtur manga irshod ishq.  
Ey Navoiy, ofiyat ko'yida sen bo'l shodu xush,  
Kim meni dardu balog'a aylamish mutod ishq.

317

To meni mehnat tuniga muhtalo qildi firoq,  
Ro'zgorimni savodidin qoro qildi firoq.  
Qon yoshim oqmog'lig' erdi, dard ila g'am hojati,  
Hojatin o'z qavmu xaylining ravo qildi firoq.  
Oqibat to naylagay nozuk ko'ngulga dardni,  
Ko'p suubat birla holo ibtido qildi firoq.  
Jonu ko'nglum har biri yig'larlar o'z ahvolig'a,  
Go'yiyo ko'ksun uyin motamsaro qildi firoq.  
Vasliga shukr etmagan bo'lsam, mahalli tan emas.  
Chun yuz onchakim kerak erdi sazo, qildi firoq.  
Davr ko'rkim, ulki ichi bir qadah no'shi visol,  
So'ngi qatla zahr ila jomin to'lo qildi firoq.  
Har dam onsiz yuz o'lum erdi Navoiy jonig'a,  
Bir o'lum birla bu dardig'a davo qildi firoq.

318

Ey, kalomi jon fizoying naqdi jondin yaxshiroq,  
Lali jonbaxshing hayoti jovidondin yaxshiroq.  
Garchi hajringdin yomon holatda men, lekin manga  
Kimki andin yaxshiroq yo'q, sensen andin yaxshiroq.  
Xalq tarki ishqing aylarga biravni qatl uchun,  
Gar tilarsen, topmag'ung men notavondin yaxshiroq.  
Ishq sahosida yod etma vatandin, ey xirad  
Kim, bu nav o'voraliq' yuz xonumondin yaxshiroq.  
Istasang, ey ishq, Majnun o'rnig'a sargashtaye,  
Bilki, topqung yo'q bu rasvoi jahondin yaxshiroq.  
Dayr aro yaxshi-yomon ollida bosh qo'ysam, ne tong,  
Kimki yo'q andin yomonroq, men yomondin yaxshiroq.  
Ey Navoiy, xurdai nazmingg'a isloh istasang,  
Kimsa qilmas ani shohi xurdadondin yaxshiroq.



319

Ul pariyvash muddaig'a mehribondur, bizga yo'q,  
Filmasal ollida aning itga sondur, bizga yo'q.  
Ko'yida itlarga maskandur valek qavlar meni,  
Vahki, hamdamlarga anda xonumondur, bizga yo'q.  
Elni har dam o'lturur, bizni bu g'am o'lturdikim,  
Lutfi aning o'zgalarga har zamondur, bizga yo'q.  
Tong emas gar oh xoki tanni barbod aylasa,  
Gardg'a chun ostonida makondur, bizga yo'q.  
Itlari mehmon bo'lurg'a yo'q hadim, ne nav dey  
Kim, ul oy mahsuslarga mehribondur, bizga yo'q.  
Hay deguncha chun o'tar ham ayshu ham g'am, bas nedur,  
Gar falakdin elga ayshi begarondur, bizga yo'q.  
Qismat ar dilxoh ila ermas, Navoiy, shukrkim,  
Elga bu ish mujibi ohu fig'ondur, bizga yo'q.

320

Birov jismig'a otsa ul siymtan o'q,  
Mening jonima sanchilur yuz tuman o'q.  
Budur turfakim, buyla holimni anglab,  
Manga otmas ul sho'xi novakfikan o'q.  
Boshoqdin yog'ar obi hayvon ulusqa,  
Chu yog'dursa ul qotili safshikan o'q.  
Ko'p o'q otmakim, gul yuzung furqatida  
Erur xasta ko'nglumga har bir tikan o'q.  
Qoshingdin tushub men yiroq, yodin o'qdek,  
Manga zafdin bo'ldi go'yo badan o'q.  
Qadah qalqonin istakim, charx o'qidin,  
Base yog'durur charxi bedodfan o'q.  
Navoiyu gulshanki bir guldin ayru,  
Manga basdurur kunji baytul-hazan-o'q.

321

Seningdek pariy xayli odamda yo'q,  
Demay xayli odamki, olamda yo'q.  
Parishon chu zulfung xamin qildi yel,  
Parishon ko'ngul yo'qki, har xamda yo'q.  
Bu lazzatki, zaxmingda topti ko'ngul,  
Yaqin bildikim, hech marhamda yo'q.  
Daming xijlatidin nachuk qochmasun,  
Bu dam chunki Isoi Mar'yamda yo'q.  
Ko'zung qatlidin dahr eli qolmadi,  
Agar qoldi, bu yo'qki, motamda yo'q.  
G'amingdnn manga ancha ayshu tarab  
Ki, yuz xotiri shodu xurramda yo'q.  
Mug'anniy, Navoiy fig'onin eshit  
Ki, sozing aro zer ila bamda yo'q.  
Kof Harfining Kofirlarining Kamoli "Favoyiddin

322

Vafo tariqida ulkim tilarki, qilsa suluk,  
Kerakki, tutsa vafo ahli shevasin masluk.  
Bu sheva mumkin emas, negakim, vafo yo'qtur  
Ulusqa yaxshi-yomon bilu gar gadoyu muluk.  
Zamona ahli vafo tarkin aylamish demangiz  
Ki, bu zamonda yo'q amri vafo kebi matruk.  
Firoq shomiki, kiydi qora, yoyib sochin,  
Jahonda tutti hamono vafo azosig'a suk.  
Falak vafog'a azo tutqan o'lsa ahli vafo,  
Tirik netib yurugaylar jamoati mafluk.  
Ketur qadahki, vafo lofini malak ura,  
Mening qoshimda shak ermaskim ul erur mashkuk.  
Navoiy anglaki, bobi vafo yozilmaydur,  
Agar Fususdurur, gar Nususu yo'qsa Fikuk.

323

Vasli iqbolin manga tekmas tamanno aylamak,

Basdurur umrumda bir husnin tamosho aylamak.  
Xat labingdin jon fizo, ul xat labingdin ruh baxsh,  
Istamon afsonai Xizru Masiho aylamak,  
Berma ul qomatqa har yon jilva, elning joni bor,  
Vah, nedur ham dam qiyomat oshkoro aylamak.  
Bo'lmag'on bo'lsa ayon qasrig'a pinhon borganim,  
Ne edi ko'yida itlar kecha g'avgo aylamak.  
Bir pariy ishq meni bu nav shaydo qilmasa,  
Bo'lmas o'zni oshiqu devona amdo aylamak.  
Jon berib zulmin chu topmon jon toparg'a vaslini,  
Bas tamannoni maholidur tamanno aylamak.  
Zuhddin badhol edim, xushvaqt o'ling, ey ishq dami,  
Sizga yetgay elni mundoq mastu rasvo aylamak.  
Olam ahlidin tavaqqu aylamak ahdu vafo,  
Zahrdin hayvon suyi bo'lg'ay tavallo aylamak.

324

Ko'zda yoshim evrulur sargashta Majnun yoshidek,  
Aylanur boshim dog'i qon ichra har dam boshidek.  
Qo'rqaramkim, tashlag'ay ul sho'x ko'yidin yiroq  
Kim, boshim aylandurur davron faloxun toshidek.  
Bir-biri ichraki yolar ko'rguzur qavsi quzah,  
Bo'lmagay payvasta ul ikki muqavvas qoshidek.  
Ko'p diloro shakllarkim, chekti Chin suratgari,  
Ochmadi bir chehra hargiz surating naqqoshidek.  
Ko'zlaring qonimni qut aylarda sihat toptilar  
Kim, qilibturlar g'izo bemor parhez oshidek.  
Rind bo'lg'ay ikki olam o'ynag'ay bir dav ila,  
Bo'lmag'ay lekin xaroboti fano qalloshidek.  
Siyngun qushlar tong otquncha falakda, ey Masih,  
Bor ekinmu biri ul mug' dayrining xaffoshidek.  
Qonu toza dog' ila ko'nglum aningdek bo'ldikim,  
Ul qadah toshu ichidur lola ichu toshidek.  
Gar zarafshon qilsa tazhib ahdi no'gi xomasin,  
Durfishon ermas Navoiy kilki gavharposhidek.

325

O'z tilim chun istamas rozimni ixfo aylamak,  
O'zga tildin ne taajjub bo'lg'ay ifsho aylamak.  
Menki o'z sirrimni pinhon asray olmon, turfadur  
El aning tutmog'ini maxfiy tamanno aylamak.  
Telba sirin elga gar aytur junundindur valek  
Hazi erur har dam ani el oshkoro aylamak.  
Nuktakim Majnun degay ermas ajab atfoldin,  
Aylamak takror ul so'zniyu g'avgo aylamak.  
Ko'nglida yuz qatla pinhon aylamak so'zni ne sud,  
Tilni bir qatla aning sharhida go'yo aylamak.  
Ko'z manga bas, tilni kesmak istaramkim, xo'b emas  
Roz ifsho aylamak, basdur tamosho aylamak.  
Kosh o'yulsa ko'z dog'ikim bir tamosho aylabon,  
Andin o'ldi ming balo jonimg'a paydo aylamak.  
Bu balolardin zamone forig' aylar dayr aro,  
O'zni bir dam kimsa masti jomi sahbo aylamak.  
Muncha kuymak ishqdindur, ey Navoiy, ashkdin  
Su urub tarkin, kerak haqdin tavallo aylamak.

326

Har dam istar telba ko'nglum ishq kitmon aylamak,  
Barqi lomini qorong'u uyda pinhon aylamak.  
Qaysi qushkim bu tamanno zohir etsa, istagay  
Xas uyin otashgah o'ti birla vayron aylamak.  
Sham o'ti fonus aro yoshunmog'i mumkin emas,  
Hulla ichra barq o'tin pinhon ne imkon aylamak.  
Ishq chun muhlikdurur xohi nihon, xoh oshkor,  
O'lgucha dam urmayin avlodur afg'on aylamak.  
Mehr aksi go'yiyo daryog'a tushkandindurur,  
Kaf sochib ahli junundek sho'ru tug'yon aylamak.  
Nuh davrinda magarkim oshiq erdi ro'zgor,

Yo'qsa ashki saylidin ne erdi to'fon aylamak.  
Ishqi o'ti gar tushmamish dayri fanog'a, bas nedur,  
Kup ichin qon aylab, andin el ichin qon aylamak.  
Ishq bas dushvor erur, bilgil g'animat, bersa dast.  
Buyla mushkul ishni o'lmak birla oson aylamak.  
Ey Navoiy, boshinga keldi junundin yuz balo,  
Ul pariyvashqa ne erdi ko'zni hayron aylamak.  
327

Ko'zungnung ollida nargis kelib qatiq ko'zluk,  
Yuzung qoshida guli otashin sovuq yuzluk.  
Achiq-chuchukka labingning muteimenkim, ul  
Agarchi yig'latur achchiq, erur chuchuk so'zluk.  
Kungulga zulfi kebi egrilik qilur ul sho'x,  
Ne bo'ldi qilsa edi qomati kebi tuzluk.  
Raqibdin ul oy afsun bila fan o'rganmish,  
Pariyg'a dev ne talim qildi ko'r buzluk.  
Kerak libosi malohatda mahvash el dilkash,  
Gar egni hullalig' o'lsun, vagar tani bo'zluk.  
Biravki, dayri fano ichra cheksa bodai ishq,  
O'zidin ulki burun mahv o'lur, erur o'zluk.  
Navoiyo, ne ajab xonumoning o'lsa qora,  
Chu yoring o'ldi qora qoshlig'u qora ko'zluk.  
328

O'zga oylardnn hayotim nashasi bermas ilik,  
Mumkin ermas o'zgalar joni bila bo'lmoq tirik.  
G'uncha og'ziga agar tobidur og'zing, yo'q ajab,  
Hurmat asrar, ne uchunkim ul ulug'dur, bu kichpk.  
Sabzaxtlar yo'q yigit sonida ul yuz tobidin,  
Sabzani oq etti go'yo ul quyosh bo'lg'ach itik.  
Kiringali ko'nglumga ul oy gar ko'zumni tutti qon,  
Bir eshik bog'lansa ne g'am, ochti tig'i yuz eshik.  
Ayni zaf ichra ko'zungga sho'xlug' onin erur,  
Uylakim bemorlar ichra bo'lur bazi tetik.  
Yuz yoshurdung, lek zulfung torini yoydn sabo,  
Shula past o'lg'anda andoqkim tutun bo'lg'ay biyik.  
Yorug' istarsen ko'ngul, mufrit riyozat qil qabul,  
Qayda ko'zgu ravshan o'lg'ay, bo'lmasa suhon irik.  
Dayr aro behushmenkim, boda tutqach mug'bacha,  
O'zni bilmak rasm emastur, kimda-kim bo'lg'ay bilik.  
Chehra chun ochting Navoiyg'a, tong ermas iztirob  
Kim, pariy ko'rgach junun ahli, qilurlar telbalik.  
329

To yelak savsani aylabsenu gulgun terlik,  
O'zidin savsanu gul ter aro yupturlar ilik.  
Soldi boshig'a ulug' fitnalar el qatli uchun,  
Garchi sho'xona siyahpeching ko'runur osru kichik.  
Lemuyi bo'rkung erur shulaki, sindurdung uchin,  
Kuydurur xalqni ul shula agar bo'lsa biyik.  
Qon qilib rishtai jonlarniki qilding takband,  
Bog'lading belni magar qo'ymag'ali elni tirik.  
Sen bu oshubu qiyomat bila aylab jilva,  
Men netib aylamayin telbaligu sheftalik.  
Garchi Kaba eshikin topmadi mingdin bir ochuq,  
Kir fano dayridakim, anda yopuq bo'lmas eshik.  
Oqsa nash ichra Navoiy yorasining qoni,  
Chekib, ey ishq, kafan torin, aning zaxmini tik.  
330

Labing xayolidakim chok erur manga ko'nglak,  
Tikar edim ani, jon rishtasidin o'lsa ipak.  
Itinga ozroq esa tuma pora-pora bag'ir,  
Uzub solay yana bir luqma o'rni tutsa yurak.  
Xating g'amidin usholg'an qalam kebi badanim,  
Ichinda nol kebi har taraf zaif so'ngak.  
Binafsha yaprog'idinmu libos etibdur gul,

Yo'q ersa gul kebi jismingdatur binafsh yelak.  
Yuzunga obila zaxmidin o'zga xolatdur,  
Nechukki bog' topar zeb, chun ochildi chechak.  
Libos ziyatiyu ishq lofi keldi yiroq  
Ki, kuymas ar necha parvonadek uchar ko'palak.  
Navoiy aylay olurmu nihon bag'nr tuginin  
Ki, lola yanglig' ochar pora-pora qonlng' etak.  
331

Ul sarig' to'nluq erur turg'anda tazimimg'a tik,  
Shulakim xoshokni kuydurgali bo'lg'ay biyik.  
Ko'ngluma sancharg'a, ey gul, qilma mujgoningni tez  
Kim, tikonning ignasin hojat emas qilmoq itik.  
Qilmadi holimg'a g'amzang birla laling iltifot,  
Bor aiingdek holatimkim, ne o'lukmen, ne tirik.  
Ko'z savodidin qora jon safhasin qildim varaq,  
Bu ikining rashkidindur gar sanga yozmoq bitik.  
Xol ekinmu ul ko'z ostida, yo'q ersa nofadin  
Mushk tar bo'lg'ach, gul uzra qatra tomizdi kiyik.  
Hajr toshi birla mehnat sholini qildim qabul.  
Ey ko'ngul, ishq ichra bo'lmas ko'rmayinn qattig' irik.  
Xonaqahni bog'lading, ey shayxu, qildiig azmi dayr,  
Yuz eshik ochildi, gar bog'landi ersa bir eshik.  
Uyla foniy bo'lki, domangiring imkon bo'lmag'ay  
Kim, etak mavjud agar yo'qtur, neni tutqay inlik?  
Ey Navoiy, chun pariyvashlarga mumkin yo'q vafo,  
Qilma mundin nari gar bor esa aqling telbalik.  
332

Mayda bo'lsa manga ul lali shakarxand gazak,  
Zahr bo'lsun, tilar o'lsam shakkaru qand gazak.  
Dayr piri keragu mug'bachai bodafurush  
Ki, ato quysa qadah og'zima, farzand gazak.  
Iki lalingg'a ajab holat erurkim, yo'qtur  
Ne aning o'xshashi may, ne munga monand gazak.  
Rangi lali bo'lur ikki labinga yetsa nabot,  
Tashla andin bu sari bir-iki parkand gazak.  
Yopishur lalinga chun yetsa gazak, vah, ne ajab,  
So'rsam anikim, erur jonima payvand gazak.  
Davrkim, bodasiningdur gazagi zahr olud,  
Oqil andin tilamas boda, xiradmand gazak.  
Ey Navoiy, may agar zahrdurur, ichsa bo'lur,  
Kimsaga gar bo'lur ul lali shakarxand gazak.  
333

Ne osig' ohim o'ti ravshan zuloling kunidek,  
Tiyra dudi chun meni o'lturdi hijring tunidek.  
Garchi bo'lsa har sharar do'zax o'tidin shulaye,  
Mumkin ermas ko'nglum otashgohining uchqunidek.  
Eyki, zarhal qilmoq istarsen samandi nalini,  
Topmog'ungdur anda surtarga yuzum oltunidek.  
Xo'blar lutf aylab, ul qatling'a garchi hukm etar,  
Hech un kelmas qulog'img'a ul oyning unidek.  
Vah, ne bo'lg'ay yetsa yuzu xattinga giryon ko'zum,  
Ashkim o'lsa ul gulu bu sabzaning shudrunidek.  
Bil vafo rasmin g'animat, ey gul, andin burnakim,  
Day sipohi yetkay ohu ko'z yoshim chopqunidek.  
Vasli ko'yidin Navoiy ko'ngli ozdi, ey rafiq,  
Ko'rmaduk hargiz ul ahli ishqning ozg'unidek.  
334

Dayr aro mug'bachadin sog'ari mastona kerak,  
Nechakim tutsa ani to'ldurubon, yona kerak.  
Menki bir sog'ar ichib, charxnn barham ursam,  
Bu ko'han dayri fanocha manga mayxona kerak.  
Yetti daryo suyi may bo'lsa bu mayxona aro,  
Loaqal xud birisi sig'qucha paymona kerak.  
Dayr piri bu xarobotnipeg ayvoninda

Aqli kulga saboq o'rgatgucha farzona kerak.  
Davrida mug'bachalar har biri jon olmoqda,  
Yuz Masihog'a sitam qilg'uncha jonona kerak.  
Buyla bazm ichra alar har birikim tutsa qadah,  
Naqdi din bergali bir men kebi devona kerak.  
Kim Navoiy kebi bu dayr aro tutsa vatan,  
Hushu zuhdu xiradu din ila begona kerak.  
335

Xarob qilmadi oncha menin mayi gulrang  
Ki, qildi orazi gulrang birla soqiyi shang.  
Ne soqiy ulki, aning ishvasig'a boqsa, bo'lur  
Havos lolu, xirad masxu ruhi notiqa dang.  
Halok neshi aning g'amzasiga yo'q hamto,  
Hayot javhari lali labig'a yo'q hamnang.  
Qiyo-qiyo boqishi yetkurub bag'rig'a qilich,  
Qora-qora mujasi yetkurub ko'ngulga xadang.  
Savodi azami kufr ila zulchi zunnorin  
Ki, topilib shikanu halqasida chinu farang.  
Bu nav mug'bacha may tutsa dayr aro kishiga,  
Kishi emas, gar anga qolsa donishu farhang.  
Navoiy o'ldi chu bu soqiy ilgidin sarxush,  
Ne ayb, dayrg'a masjiddin aylasa ohang.  
336

Boshig'a chunki alif kes kay ul buti bebok,  
Emas mahalln taajjub, gar o'lsa bo'rkida chok.  
Gahiki mast egarur bodpo xirad xayli,  
Borur havog'a, quyun yetkach, uylakim, xoshok.  
Nekim boshimda edi, qo'y dum istabon qatlin  
Ki, ossa shahsuvorim uzilmagay fitrok.  
Qoshi firoqida bahri sirishkim andoqdur,  
Ki, yangi oy kemasin chayqatur, urub ko'lok.  
Tutub piyola farahnok qilg'il, ey soqiy,  
Meniki hajr xumori qilibturur g'amnok.  
Magar zamon g'amidin qochmasun deb ahli ano,  
Ihota ayladn bir-birining ustida aflok.  
Tajalli aylasa ul pok yuz, desang avval,  
Zamiring oyinasin g'ayr naqshidin tut pok.  
Navoiy anduhu furqatda o'tkarib umre,  
Agar dame topibon vasl dog'i o'lsa, ne bok.  
337

Tarki ishq ettim, meni ishq ahli xaylidin surung,  
Chiqmasam tanu jafo toshi boshimg'a yog'durung.  
Balki bo'ynum bog'labon, ushshoq ibrat olg'ali,  
Ishq mulki to'rt bozorida sudrab kezdurung.  
Buyla rasvolig' bila torting balo maydonig'a,  
Har uqubat birlakim, nmkoni bo'lgay, o'lturung.  
G'ussa dashtidin o'tun toshib, tamug'din o't olib,  
Solibon men xomnnng jismin ul o'tqa kuydurung.  
Chunki kul bo'ldum esarda hajr dashti sarsari,  
Ovuch-ovuch olibon, ul kulni ko'kka sovurung.  
Sovururda do'st javrin navham ichra darj etib,  
Do'stlar bedodu zulmin ham ayolg'u kelturung.  
Buyla holim ko'rgach, ey ishq ahli, har dam yuz balo  
Yetsa, ishq otini tutmog'din ko'ngulnn tindurung.  
Do'stlar, men ishqini tark aylagan badmehrn  
Bir bahona birla men kuygan mahal'g'a yetkurung.  
Garchi men bo'ldum fano, bore uyatlig' ruhuma  
Badnoi sayridin jannat nasimi esturung.  
Ishq dashtida navo ko'ptur, Navoiydek birav  
Kim, kirar anda, ani yuz ming balog'a topshurung.  
338

Zihi sekribon charx uzra rahnavarding,  
Nazar topmayin to'tiyoliqqa garding.  
Ko'runub kavokib riyohini shabnam,

Chu ko'k gulshanig'a yetib toza varding.  
Uchub yetti do'zax o'ti, chunki ummat  
Gunohin tilarda chiqib ohi sarding.  
Izingdin quyosh chehra yorutmag'andin,  
Qilib zafaron kun uzorini zarding.  
Rayohin aro sarvi ozod yanglig',  
Ko'runub rusul xaylida zoti farding.  
Rusul surmadi lomakon uzra markab,  
Sen erding bu maydondakim ot chiqarding.  
Navoiy, nabiy natijin jam qilg'il,  
Parishon esa xotiri harzagarding.  
339

Bo'lur gahikn g'amim shulasin ayon qilsang,  
Shararni shula uza nuqtalar gumon qilsang.  
Ko'zum yorug' tilar ersang, yoshurma xolingni  
Ki, ko'r o'lur ko'z, agar nuqtasin nihon qilsang,  
Xadangi ohim ila, ey falak, xato qilmay,  
Qorong'u tunda ne kavkabnikim nishon qilsang.  
Iloj qilmaki, botroq kuyarga ansab erur,  
Tanim chinin necha hajringda notavon qilsang.  
Ko'z ichra halqa urubtur sirishk o'lur, ey ishq,  
Ko'zum qorasini ul yoshlar ichra xon qilsang.  
Chu javring o'rtadi parvonani ne sud, ey sham,  
Kesib sochingni, azosi uchun fig'oi qilsang.  
Ko'zungni ko'ngluma andoqki mizbon qilding,  
Yuzungni ko'zuma ham, kosh, mehmon qilsang.  
Bu bog' gullari bargida topmas, ey bulbul,  
Dimog'i mehr isi, yuz qatla imtihon qilsang.  
Navoiy, aylagasen vasl kishvarini vatan,  
Fano yo'lig'a kirib, tarki xonumon qilsang.  
340

Qora-qora muja xanjarlarin ititmak ishing,  
Hayot naxlini keskan qiyo-qiyo boqishing.  
Ishing bu erdiki, jonimni olg'asen, tanni  
Ki, sudraturmen eshiktin magar tugondi ishing.  
Zuloli Xizr labing ul zulol qatralari  
Ki, jola bo'ldi uzoring bahori ichra tishing.  
Ne g'unchassen ko'ngul oxirki yelu su yeriga,  
Bo'lubtur ohu bag'ir qoni birla parvarishing.  
Ko'zunga qo'ydn qadam, vah, o'tar xayol aylab,  
Olay desa ayog', ey ko'z qoralari, yoshing.  
Erur chu dahr buzug' gulxan, ushbu avlokim,  
Buzug'da kechsa yozing, gulxan ichra o'tsa qishing.  
Navoiy, istama eldin junun ilojinkim,  
Bu telbalik aro yo'q ul pariydin o'zga kishing.  
341

Ishva aylab elga, ohimdin tavahhum qilmading,  
Tishlabon lalingni, jonimg'a tarahhum qilmading.  
Laling ichra durlaring shavqida sarg'ardi yuzum,  
Ohkim, bu zafaron birla tabassum qilmading.  
Orzu qildim hadising - aylading qatlimg'a hukm,  
Ul dog'i erdi ishoratkim, takallum qilmading.  
Elga jon bermak sanga dushvor kelsa, tong emas,  
Senki to jon olmading eldin, tanaum qilmading.  
Ey ko'ngul, andinki avval dud erur, andin so'ng o't,  
Ishq aro Farhodu Majnung'a taqaddum qilmading.  
Ey qazo hukmig'a ojiz, bu sifat mahkum o'lub,  
Farq atvorida hech ish juz tahakkum qilmading.  
Tushkali ul guldin, ey bulbul, Navoiydek yiroq,  
G'ayri dilkash lahnu jonparvar tarannum qilmading.  
342

Bu ne husnu noz erurkim, intihosi yo'q aning,  
Bir nafas yo'qkim, ko'ngulda yuz balosi yo'q aning.  
Xoli hijronida tim-tim yerga tomgan qon yoshim,

Har biri bir lolasdurkim, qorosi yo'q aning.  
Ko'nglum andoq to'ldi qon birlaki, chiqmas nolasi,  
Boda to'lg'an jom yanglig'kim, sadosi yo'q aning.  
Zohir etti xasta ko'nglum yorasi og'zida qon,  
Kim bag'ir xunobidin ayru g'izosi yo'q aning.  
Qullug'ung dog'in qo'yub, ko'nglumni g'amdin sotqun ol  
Kim, bu naqdi qalbdin ortuq bahosi yo'q aning.  
Ganji ishratdur arusi dahr vasli, ohkim,  
Anbarin zulfidin o'zga ajdahosi yo'q aning.  
Hajr o'qi zaxmin Navoiy bog'lamish boshtin ayoq,  
Yo'q esa jismin yopar chog'liq Inbosi yo'q aning.  
343

Toza dog' atrofida jismimda tim-tim qon ko'rung,  
Dardu g'am tog'ida, vah-vah, lolai numon ko'rung.  
Nafy kilg'anlar qurug' jismim haloku zafini,  
Tang'a ko'nglumdin tiralgan har taraf paykon ko'rung.  
Xalq yig'lab tufrog'im boshida yuz hasrat bila,  
O'qlarni har yen tanyom ochida xandon ko'rung.  
G'am tuni yummas ko'zum davrinda kirpik xaylini  
Saf chekib, ko'zning qarargan holig'a hayron ko'rung.  
Ishqin etkanlar havas, iynak bu tuhmatdin meni,  
Bog'lanib bo'ynum fano bozorida, uryon ko'rung.  
Charx bahri naqdini qnlgan tamanno zarralar,  
Mehr g'avvosin bu igrim ichra sargardon ko'rung.  
O'qlaridindur Navoiy jismi mehnat gulbuni,  
Gullar nynak toza qonlig' dog'idin har yon ko'rung.  
344

Gar jafu qil, gar vafokim, dilistonim sen mening,  
Gar meni o'ltur vagar tirguzki, jonim sen mening.  
Xohi rano qad bila borgil yonimdin jilvagar,  
Xohi kel qoshimgakim, sarvi ravonim sen mening  
Ko'nglum ichra sensenu ishqing ne dey holim senga,  
Chun bu yanglig' mahrami rozi nihonim sen mening.  
Jilva aylab har zamon, afg'onu ohim qilma ayb,  
Ham sen-o'q chun boisi ohu fig'onim sen mening.  
Lalidin bir-ikki so'z mazkur qil, ey xasta jon,  
Bori bu bir-ikki damkim, mehmonim sen mening.  
Telbaldin garchi rad qilding meni, lek anglag'il  
Kim, pariy ruxsoralardin tanlag'onim sen mening.  
O'ldi mehringdin Navoiy, bevafo debsen ani,  
Ertagi nozuk mizoji badgumonim sen menng.  
345

Bog' ichra chu garm bo'ldi bozoring,  
Yuz vajah ila bo'ldi gul xaridoring.  
Yo gul chu xayol qildi yig'ingni,  
G'ayratdin anga o't urdi ruxsoring.  
Qadding bila sarv qilsa sarkashlik,  
Tushkan quyi boshi, ko'rsa raftoring.  
Zulfungkim, erur tugun-tugun go'yo,  
El bo'ldi birin-birin giriftoring.  
Nargis kebi sarg'arib aso tutqan,  
Ko'ptur qora ko'zlar ichra bemoring.  
Qil boru yo'qung fidosi, ey ko'nglum,  
Garchi teng erur anga yo'qingu boring.  
Deding: seni o'lturay - xud o'lturdi,  
Yo'q biymi halok, lutfi guftoring.  
Ey mug'bacha, kufr tarki jurmumg'a  
Bo'ynumg'a taqarga yaxshi zunnoring.  
Gar qaytmasa Navoiy o'lturkim,  
Dayr eshiki chor cho'bidur doring.  
346

Qaysi anduh o'tikim, kuygan tanimg'a urmading,  
Ne balo toshiki, sing'an boshima yog'durmading.  
Ne yomon umr erdikim, kelding chu zafim so'rg'ali,

Aylaguncha jon nisori maqdaming ham turmading.  
Jon kebi kelding va lekin iztirobidin ko'ngul,  
O'lturushquncha dog'i boshim uza o'lturmading.  
Har sari mo'yum zaboni hol ila yobordilar,  
Mo'-bamo' anglab o'zungni, bizga ham kelturmading.  
Chunki chiqting - chiqti jonim, ne iyodat erdi bu,  
Qatlim etting, xasta jonimg'a davo yetkurmading.  
Bog' aro, ey sarv, ham sarsabzsen, ham sarfarozi  
Kim, nechukkim, nastaran bir xasqa bosh indurmading.  
Ey Navoiy, qilmading xoli ko'ngulni g'ussadin,  
To qadahni uylakim ko'nglung tilar to'ldurmading.  
347

Yo qoshingg'a qatl uchun ziynat farovon aylading  
Kim, ham etting lojuvardi, ham zarafshon aylading.  
Buyla ikki yo uchun soz aylabon kirpikdin o'q,  
G'amzalar neshidin ul o'qlarg'a paykon aylading.  
Naqdi sabrim g'unchadek og'zingda qilg'andek nihon,  
Xurdai ishqingni ko'nglum ichra pinhon aylading.  
Olloh-olloh, to ne fikr ettingki, lalu g'amzadin,  
Birni jonbaxshu birini ofati jon aylading.  
Gul to'kuldi, sarv ham yeldin taharruk qilmadi,  
Bog' aro to yuz ochib, qadni xiromon aylading.  
Ne ajab, ey gul, iching qon etsa gardun laxt-laxt,  
Baski, bulbul ko'ngluni g'unchang kebi qon aylading.  
Ey Navoiy, yor agar qovdurdin andin, anglakim,  
Ko'yida o'tgan kecha haddin ko'p afg'on aylading.  
348

Xastadur jonim mening, to bordi jononim mening,  
Bo'lmasun gar borsa jononim mening, jonim mening.  
Gul to'kulmish sug'a, bormish sarv o'zidin go'yoyo,  
Chehra ochmish bog' aro sarvi xiromonim mening.  
Dafa-dafa qon aro jismimdadur bir-bir tungan,  
Lolayedur go'yoyo har dog' ila qonim meniig.  
Tilga olmish telba ko'nglumni yana xayli raqib,  
Qolmish itlar og'zida majnuni uryonim mening.  
Men ang'a hayronu el ming zaxm ura bexabar,  
Bexabar zaxm urg'uchilar dog'i hayronim mening.  
Xalqdin pinhon meni mast ayla shoyad, ey rafiq,  
Sokin o'lg'ay shammai bu dardi pinhonim mening.  
Ey Navoiy, bo'lmasa bir piri komil himmati,  
Ul yigit bedodidin yo'q maxlas imkonim mening.  
349

Eyki, husn ahlig'a nozu sheva talim aylading,  
Ishvayu noz aylabon bir-birga tafhim aylading.  
Har kishi ilgiga sendin bir diramdek dog'i bor  
Husni mulki sochiqin go'yoyi taqsim aylading.  
Bizni taxir etting, aylarda vafo ushshoqinga  
Lek javr og'oz qilg'an chog'da taqdim aylading.  
Chun yetishtim ollingg'a, qo'ptung vale o'lturgali,  
Ey fido jonim sangakim, yaxshi tazim aylading.  
Hajr zahrig'a meni taxsis etpb ahhob aro,  
Vasl no'shin ul jamoat ichra tamim aylading.  
Xonaqah shayxiyu yuz ming qayd tinding, ey ko'ngul,  
O'zni chun dayri fano pirig'a taslim aylading.  
Ey Navoiy, yo'q haram ehromida emdi qusur,  
Kim, ko'ngulg'a g'ayrning yodini tahrir aylading  
350

Ishq sirrin hajr asiri notavonlardin so'rung,  
Aysh ila ishrat tariqin komronlardin so'rung.  
Bizga juz mehru vafo oyini bo'lmaydur nasib,  
Bevafolig' rasmni nomehribonlardin so'rung.  
Bizni davron mehnati ham ojiz etmish, ham qari,  
Husn ila quvvatni rano navjuvonlardin so'rung.  
Bedil el diljo'yulug yo dilshikanlik rasmni



Fahm qilmaslar, bu ishni dilsitonlardin so'rung.  
Nek nom el ishq aro badnomlig'lar shevasin  
Yaxshi bnmaslar, ani bizdek yomonlardin so'rung.  
Fardliq zavqini so'rmang shavkatu joh ahlidin,  
Ul suubat lazzatin bexonumonlardin so'rung.  
Ajz tufrog'ida ishq ahlig'a o'lgan hukmi bor,  
Qatl hukmi aylamakni qahramonlardin so'rung.  
Bilmadi maqsudi ganjining nishonin ahli rasm,  
Gar so'rarsiz, ani benomu nishonlardin so'rung.  
Chun Navoiy ishq sahrosida itti, do'stlar,  
Ani ul yondin yetishgan korvonlardin so'rung.  
351

Do'stlar, gulshan aro sarvi ravonimni tilang,  
Topibon keltursangiz, muzdig'a jonimni tilang.  
Buki bedillig'din o'lgumdir, ilojimni tilab,  
Chunki topmaysiz, boshimg'a dilsitonnmni tilang.  
Bo'lgucha nomehribonim furqatida mehribon,  
Mehribonlig' aylabon nomehribonimni tilang.  
Ne tilarsiz telbarab itkan ko'ngulni bog' aro,  
Qo'yida devonai bexonumonimni tilang.  
Qatlim istar dushmanim hijronidur, gar bilsangiz  
O'lganimni hajridin, zinhor qonimni tilang.  
Og'zi hajridin agar bo'lsam adam, ziphorkim,  
Benishonlig' kishvari sari nishonimnn tilang.  
Ey xarobot ahli, yetmaydur qadahdin nashaye,  
Ul xarobotiy harifi nuktadonimni tilang.  
Sovusa Farhodu Majnun qissasidin ko'nglunguz,  
Bas, mening ishq ichra o'tluq dostonimni tinlang.  
Chun Navoiy o'ldi g'amdin, ey sitamgarlar, ne sud,  
Joni zorim yo'qsa, jismi notavonimni tilang.  
352

Qilmadi vasl ichra bedod uzra bedoding sening,  
Ulcha qildi furqatingda dam-badam yoding sennng.  
Qaysi sohirkim dedikim, Somiriy shogirdimen,  
Dedi g'amzangkim, erur shogirdim ustoding sening,  
Angla Shirinikim, ne sen mashuqluqda oncha sen,  
Ne bor erdi mencha oshiqlikda Farhoding sening.  
Soya ermas, bog'bonkim, gulruxum qaddin ko'rub,  
Ozibon hushi, yiqilmish sarvi ozoding sening.  
Uyqug'a itlar uni gar moni erdi, ey ko'ngul,  
Emdi qo'ymas uyqug'a itlarni faryoding sening.  
Chun fano matlub erur solikka bil, ey shayxkim,  
Kufr erur zuhdi riyoyi ichra irshoding sening.  
Ey Navoiy, mehnatu g'amdin qochar bo'lsang, kerak  
Bo'lsa maylig' tang, su qursi gazak zoding sening.  
353

Shomi hajrim ko'rdung, ammo zulm tarkin tutmading,  
Vadai shami visol etting, vale yorutmading.  
Vadai vasling ilig bergay deb ashkim bo'ldi bahr,  
Chunkim ul daryo aro g'arq o'ldum - ilgim tutmading.  
Vasl no'shidin ko'ngulni qilmading bir lahza xush,  
Hajr zahri biymidin yuz qatla to qo'rqutmading.  
Otashin gul g'unchasidek o'rtading ko'nglumni, lek  
Ochibon ani nasimi vasldin, sovutmading.  
Donai ashkimgakim rom o'ldi hijron qushlari,  
Ey ko'ngul, bir kun fig'oningdin ani urkutmading.  
Xasta ko'nglumkim, g'amu xunoba qilding qismati,  
Bu g'izoyu sharbat ul bemordin o'ksutmading.  
Vodai vaslin g'animat tut, Navoiy, zinhor  
Kim, ne qonlarkim, bu gulgun suni istab, yutmading.  
354

Yana ishq o'tin xasta jonimg'a urdung,  
Balo barqini xonumonimg'a urdung.  
Fano shulasin zor ko'nglumga solding,

Sharorin tani notavonimg'a urdung.  
Qizil hoshiya diklayingda emaskim,  
Etak qatl etar chog'da qonimg'a urdung.  
Fatila edi anda paykoni marham,  
Qayu o'qki, zaxmi nihonimg'a urdung.  
Yana yonima yetti filhol rohat,  
Agar tig'i bedod yonimg'a urdung.  
Ushalsun debon naxli ummidim, ey ashk,  
Ajab jolalar bo'stonimg'a urdung.  
Ko'rub boshta zaxmim dedi, ey Navoiy,  
Magar g'am tuni ostonimg'a urdung.  
355

Jon olurda jism zor erkanni bilmasmu eding!  
Qon to'karda jon figor erkanni bilmasmu eding!  
Nola jurmi birlakim, jonimni olding, nolishim  
Sensizin beixtiyor erkanin bilmasmu ednng!  
Qilding el mehrin sanad qatlimga, yo'qsa jon aro,  
Sirri ishqing ustivor erkanni bilmasmu eding!  
Tuhmati bemehrlig' qildingki, bilgach o'lgamen,  
Yo'qsa, mehring jong'a yor erkanin bilmasmu eding!  
Vaslinga yetkurmagan zulm erdi, vah, yo'qsa ko'ngul  
Furqatingdin beqaror erkanni bilmasmu eding!  
Oshiq o'ldung, ey ko'ngul, qilma fig'on bedodidin,  
Ishq aro yuz muncha bor erkanni bilmasmu eding!  
Ey Navoiy, gar ko'ngul ishqingni yoydi, tong emas,  
Nuktasi devonavor erkanni bilmasmu eding!  
356

Nigor erkin bukim, barmog'laringdin oshkor etting,  
Vayo oq kilklarni zeb uchun naqshu nigor etting.  
Yuzungda xol g'avg'osi aro gulguna zebidin,  
Ko'zung jayronlari o'ynarg'a go'yo lolazor etting.  
Shah o'ldung, ey mahi mahmilnishin, shahring sening urdu,  
Bu manidin saropardangni tegrangda hisor etting.  
Magar qonlig' ko'ngulning qushlaridur yondoshib uchqan,  
To'nungda tugmakim, yoquti ahmardin qator etting.  
Ko'ngullarning qararg'an ro'zgori chun soching erdi,  
Tarab ani, ko'ngullarni parishonro'zgor etting.  
Yungin yulg'an kabutardek bari ajzosi ko'nglumning  
Tushuklardur, magar ignang bila ani figor etting.  
Magar gulrang maydin erdi yo gulgunadin bukim,  
Yuzungni gulgul aylab, ko'nglum ichra xor-hor etting.  
Netib ko'ngli qushi chiqqay Navoiyning sochingdinkim,  
Chu sen ul to'rga bo'ynin, ayog'in ustuvor etting.  
357

Dudi ohimning quyuidek pech ila tobin ko'rung,  
Tiyra hajrim oqshomining bahri girdobin ko'rung.  
Qushkim ul oydin keturmish noma, har tirnog'idin,  
Choklar bo'lgan ko'ngul elturga qullobin ko'rung.  
Hinduni sohirdurur davri zanaxdonida xol,  
Tavqi g'abg'ab shaklidan bir aksi mehrobin ko'rung.  
Ishq o'ti tug'yonndin jonimki, bo'lmish tashnalab,  
Dafiq'a ul oyning ikki lali serobin ko'rung.  
Olmag'an bo'lsa chuchuk jonim labi birla ko'zi,  
Ham shakarxandig'a boqing, ham shakarxobin ko'rung,  
Soliki mahrumkim, matlubidin to'lmish jahon,  
Olloh-olloh, jonin o'rtar dardi noyobin ko'rung.  
Yor ko'yin istab, o'zluqdin Navoiy bo'ldi fard,  
Kaba ehromig'a istidodu asbobin ko'rung.  
358

Bo'ldi qotil ko'z bila zulfi siyahkori aning,  
Kofiri masteki, bir yon tushti zunnori aning.  
Istasang Layliyu Majnun husnu ishqidin misol,  
Men nazirimen munung, yorim namudori aning.  
Ko'rdi ul gul hajridin ko'nglum shikofin andalib,

Bilmon, afg'on qildi yo chok o'ldi minqori aning.  
Qo'yma marham tig'i zaxmig'a ko'ngulda, ey rafiq,  
Chiqsa jon ham, chiqmasun ko'nglumdin ozori aning.  
Ko'ksun uzra dog'lar bo'yumda zulfi toridur,  
Toki mushkin rishtag'a tortildi tumori aning.  
Qo'yma qasring soyasindakim, bu ohu ashkdin  
Ham qora bo'ldiyu ham nam chekti devori aning.  
Dayr ko'yining gadoyimenki, olam shohidur  
Mastlig' vaqtida bir oshufta xummori aning.  
Jom tutkim, tarhini qilg'an zamon naqqoshi sun,  
Qildi g'am naqshini xorij davri pargori aning.  
Ey Navoiy, lali jonbaxshi manga bo'lsa nasib,  
Tong emas, har lahza yuz jon qilsam iysori aning.  
359

Yana, ey ishq, guli ruxsorin oshubi chaman qilding,  
Hazin bulbul tanig'a har biridin bir tikan qilding.  
Ko'ngulni telba aylab qaydig'a har yon oqar sudin,  
Chaman zanjiri gesusinda yuz chinu shikan qilding.  
Sahob atfoli jola toshlarin yog'durg'ali, ey gul,  
Pariy yanglig' zuhur aylab, junun bulbulg'a fan qilding.  
Rayohin xaylini chekmakka yer zindonidin go'yo,  
Bulut ayyoridin har qatra torin bir rasan qilding.  
Niholi gul nishiman gulshan etting go'yi, ey bulbul,  
Firoq ichra tikandin bistaru xasdin vatan qilding.  
Yuzung shamida shabnam, yo'qsa terdur, soqiyo, vahkim,  
Ul anjumdin shabiston ichra qatli anjuman qilding.  
Chamanda mast yeldin, vahki, har yon xam bo'lur guldek,  
Zamone jilva aylab, bizni rasvoyi zaman qilding.  
O'luk deb ujbodin zohid anga xilvatni go'r aylab,  
Hamono pardai pindorin, ey gardun, kafan qilding.  
Navoiy, qayda g'am sayli yana ko'nglung uyin buzg'ay  
Ki, aylarda imorat anda balchiqi durddan qilding.  
360

Latofat oyi ul yuz, shomi savdo sunbuli tobing,  
Soch uzra gardi yazdiy mejar ul shom uzra mahtobing.  
Ko'ngullar xaylig'a xush-xush kirarga shohroh o'lmish,  
Tarog' chekkan zamon yo'l-yo'li bo'ldi sunbuln nobing.  
Bezarda orazing mashshota hayvon chashmasi ichra,  
Tushub gulguna gulgun qilmish, ermas lali serobing.  
Ipaklarkim, eshiisen jismlar zaxmi uchun go'yo,  
Muqayyad qilg'ali jonlar qushin ham uldur asbobing.  
Ulusni sajdaga targ'ib etarga Xizri rah bo'ldi,  
Demasmen vo'smaliq qoshingki, minorang mehrobing.  
Uchi xam igna birla ko'z duosin boshqa osqandin,  
Yomon ko'z tegmasun, bo'ldi ko'ngul chekmakka qullobing.  
Keturgil raz qizin, soqiy, mug'anniy, nag'maye tuzgil  
Ki, ul ko'ktin keturgay Zuhrani afg'ong'a mizrobing.  
Tunu kun jilva qilma, ey arusi dahr, bilmishmen  
Ki, mehnat subhi bo'lmish qoqumung, g'am shomi sinjobing.  
Navoiy, ofiyat istar esang, qo'y dahr zolinkim,  
Harif ermastur ul makkorag'a bu jismi betobing.  
361

Gulruxekim, jon arodur xor uza xori aning,  
Xor-xoridindur ozor uzra ozori aning.  
Uyla zulfungdin muqayyaddur ko'ngulkim, degasen,  
Yuz tugun solmish bu qush bolig'a har tori aning.  
Ko'rsa vayronim qayondin el yiqilg'ay, sog'inur  
Ichkari yemrulgudektur garchi devori aning.  
Tarh qilg'anda uzoring davrini naqqoshi sun,  
Teng emish xurshid davri birla pargori aning.  
Dema og'zi vasfida so'z deki, maxsus o'lmamish,  
Ne o'zini vahm aro hargiz namudori aning.  
Vasldin ulkim asar istar talab vodiysida,  
Topqay ar topilmag'ay hijrondin osori aning.  
Ne humoyun yerdur, ey solik xaroboti fano,

Kim baqo vajhin ko'rar, jon ichra xammori aning.  
Kim vafolig' yor ko'rди, xurram o'lsun oshiqi,  
Kim vafo qilg'ay jafogarlikda bir yori aning.  
Sihhat o'lg'aymu Navoiyg'aki, yuz dilxastani,  
Kechalar uyqug'a qo'yimas nolai zori aning.  
362

Do'stlar, gar do'st qatlim istar o'lsa, o'lturung,  
Siz agar rahm etsangiz, dushmanlaring'a topshurung.  
Istasa yuz hajr o'ti jonimg'a yetmak, ishqida  
Budurur komim debon, arzig'a aning yetkurung.  
Gulshani umrumni vayron istasa, ey dardu ishq,  
Anda har komu farog'at naxli bo'lsa, sindurung.  
Kelmasa qasri hayotim ko'ngluga xush, yonchibon,  
Zulm toshin yog'durub, gardung'a gardin sovurung.  
Bu jafolardin kechib ko'ngli vafog'a qilsa, mayl,  
Zinhor ul mujdani jonim borinda kelturung.  
Kimsaga bermang ko'ngul, gar bersangiz, ey ahli ishq,  
G'ayri gar xud jon erur, tan mulkidin anii surung.  
Chun Navoiy ayladi ishq fano dashtig'a azm,  
Qaytib, ey dardu balo, tengriga ani topshurung.  
363

Qat qilg'uncha riyo dashti aro yuz ming olong,  
Tashlab o'z lukni, qadam dayri fano jonibi mong.  
Ishq sargashtasi sayrig'a ne hojat markab,  
Po'ya qilmasmu quyunning ayog'i bo'lsa yalong.  
Kulli maqsudg'a ul yetti bu yo'l sayrinda  
Kim, tobonig'a tikan bo'ldi yana bir ultong.  
Xonaqah shayxidin el sirri fano anglamadi,  
Dayr niri ani xub anglatur elga, anglang.  
Ko'p sovug'luq kerak o'lmoqqa ko'ngul mahzi riyo,  
Bahr muz bog'lamag'ay, bu yuzini tutmasa song.  
Chunki novmid emas rahmatidin gabru juhud,  
Jurmu isyon bila bizga bu umid o'lsa, ne tong.  
Chiq, Navoiy, qariding, hurmat ila maykadadin,  
Sudraturlar, kishi chiqmaslig' etib bo'lsa qoshong.  
Lom Harfining Lubatlarining Latoyifi "Favoyiddin  
364

Ishqini tark et deding, xurshidi raxshondurmu ul,  
Husnidin, dersenki to'yg'il, mohi Kanondurmu ul?  
Yuz quyoshida berur jon elga lali, ey Xizr,  
Istama zulmati zulfin, obi hayvondurmu ul?  
Onsiz ermasmen zamone, lek ul paydo emas,  
Vahki, bilmon yo ko'ngul, yo jonda pinhondurmu ul?  
Ko'zlari qatl aylar islom ahlin, ey g'ofil ko'ngul,  
Rahmkim andin tama qilding, musulmondurmu ul?  
Bahri ashkim ichra, ey g'avvoskim, yig'ding guhar,  
Buki qarın istading, daryoyi Ummondurmu ul?  
Tutti bir tog' go'shasin Farhod, ani mendek demang,  
Hajr dashtida aloxonu alomondurmu ul?  
Vahshu tayr o'lmish ramida mendinu Majnung'a rom,  
Men kebi devonani rasvoi nodondurmu ul?  
Ko'ngluma onsiz bir o'tdurkim, yomon o'rtar meni,  
Anglamon, do'zax o'ti yo so'zi hijrondurmu ul?  
Charx ko'nglum gulshanida ochti muhlik g'uncha ko'p,  
G'unchadurmu, yo'qsa, zahrolud paykondurmu ul?  
Dahr bazmida, damo-dam soqiyi davron tutar,  
Boda, bilmon, lalgun maydurmu yo qondurmu ul?  
Ey Navoiy, dardlig' nolang qilur elnn halok,  
Aytqil, suri qiyomat, yo'qsa afg'ondurmu ul?  
365

Yor qutlug' yuzidin qoldi chu mahrum ko'ngul,  
To nelar boshima kelturgusidur shum ko'ngul.  
Yor bordi, ko'ngul andin burun itti go'yo,  
Bir nima yordin aylab edi malum ko'ngul.

Davr zulm aylaru, davr ahliyu davr ofati ham,  
Necha zolim'ga asir o'lg'usi mazlum ko'ngul.  
Rahmat ul kofiri qotilg'aki, bedod chog'i,  
Rahm qilmas, nechakim, bor esa marhum ko'ngul.  
G'uncha og'zi aro vahm etsa ul oyning og'zin,  
Topqusi doirai nuqtai mavhum ko'ngul.  
Ko'p vafo istadiyu topmadi eldin go'yo,  
Kim, vafodek o'zini ayladi madum ko'ngul.  
Yor mavzun qadi vasfida Navoiy yanglig',  
Nazm javharlarini qilg'usi manzum ko'ngul.

366

Tunu kun ul oy xayoli birla men oshuftahol,  
Bir xayol aylab meni shaydoyu elga yuz xayol.  
Tongdin oqshomg'acha g'am tog'in qozib Farhodvash,  
Kecha tong otquncha dasht uzra ozib Majnun misol.  
Olam ahli ohu nolam istimoidin malul,  
Ko'ngluma olam eli bedodu zulmidin malol.  
Qilmag'an jurmumg'a, tortib charx tig'i intiqom,  
Bu balog'a chora topmoqqa topilmay ehtimol.  
Men balokashmen, manga bazm ichra hijron zahri bas,  
Soqiyo, ayshu nashot ahlig'a tut jomi visol.  
Mehr rasmin, ey ko'ngul, davron elidin istama,  
Ul quyoshqa negakim yetmay kamol, o'lmish zavol.  
Gar Navoiy telbarab javringdin itti, ey pariy,  
Ul nechakim ishq aro bordi yomon, sen yaxshi qol.

367

Kuymagim ko'r, ishq o'tining ishtioliin so'rmag'il,  
O'lmakim boq, hajrining dardu malolin so'rmag'il.  
Demagilkim, ul pariy hajrinda ko'nglung holi ne,  
Telbakim g'am dashtida barq urdi, holin so'rmag'il.  
Eyki, dersen: hajr zafida xayoling ne ekin,  
Zafdin ulkim, xayol o'ldi, xayolin so'rmag'il.  
Hajr yuz o'tlosh balo zindonig'a solmish meni,  
Buyla mahbasdin qutulmoq ehtimolin so'rmag'il.  
Men o'lub labtashnayu lali labing obi hayot,  
Bu gado komin berur bo'lsang, savolin so'rmag'il.  
Ishq dashti ichra itkondin xabar malum emas,  
Ul taraf ovora bo'lg'anning maolin so'rmag'il.  
Vasl ummidi birla yuzlandi Navoiy ko'yinga,  
Qatl qilsang b'qilg'il, ummidi muholin so'rmag'il.

368

Sen eding ko'nglum aro, har nscha chok ettim ko'ngul,  
G'unchadekkim, har qayon ochildi b'zohir bo'ldi gul.  
Ko'ksi ichra otashin gul g'unchasining naqshidur,  
Bulbuli bedilg'a go'yokim emas o'tlug' ko'ngul.  
Bu chamandin yel uchurub gulni, bulbul qolg'ani  
Rost andoqturki qolg'ay, chunki shula o'chsa, kul.  
Qon yutub bir gul g'amidin o'lg'anim yod aylasun,  
Gul chog'i har kimki, bir gulrux elidin ichsa mul.  
Oy ila xurshid ato birla apo bo'lsa sanga,  
Qul dodakdin hosil o'lg'andek turur mirzo o'g'ul.  
Sayli ashkimdin o'targa ojiz o'lsang keskamen  
Bog'i umrin shoxsoriin qilgali omoda pul.  
Ey Navoiy, sen ne had birla anga qul bo'lg'asen  
Kim, beganmas aylamakka Yusufi misriyni qul.

369

Tarki ishqin qilg'ali jon bo'ldi jonondin xijil,  
Ko'z ko'nguldin, bal ko'ngul ham ko'nglum olg'andin xijil.  
Novaking yetkach o'luk jismimga, toptim infiol,  
Naqdsiz andoqki topqay o'zni mehmondin xijil.  
Dinu imonimni toroj etti ammo bormen,  
Ey musulmonlar, hanuz ul nomusulmondin xijil.  
Hajrida ko'r o'lmag'an ko'zni qizartur qon yoshim.  
Ne qizormoqturki, ermas dardi hijrondin xijil.

Ne uchun Farhodu Majnun tog'u dasht aylar vatan,  
Gar emaslar men aloxonu alomondin xijil?!  
Do'st lutfi bo'lmasa, do'zax manga yuz qatla hayf,  
Buylakim mahsharg'a kirgum jurmu isyondin xijil.  
Kunduz ul ko'y ichra topilmas Navoiykim, erur,  
Kecha tong otquncha chekkan ohu afg'ondin xijil.  
370

Ham jahonoro jamolidin guli rano xijil,  
Ham guli ranosidin "Bog'i jahonoro xijil.  
Oncha bor ul ko'y aro rasvolig'imkim, bo'lmisham,  
Barcha rasvolar aro men telbai rasvo xijil.  
Nega itmishlar Masihu Xizr agar qilmaydurur,  
Birni ruhafzo labi, birni xati xuzro xijil.  
Tig' ul qotil surardakim tushar boshim quyi,  
Men qilichidin xijilmen, ul emas qato xijil.  
Demangiz, ollida vasli muddaosin aytkim,  
Yo malul o'lmoq kerak bu muddaodin, yo xijil.  
Bo'ldi ruhullah bu eski dayrdin ulviy xirom,  
Ne uchunkim, qon to'kardin bo'lmas ul tarso xijil.  
Chun Navoiy o'lmadi sensiz, xijolat ichradur,  
Yo'qsa sihhatdin emas ul bedili shaydo xijil.  
371

Kirdi tufroqqa hilol, ochti to'lun oyg'a jamol,  
O'n to'lun oynning qirog'idin chu olding o'n hilol.  
Su bila sham uchini har lahza olding - yorudi,  
Shulani garchi su birla ravshan etmakdur mahol.  
Yelni tez aylabki, o'tdin su chiqarding - turfadur,  
Lek tufrog'i aning ko'zlarga berdi iktihol.  
Yo'qdin etting bor har dam yuz Masihu ruhbaxsh,  
Lek unsurdin mujarrad barchasi javharmisol.  
Turfadurkim, o't aro ekting niholu kuymadi,  
Turfaroqkim, ochti gul, garchi hadang erdn nihol.  
Ko'z alam to'lgandakim, ko'z tutmak o'lmas juz alam,  
Ani tutqilkim, alam xaylini aylar poymol.  
Bu g'azalning maqtain matla xayol etgan kishi,  
Ey Navoiy, shoyad etkay fahm sen qilg'an xayol.  
372

Yor hajri xohi bir kun, xoh yuz yil, ey ko'ngul,  
Zahrdin bir qatrayu daryoni teng bil, ey ko'ngul.  
Chunki onsiz o'lgung, ushbu damki ayrilmoqqadur,  
Bori ul orazg'a o'lguncha nazar qil, ey ko'ngul.  
Har qayon borsa, chu ul qotildin ayrilmas raqib,  
Xoh sen qotil anga, xoh andin ayril, ey ko'ngul.  
Oyu yil devonayu mast o'lmog'ingdin to'ymading,  
Yilchilay ul oy borur, bir lahza ayil, ey ko'ngul.  
Oshiq o'lsa shohu mashuqi gado lozimdurur,  
Ul niyoz etmas ayon bu noz bilgil, ey ko'ngul.  
Ajdaholar ishq dashtida kirardindur zabun,  
O't tutoshubtur bu vodiy nchra - yong'il, ey ko'ngul.  
Ishq tig'i gar Navoiy ko'ksini chok ayladi,  
O'lmayin netkung durur, bir lahza ochil, ey ko'ngul.  
373

Yog'ligin eykim, tikarsen, igna mujgonimni qil,  
Naqsh etarda tori aning rishtai jonimni qil.  
Istasang torin qizil yoxud qora qilmoqqa rang,  
Ko'z qorasin hal qilib, ko'zdin oqar qonimni qil.  
Gar desang har yon qizil gullar qilay nusxat anga,  
Ko'ksim ochib, toza qonlig' dog'i hijronimni qil.  
G'unchalar gul yonida tikmak tahayyul aylasang,  
Anga nusxat ko'ngul otlig' zori hayronimni qil.  
Gar desang har yon pariy shakli namudor aylayin,  
Vah, ne nav aytay, vale manzur jononimni qil.  
Qilsang ul yog'lig' aro bir sher ham yozmoq havas,  
Anda har yon naqsh bu nazmi parishonimni qil.

Ey Navoiy, kimki bu yog'liqni tiksa yor uchun,  
Muzdi jonim javhariyu naqdi imonimni qil.  
374

Yana firoqida har kun erur manga yuz yil,  
Valek har kechasin necha kundin ortuq bil.  
Desangki o'lturayin, ey firoq, jismimni  
Chu zafdin topa olmang, o'luk tasavvur qil.  
Men o'ldum, ey ko'ngul, ul dilrabodin ayrilma,  
Gar andin o'zga sevar joning o'lsakim, ayril.  
Tanimni garchi g'aming tig'i etti yuz pora,  
Bu shukr adosiga har birni, istaram, bir til.  
G'amingda lola kebi chok ko'nglakim bo'lmish,  
Firoq dudiyu ko'z qonidin qorayu qizil.  
Chu topmogung bu chaman g'unchayu gulida vafo,  
To'kulma g'uncha kebi, lek gul masallik ochil.  
Navoiyo, nega aflok murtafi bo'lmish,  
Agar g'amimdin emas, vazn kaffasida yengil!  
375

Ey, qading shamu yuzung sham uza gul,  
Shamning dudi muanbar kokul.  
Dam-badam ichmas esang gulgun may,  
Ne uchun orazing o'lmish gulgul.  
Yuzda xoli labing ul hindu erur  
Kim, nchar xirmani gul ustida mul.  
Mengakim ul qad ila zulf kerak,  
Netayin savsanu naylay sunbul.  
Otashin gulga vafo chun yo'q emish,  
O'zni ko'p o'rtamagil, ey bulbul.  
Oqibat yerga kirarsen gar xud,  
Bo'lsa ko'k atlas raxshing uza jul.  
Ey Navoiy, qadam urmoq bo'lmas,  
Rahnamoy o'lmasa hodiyyi subul.  
376

Azm o'lsa xayolingg'a, ko'nguldur anga mahmil,  
Osoyish agar istasa, ko'z chashmasi manzil.  
Ey ishq, netib ul qora ko'zni ko'rayinkim,  
Ko'zning qorasin hajrida ashk ayladi zoyil.  
To bo'ldi sening husnunga oshiq uza oshiq,  
Ish bo'ldi mening ko'ngluma mashkil uza mushkil.  
Ul ko'z olur el jonin o'g'urluq bila, vahkim,  
Boqmas bu taraf, tutsam o'zumni necha g'ofil.  
Yodi bila behushlug'um dafini qilmang,  
Devoridin ul ko'yning ar bo'lmasa kahgil.  
Ey mug'bacha, oshiqmenu durdikash, etib rahm,  
Ne yuzunga, ne jomg'a qil pardani hoyil.  
O'zlukni fano o'tig'a kuydurdi Navoiy  
Kim, savmaadin xorij erur dayrg'a doxil.  
377

Ul shayxki, minbar uza afsung'a berur tul,  
Shaytondur o'zi, majlisining ahli suruk g'ul.  
G'afatdin agar vaz ila uyg'otsalar elni,  
Ul aylar uyutmoq uchun afsonag'a mashg'ul.  
Boshtin ayog'i minbarining poyasi doston,  
Ham o'ziyu ham marifati johilu majhul.  
Ko'rmay xirad ashobida bir fardni oqil,  
Topmay kishi afsunida bir nuktani maqul.  
Har neki hadis oti qo'yub, barchasi mavzu,  
Naqliki mashoyixdin etib, borisi majhul.  
Yuz pora qilib, minbari o't yoqqali avlo,  
Bu shart ilakim, bo'lsa o'zi qotilu maqtul.  
Iblis sifat el sari mayl etma, Navoiy,  
To bo'lmag'asen zarqu riyo qaydida malul.  
378

Qon yoshim ichra tanim to'lg'ang'anin nazzora qil,  
Lolazor ichra yilon gar ko'rmading, o't uzra qil.  
Bodadinmu erkin, usruk ko'zlaringning humrati,  
Yo uzoring o'ti tobidin bo'lubturlar qizil.  
Ko'nglum ichra har yara og'zida paykoning uchi,  
Keldi darding lazzatining shukrini ayturg'a til.  
To tushubmen ul uzoru ikki gesu hajrig'a,  
Ey quyosh, rahm aylakim, bo'lmish, bir oyu ikki yil.  
Dog'ima andoza marhamliq momug'din istagan,  
Ko'nglum ichra buyla har yon dog'i beandoza bil.  
Dahr bo'stonida chun yo'qtur vafoye, ey ko'ngul,  
Loladek gulgun qadah tut, g'unchadek bir dam ochil.  
Iltifoting ozidin itti Navoiy telbarib,  
Ey pariy, bir ham bu Majnung'a parvo aylagil.

379

Ul quyosh og'zi uza mushkin xol,  
Zarraning nuqtasidin keldi misol.  
Gar ravondur ne tong ul qadki, erur,  
Ruh sarchashmasida toza nihol.  
Raxsh har yonki surar ul chobuk,  
Yugurur tebrasida payki xayol.  
Chobukumning otining nali emas,  
Tushti shabrang ayog'ig'a hilol.  
G'uncha og'ziki takallum qilmas,  
Ul og'iz g'unchasi qilmish ani lol.  
Hajrning chorasi bexudlug' emish,  
Soqiyo, jom ketur molomol.  
To Navoiydek o'lay ani ichib,  
Mastu Majnun sifatu sheftahol.

380

Ul pariy chehra chu ko'rguzsa jamol maqbul,  
Ko'rgan emasturur o'z aqlig'a qolmoq maqul.  
Surtulub yuzga, agar yetsa dimog'img'a isi,  
Meni ul zulf tanobi bila qilg'il maqtul.  
Istasang dahrda ming telba ko'ngul sargardon,  
Halqa-halqa rasani zulfidin ochg'il marg'ul.  
Xotirim iki jahon mashg'ulidin o'lmish forig',  
Do'st yodi bila to ko'nglum o'lubtur mashg'ul.  
Bodai lali labing qonima berdi tahlil,  
Qatl emish xosiyati, lalki bo'lg'ay mahlul.  
Vahki, maqsudni malum etayin deb umre,  
Bir sarimo'y emasturki, emastur, majhul.  
Gar Navoiy desa but vasfini takfir etmang,  
Dayr piridin erur buyla rivoyat manqul.

381

Nolani har nechakim eldin nihon aylar ko'ngul,  
Seni sog'ing'ach yana bexud fig'on aylar ko'ngul.  
Har nechakim yoshururmen rozi ishqing xalq aro,  
Bir mahalsiz oh ila borin ayon aylar ko'ngul.  
May tarashshuh aylagandek chok bo'lg'an shishadin,  
Zaxmidin xunobasin har dam ravon aylar ko'ngul.  
Qasd etar ko'nglumki, olg'ay lablaringdin komi dil,  
Emdi tahqiq ayladimkim, qasdi jon aylar ko'ngul.  
Ko'z ko'rar yuzungniyu ko'nglum meni rasvo qilur,  
Zor etar ko'nglumni ko'z, bag'rimni qon aylar ko'ngul.  
Shulai ko'kurd ko'rguzdi qazo kuydurgali,  
Dardi ishq ahlin bukim gardun gumon aylar ko'ngul.  
Ey Navoiy, avval ul nomehribong'a uchratur,  
Kimmikim men benavodek notavon aylar ko'ngul.

382

Yuzi oyina qildi ko'zguni ul siymbar hoyil,  
Aningdekkim, quyosh ruxsorig'a bo'lg'ay qamar hoyil.  
Ul o'tluq yuzni qilmoq zarvaraq pinhon emas mumkin,  
Ne imkondur ko'rarga shulani bo'lmoq sharar hoyil.



Ko'runmas zor ko'nglum jahd etib paykonlaring ichra,  
Magar ul qushqa bo'lmish kasrati bargi shajar hoyil.  
Suni andoqki yopqay safha-safha, bargi gul tushkach,  
Yoshimg'a pora-pora bo'lmish ajzoyi jigar hoyil.  
Sochingg'a gardi yazdiy mejaring hoyil bo'la olg'ay,  
Bo'la olsa savodi shom uza shabnam agar hoyil.  
Safardur mujibi hirmoni diydor ahli shavq ichra,  
Hamono vasl xurshidig'adur gardi safar hoyil.  
Yuzungni och, agar xud rishtai jondindurur burqa,  
Berib jon istamas diydorg'a ahli nazar hoyil.  
Dema solikka hoyil ne ekin maqsud vaslidin,  
Erur aqlu, hisu dunyoyu uqbo sarbasar hoyil.  
Desangkim, o'zlugumdin o'zga hoyil bormu jonong'a,  
Bo'lurmu, ey Navoiy, ishq aro mundnn batar hoyil.

383

Ey musavvir, dilbarimg'a surate monand qil,  
Qo'rmakidin xotirimni gah-gahe xursand qil.  
Ul harir uzraki tarh etkungdurur timsolini,  
Sig'masa, zaylig'a jonim pardasin payvand qil.  
Bo'lmasun bu tumadin mahrum ul ko'y itlari,  
Ey ajal, taqsim uchun bag'rimni yuz parkand qil.  
Ul pariyvash chiqti usruk sekretib ko'nglakcha, voy,  
Nosih, devona bo'ldum, emdi tarki pand qil.  
Lali shirindinki qilding ayshni jonimg'a talx,  
Necha achchig' so'z demak, bir qatla shakkarxand qil.  
Jomi Jamning rohi Afridun yiloni zahridur,  
Ey ko'ngul, o'zni safoli faqr ila xursand qil.  
Hojati budur Navoiyning, xudoyokim, ani  
Mug'bacha husniga mug' dayrida hojatmand qil.

384

Zaxmliq ko'ksumni g'ayrat tig'i birla chok qil,  
Ham ushul su birla g'ayridin ko'ngulni pok qil.  
Lamai ruxsordin, ey ishq, kuymakdur ishim,  
Notavon jismimni gar xud hiyma, gar xoshok qil.  
Buyla o'tkim mendadur, andin fuzun imkon emas,  
Dam bila tez ayla yoxud yuzni otashnok qil.  
G'ayrg'a shoyad g'uborim hoyil o'lg'ay ko'rgali,  
Ko'yida, ey ishq, hasrat birla jismim xok qil.  
Mast chiqmish tig' ila ahli nazar qatli uchun,  
Ey ko'ngul, nazzorai ul qotili bebok qil.  
Har ne ko'kdin kelsa bo'l tufrog'dek hoyil magar,  
Nopisanding bo'lsa, mani gardishi aflok qil.  
Ey Navoiy, ishq o'tining shulasi chiqsun desang,  
Ko'nglaking choki ne osig', ko'kragingni chok qil.

385

Lali jonbaxshiki elga jon berur, jonimdur ul,  
Ulki mundoq lab bila der nukta, jononimdur ul.  
Vasl shomi ul qadu yuz davrida parvonavor,  
Chevrulub kuysam ne tong, shami shabistonimdir ul.  
Nuktai mavhum emas ko'nglumda og'zing yodidin  
Kim, bu xunin g'uncha ichra dog'i pinhonimdur ul.  
Itlaringga tumadur bag'rim va lekin qo'llarin  
Ulki rangin aylamish hinno kebi - qonimdur ul.  
Deb empshsen, tarki ishqim ayla, yo o'l hajr aro,  
Munda o'lsam ham o'lay, lekin ne imkonimdur ul.  
Eyki ko'rdung hajr zindonda bir qonlig' asir,  
Notavon ko'nglum bu, lekin baytul ahzonimdur ul.  
Xusrave ko'rsangki, ashorim o'qub holat qilur,  
Ey Navoiy, anglakim, shohi suxandonimdur ul.

386

Aytaolmonkim, meni ovora birla yor bo'l,  
Garchi yo'q qilding meni ul ko'ydin, sen bor bo'l,  
Men agar bar topmadim sensiz hayotim shoxidin,  
Naxli umrungdin sen, ey badmehr, barxurdor bo'l.

Chun meni g'am tig'idin qatl aylading, ne sud, agar  
Motamimdin g'am yegil, yo o'zgaga g'amxor bo'l.  
Ey ko'ngul, ul umr hajri chun bu yanglig' sab erur,  
Gar qutulsang jon berib, jon birla minnatdor bo'l.  
Ul quyoshning ko'yidin, eykim, tilarsen chiqmasang,  
Xoksor anda nechukkim, soyai devor bo'l.  
To tiriksen, istasang xushvaqlig', ey mayparast,  
To to'lar paymona, mug' dayrida xizmatkor bo'l.  
Ey Navoiy, gar tilar ul sho'x ozoring sening,  
Kim deb erdikim, vafosiz elga mundoq zor bo'l.  
337

Vahki, bu bedil g'amingdin o'ldi, ey dilxoh, kel,  
Ey ko'ngul, sen dog'n ul dilxoh ila hamroh kel.  
Mumkin ermas og'zim ichra kel demakdin o'zga so'z,  
Garchi yor ollida tengdur xohi tur de, xoh kel.  
Garchi dardimg'a davu qilg'ung yo'q, ammo hajr aro,  
Asru qattiq holatimdin bo'lg'ali ogoh kel.  
Uylakim tom raxnasidin oy tushar vayronag'a,  
Chok ko'ksumdin buzug' ko'nglum aro, ey moh, kel.  
Oh o'tin dedingki past aylay ziloli vasl ila,  
Bu nafaskim shulasin gardung'a chekmish, oh, kel.  
Bir qadah bersang, qo'yarmen butqa yuz, ey piri dayr,  
Ikkisin olib, boshimg'a hasbatahullohu, kel.  
Garchi kelmay-kelmay o'lturdung Navoiyini valek,  
Ey Masih, aning mazori boshig'a gah-goh kel.  
388

Xilatin to aylamish jonon qizil, sarig', yashil,  
Shulai ohim chiqar har yon qizil, sarig', yashil.  
Gulshan ettim ishq sahrosin samumi ohdin  
Kim, esar ul dasht aro har yon qizil, sarig', yashil.  
Shishadek ko'nglumdadur gulzori husnung yodidin,  
Tobdonning aksidek alvon qizil, sarig', yashil.  
Orazu xoling bila xatting xayolidin erur  
Ko'zlarimning oldida davron qizil, sarig', yashil.  
Lalgun may tutqil oltun jom birla sabzada  
Kim, bulardin yaxshi yo'q imkon qizil, sarig', yashil.  
Faqr aro beranglik dushvor erur behad, valek  
Xirqada tikmak erur oson qizil, sarig', yashil.  
Ey Navoiy, oltinu, shingarfu zantor istama,  
Bo'ldi nazming rangidiy devon qizil, sarig', yashil.  
389

Jonu ko'nglum baski ko'rди ahli davrondin malol,  
Jonima bo'lmish ko'nguldin, ko'ngluma jondin malol.  
Bu ikov baskim malol izhor aylarlar, bo'lur  
Ham manga mundin malol, alqissa ham andin malol.  
Ulki olamdin malul o'lg'ay, elidin ham erur,  
Kimga zindondin malolat, ahli zindondin malol.  
Kimsa birla oshno bo'lmonki, nogah, ey rafiq,  
Bir kishiga bo'lmag'ay men zori hayrondin malol.  
Dasht aro ham istamon hamdamki, nogah bo'lmag'ay,  
G'ullarg'a bu aloxonu alomondin malol.  
Har necha qildim vafo, juz benafolig' ko'rmadim,  
Ne ajab ko'nglumga bo'lsa navi insondin malol.  
Soqiyo, to mumkin o'lg'ay jomima quy bodakim,  
Dahr elidin xotirimga o'tti imkondin malol.  
To bo'lay ul nav usrukkim, shuurum bo'lmag'ay,  
Mehnati ko'p ko'ngluma yuz qo'ysa har yondin malol.  
Gar Navoiy joni kuygandin bu so'zlar der, vale  
Jon malol o'rnig'a ko'rmas, yetsa jonondin malol.  
390

Olg'ali ko'nglum minib bir barq raftor ot, kel,  
Gar mening ko'nglum keraktur barqdin ham bot kel.  
Men kimu vasling xayoli istamak, vahkim, manga  
Barcha gar bir ko'rmagu o'lmakturur, hayhot, kel.

Deb eding: boshingg'a bir kun yetkum andoqkim quyosh,  
Mehr lofin gar tilarsen aylamak isbot, kel.  
Borg'aningdin ayru erdi bir-biridin jonu tan,  
Kelmakingdin jonu tanni bir-biriga qot, kel.  
Ro'zgorim tiyra aylab, shomi hajr o'lturgusi,  
Ey hayotim shami, daf aylarga bu zulmot, kel.  
Zuhd ila jonnmg'a yettim, ey ko'ngul, gar dayr aro  
Bartaraf qilmoq tilarsen tovbayu tomot, kel.  
Dardi hajringdin Navoiy telbarabtur, ey pari,  
Gar eshitmak istasang devonavor abyot, kel.  
391

Tig'i hajringdin erur yuz yara noshod ko'ngul,  
Qilsa tong yo'q ul og'izlar bila faryod ko'ngul.  
Ey ko'ngul, ishq aro gar g'amliq esang, bok ermas,  
Qayda ishq ahli aro topti birav shod ko'ngul.  
Gar yuzung shulasidin kuydi dog'i kul bo'ldi,  
Lek bo'ldi mening ohim bila barbod ko'ngul.  
Boshog'ingning temurin tesha yasab oh o'tidin,  
G'ussa tog'ini qozar uylaki Farhod ko'ngul.  
Ne ajab telbarasam, chunki olibtur mendin  
Odamizod demon, balki pariyyod ko'ngul.  
Ne vafo rangiyu ne mehr isi bor, ey bulbul,  
Bu chaman gullariga aylama mutod ko'ngul.  
Yor yodig'a Navoiyni beray deb erdi,  
Borg'ali qilmadi ani ham o'zi yod ko'ngul.  
392

Bog' aro erdingmukim, bu kecha gulbez esti yel,  
Boda ichtingmuki, behad ishratangez esti yel.  
Yuz uza zulfungni qildingmu parishon noz ila  
Kim, gahi gulboru, gohi anbaromez esti yel.  
Yuzu qadding shavqidin o'ldum, hamono bog'din  
Ochilib gul, jilva aylab, sarvi navxez esti yel.  
Yelga ruxsoru taning ochib, magar berding hayot  
Kim, umid ahlig'a gulposhu samanbez esti yel.  
G'unchalar shavqungda go'yo bog'lag'anlardur ko'ngul  
Kim, nechakim, esti ul yondin, dilovez esti yel.  
Bu chamanda bo'lsa yel sokin, o'char shami hayot,  
Yorutur anduhu g'am o'tin, agar tez esti yel.  
Ey Navoiy, ranj ila xush bo'lki, Farhod ohidin  
Bilki, qo'pti tashlamoqqa toji Parvez, esti yel.  
Mim Harfining Mahbublarining Malohati "Favoyiddin  
393

To yigit erdim, qarilarg'a ko'p erdi xidmatim,  
Qarig'an chog'da yigitlarga og'irdur suhbatim.  
Ne uchun bo'ldum kichik yoshlig'lar ichra ko'p saqil,  
Garchi ko'p zohirdurur sinn kasratidin xiffatim.  
Vahki, damdin-damg'a, mendin yorlarga ijtinob,  
Garchi kundan-kunga ortuqtur alarg'a ulfatim.  
Gar taammul aylasam voqi, muhiqdurlar alar,  
Ne uchunkim hech qolmaydur alarg'a nisbatim.  
Mushk chun kofur bo'ldi - yog'di o't ustiga qor,  
Xatti mushkin birla o'tluq yuzga netsun rag'batim.  
Bog' aro sarvi sihi yonida ko'rdum eski tok,  
Bo'ldi tuz bo'yulg'lar ichra xam qadimdin ibratim.  
Ey ko'ngul, tut go'shaye emdi ibodat qilg'ali,  
Qolmoq istar bo'lsang ellik yilg'i bo'lg'an hurmatim.  
Chunki ellik manzil o'tti umrdin, sokin bo'lay,  
Ne uchunkim emdi yo'q surat qilurg'a quvvatim.  
Nettim ellik yilda juz isyonki, emdi netkamen,  
Yona ellik yilg'acha tuttumki, bo'lsa muhlatim.  
Lutf etib, yo rabki, imon boylig'i qilg'il nasib  
Kim, halok etmish amal muflislig'idin xijlatim.  
Ey Navoiy, g'am yemakim, bahri g'ufron ursa mavj,  
Tengri lutfidin ne mumkin juz ummidi rahmatim.  
394

Ne ajab qon yig'lasam ahli zamondin dam-badam  
Kim, alardin g'am uza g'amdur, alam uzra alam.  
So'z demak bo'lmas alarning zulmi yoxud lutfidin,  
Chunki ul ko'ptin dog'i ko'ptur, bu kamdin dog'i kam.  
Charx go'yokim chekar mehnat yuki davr ahlidin  
Kim, bori jismida anjumdin ter o'lmish, qaddi xam.  
Lavhai xilqatlarida yo'q magar harfi jafo,  
Safhai xotirlarida yo'q magar naqshi sitam.  
Soyiri ifrod ishi bu bo'lsa, ulkim fard erur,  
Barcha eldin husn aro ozdur anga yuz muncha ham.  
Chun jafo tortar kishi bori biravdin tortsa,  
Kim vafo qilsa kishiga, bo'lmasa ul dog'i g'am.  
Ko'zi qotil, qoshi ofat, og'zining nutqi fusun,  
Istaram, lekin jahonda yo'qturur mundoq sanam.  
Topmag'ung dayri fano ahlida yong boshtin baqo,  
Qilmag'uncha bodai vahdat vujudungni adam.  
Ey Navoiy, mosivallohdin kesilmak kimsani,  
Limaalloh manziliga yetkurur avval qadam.  
395

Urarmen ko'ksuma toshlar, g'am etkach qasdi jon har dam,  
Qoqarmen bu eshiknikim, yetar bir mehmon har dam.  
O'luk topti buzug' ichra meni majnunni, go'yo chug'z  
Navohi ahlin ogah qilg'ali tortar fig'on har dam.  
Hamono tufrog'imni lalgun qilmoqqadur bukim,  
Kelur bag'rim shikofidin labing shavqida qon har dam.  
Magar majnun ko'ngulga har dam aylar ul pariy jilva,  
Yo'q ersa ne uchun o'zdin borur bu notavon har dam.  
Ochar go'yo sabo ul gul yuzidin har zamon burqa,  
Bukim bir fitna birla qo'zg'alur ahli zamon har dam.  
Sovug' ohim burudat soldo olam ichra, qish ermas,  
Bulut yo'q - dudi ohimdin ko'runmas osmon har dam.  
Kerak har dam qadahkim, may suyi har lahza qaytargay,  
Bukim, davron jafosidin yetar og'zimga jon har dam.  
Bu manzildin manga yo'l azmig'a boisdurur bukim,  
Yetar bir korvon har dam, o'tar bir korvon har dam.  
Damo-dam javr ila buzdung Navoiy ko'nglin andoqkim,  
Buzulg'ay mulki, bir zulm etsa shohi komron har dam.  
396

Ulki ko'si unidin shomu sahar afg'onim,  
Anga yetmasmen, anga yetmak emas imkonim.  
Chatri ustidagi qush anglaki, ko'nglum qushidur,  
Ko'nglum o'lmoq ne ajab, andaki bo'lg'ay jonim,  
Qulog'i lali hamonoki dur ermish, chu meni,  
Begunoh ayladi qatl, ani tutubdur qonim.  
Mehriga rishtai jon bog'ladimu ko'z qorasin  
Surtsam erdi anga, qolmas edi armonim.  
Bu sifatlar bila mavsuf kim erkin desalar,  
Bo'la olmas kishi olamda magar sultonim.  
Faqr ko'yida gadolig' chu erur sultonlig',  
Saltanat moyilidur xotiri besomonim.  
Menu mug' dayri aro mug'bachalar ishqiki bor,  
Ul gadolig'da jahon shahlarig'a farmonim.  
Piri dayr aylasa bir jomi may ehson, qilg'ay  
Mast olam elini jomi mayi ehsonim.  
Ne uray lof Navoiy kebi chun o'lsa iti,  
Itlari xayli aro itcha dog'i yo'q sonim.  
397

Ayladim azmi safar, bo'lg'ay debon ishq o'ti kam,  
Ul xud afzun bo'ldi har manzil demaykim, har qadam.  
Qaysi manzilni qadam har damki, urdum yo'l aro,  
G'am sipohi xayli ko'rguzdi ul o'tdin bir alam.  
Sayrkim, derlar kam aylar ishqni ko'r, ey rafiq  
Kim, jahon ovorasi bo'ldum, g'alat chiqti bu ham.  
Hajr vodiysig'a qilmang azm oshiq'larki, bor,

Har xasi bir tig'i mehnat, har toshi bir ko'hi g'am.  
Ko'yining devori ustimga yiqilsa yaxshiroq,  
Andin ayru jilvagohim bo'lg'ucha avji haram.  
Ishq ila toptim adam sahrosidin mulki vujud,  
Oshiq o'ldum, dard qilg'uncha vujudumni adam.  
Ko'p xirad xattin Navoiy sari chekma, ey rafiq  
Kim, anga kilki qazo oshiqlig' aylabtur raqam.  
398

Tutqaln shirin labing shoxi shakardur barmog'im,  
Baski, so'rmoqdin ani ayrilg'udektur tirnog'im.  
Istaram ko'r aylagay nazzora ahlin rashkdin,  
Gar sabo tahrikidin ko'yiga borsa tufrog'im.  
Vasli bayig'a to'kub el siymu men yordim yurak,  
Komima mushkilki, yetkaymen bu bo'lsa yormog'im.  
Barq emaskim, o't choqarmen dahrni kuydirgali,  
Tog' ila bo'lmish yangi oy, chunki toshu chaqmog'im.  
Ishq aro Farhod ila Majnun sherikimdur, vale  
Dardu g'am chekmakka mencha yo'q bu ikki o'rtog'im.  
Dema maxmur o'lsang o'zni solmag'il, ey mug'bacha,  
Istaram, bo'lg'ay fano dayrida o'zni solmog'im.  
Ey Navoiy, dema: umrung o'tti - ishqu maydin o't,  
To tirikmen, ermas ushbu ikki ish aylar chog'im.  
399

Qora dastor to chirmadi mohim,  
Boshing'a chirmashibtur dudi ohim.  
Yog'ibtur nargis ichra jola, yoxud  
Ko'zida ashk erur bor ishtibohim.  
Anga hamrang o'lay deb motamimen,  
Qorarg'an ro'zgorim bor guvohim.  
Sirishkim xatlari sharhini so'rdu,  
Dedi, xayli balog'a shohrohim.  
Manga xud bu azo bo'ldi bahona,  
Mudom oqmoqqa ashki goh-gohim.  
Yema bozi nujumi tiyradinkim,  
Erur qalb uylakim, ro'kash darohim.  
Ko'zumdur tiyra, yani, ey Navoiy,  
Qora to'n kiydi motam ichra shohim.  
400

Firoqing do'zaxi ichra vujudum  
Bo'lubtur o't, nafaslar anda dudum.  
Kelib jon rishtasiyu jism tori,  
Vujudum xilatida toru pudum.  
Firoqingda yutub qon qilsam afg'on,  
Mayi nobimdur ul, bu bir surudum.  
Qoshingda egma qad birla yer o'ptum,  
Xayol et ul rukuum, bu sujudum.  
Belu og'zing uchun borim yo'q o'ldi,  
Vale tengdur sanga budu nobudum.  
Berib din naqdi, bo'ldum dayr aro mast,  
Vale ko'p bo'ldi bu savdoda sudum.  
Bukim ko'p ashk to'ktum, ey Navoiy,  
Ko'nguldin g'ayrining nashini yuvdum.  
401

Damo-dam otashin lalig'a olur boda jononim,  
Bu yanglig' o'tlar ichra naylasun o'rtanmayin jonim.  
Emas oy, kun iki pog'undasin ko'k zoli berkitmish,  
Quloqqa baski hajringda ani yolqitti afg'onim.  
Tanimda dog'larni ayladim ko'nglak bila pinhon,  
Qonab, ko'nglakda fosh etti o'zin har dog'i pinhonim.  
Ko'zumda bog'lanib qon yosh, ne tong, gar ochqali qo'yimas,  
Chu ul qonimni to'kti, oqibat tutti ani qonim.  
Buzug' ko'nglum aro mundoqki, paykoningni yog'durdung,  
Ne tong, mundoq yog'indin yer bila teng bo'lsa vayronim.  
Xijolatdin qizarmish gul, taxarruk sarvdin ketmish,

Magar bog' ichradur gulchehrlik sarvi xiromonim.  
Tasavvur birla gah maqbulmen ollida, gah mardud,  
Qayu aqshomki, sultoni xayoling bo'lsa mehmonim.  
Vujud iqlimidan ovora gar bo'ldum, umid ulkim  
Fano dashti g'uboridin yopilg'ay jismi uryonim.  
Navoiyg'a demangkim, tarki ishq et, to erur mumkin  
Ki, men oshnqmenu devona, mundoq ish ne imkonim.  
402

Bahoru bog' sayridin ne gul, ne sarvdur komim,  
Budur komimki, shoyad uchrag'ay sarvi gulandomim.  
O'qung ko'p zaxmidin dom o'ldi jismim, zaxmlar ermas,  
Chiqarg'a jon qushi yo'llar yasabtur har taraf domim.  
Jamoling ko'zgusi chun elga ro'baro' bo'lur har dam,  
Ne tong gar ko'zgu aksidek zamone yo'qtur oromim.  
Xusho Majnunki, manusi edi boshig'a qo'ng'an qush,  
Junun toshi yog'ardin boshima ul ham emas romim.  
Mangakim, hajri zafidin nafas malum emas kelmak,  
Ne imkon bas yetishmak ul Masihodamg'a payg'omim.  
Firoqim kechasi bas muhlik o'lmish, gar sahar bo'lmas,  
Nafas urmoqqa go'yo subhini qo'yimas qora shomim.  
Aningdek tashnamen, ey mug'bachakim, qo'sh tutar bo'lsang,  
Falakning huqqasin bo'l ikki, to bo'lsun iki jomim.  
Baho bu benavodin gar qabul aylar esang, bordur,  
Biriga javhari jonim, biriga naqdi islomim.  
Harom ettim Navoiy, dunyoyu uqbo tamannospn,  
Nedinkim Kabai ko'yi sari bog'landi ehromim.  
403

Jafo ham qilmading - ko'z har necha husnungg'a oldurdum,  
Qiyoham boqmading - har nechakim, o'lingda telmurdum.  
Vasiyat qildi qabri boshida Farhod ila Majnun,  
Junun sahosida ul toshlarkim, ko'ksuma urdum.  
Yaralar anjum o'ldi, qon shafaq ul oy firoqida,  
Xadangi ohkim, o'tgan kecha gardung'a yog'durdum.  
Firoqim shomi andin tiyradurkim, dudi anjumni,  
Qora qilmish tugalardinki, hijroningda kuydurdum.  
Labing yodi chekib jon rishtasin, soldi yana tang'a,  
Ko'zung bedodidin jonni necha og'zimg'a yetkurdum.  
Jununum shulasin afzunroq etti ul pari otqon  
Ne o'qkim, hajri tug'yoni aro ko'ksunga sindurdum.  
Ajal bedodidin xoki tanim, yuz shukrkim, tindi  
Ki, hijron o'rtagan jonimni jononimg'a topshurdum.  
Qazog'a rozi o'lkim, g'ussa vaqti qilmadi sude,  
Necha kavkabni mujrim qildimu gardunni yozg'urdum.  
Xumorimdin sadoyu sarzanish zuhd ahlidin har dam,  
Chiqib mayxonadin, muncha balo boshimg'a kelturdum.  
Havolam qilsa piri dayr but yo mug'bacha zunnor,  
Ne chora, chun qo'yib masjid, fano dayrig'a yuz urdum.  
Navoiydek yorug'luq ul zamon topdimki, o'zluqni  
Fano o'tig'a o'rtab, kulni dog'i ko'kka sovurdum.  
404

Bahori vaslda o'rtandi rashkkin jonim,  
Xayol qilki, ne bo'lg'ay xazoni hijronim.  
Tanim tugonlariga marham, ey rafiq, ne sud,  
Erur ko'ngulda chu yuz muncha dog'i pinhonim.  
Ne nav deyki, buzug' ko'nglum ichra gah-gah kel,  
To'kar chu gardi fano lahza-lahza vayronim.  
Jununum emgagidin gar toriqting, ey nosih,  
Salomat o'l senu shahring, menu biyobonim.  
Kamoli zaf ko'runkim, yetar necha yerda,  
Ko'nguldin og'zima yetkuncha xayli afg'onim.  
Salomat ahli, tutung dinu ofiyatqa azo  
Ki, mastu arbadajo' chiqti nomusulmonim.  
Qadah quyoshi bila, soqiyo, munavvar qil,  
Ki, g'amdin asru erur tiyra kunji ahzonim.  
Zamon elida vafo yo'q, agarchi jon bersang,

Bas o'ldi ersa vafosiz, ne ayb, jononim.  
Deding, firoqida sabr ayla toki mumkindur,  
Navoiyo, dema bu so'znikim, yo'q imkonim.  
405

Bo'ldi ravzan-ravzan ul qotil xadangidin tanim,  
G'ussa charxi bu tanimdur, anjumi ul ravzanim.  
Aylamish zulfung xayoli ro'zgorimni qora,  
Oh dudidin qararmaydur maqomu maskanim.  
Har taraf ul sho'x tosh urmish, yarolar qonidin  
Kim, quruq jismim uza bo'lmish teri pirahanim.  
Dema, jon bermak fanin o'rgan, dog'i vaslimni tep,  
Sen visoling fikrin etkilkim, erur ul xud fanim.  
Qattiq ahvolim'ga yig'laydurg'an elni dema do'st,  
Do'stlar o'lmish, o'lum holig'a yetmish dushmanim.  
Dayr eshikinda tanim dafn aylasang, ey mug'bacha,  
Boda loyidin gahe topqay imorat madfanim.  
Dasht aro so'r, ey Navoiy, jonu ko'nglum saydini  
Kim, bukun ov azmi qilmish qotili sayd afganim.  
406

Shabiston ichra kirgach, shamlarning nurin etting gum,  
Kecha yorug'roq o'lgach, tiyraroq bo'lg'an kebi anjum.  
Chu sensen ayni insoniyat, o'lsang diydadin pinhon,  
Qorang'udur jahon andoqki, ko'zda bo'lmasa mardum.  
Ne tunkim, xoru xoro ustida ko'yungda yotqaymen,  
Degaymenkim, yonim ostidadur sinjob ila qoqum.  
Otang oyu onang xurshid edi erkinki, sen tug'dung,  
Vale husnu latofatda ne ab o'xshar sanga, ne um.  
Agarchi ishq bahri hajr daryosidin azamdur,  
Va lekin gar kichikroqdur, pur ofatroqdurur Qulzum.  
Quyoshdektur to'la kup og'zi davridin mayi sofiy  
Ki, gar bo'ldi quyosh avlo bukim, garduncha bo'lg'ay xum.  
Agar mashuqi zebo bo'lsa, ne barlosu ne lo'li,  
Nafis ar bo'lsa kolo, mulki ne Bag'dodu ne Torum.  
Xaloyiq kulmagin o'z holima ko'rganda yig'larmen,  
Junun ko'rgilki, chun dardimg'a yig'larlar, kelur kulgum.  
Navoiy, shahr eli ishg'olidin gum bo'ldi maqsudung,  
Bulardin istasang maxlas, fano dashtida bo'lg'il gum.  
407

Charxdin gar hardam ermas bir azog'a kuymakim,  
Nega tikkan soyi chok o'lmoq keraktur ko'nglakim.  
Sahl erur ko'nglakki, hijron o'qiyu g'am tig'idin,  
Tikmaku chok aylamakka mubtalodur ko'krakim.  
Har zamon ko'zdin yoshim emgaklagan bir yoshdek,  
Mayl etar tufroqqa, vah, o'lturgusi bu emgakim.  
Bejigar bo'lsam balo tortarg'a, vah, emdi ne tong,  
Bordi ko'zdin chun bag'ir pargolasidin ko'prakim.  
Har tong erta cheksa gardun subh tig'in qatlina,  
Tong emaskim, bordur ul dushmanlar ichra ertakim.  
Ayshu rohat qushlarnn sayd aylay olmon, garchi bor  
Ko'z yoshidin donayu jon rishtasidin ilmakim.  
Ey Navoiy, buki gardun evrulur fonusdek,  
Ko'ngliga kor etti go'yo sham yanglig' kuymakim.  
408

Qaysi taqvo xirmanin fisq o'tidin kuydurmadim,  
Qaysi tavba naxlini nafs ilgidin sindurmadim.  
Turmay oqsa ko'zdin ashkim ne ajabkim, tavbadin  
Garchi ko'p so'z dedim, ammo bir so'zumga turmadim.  
Xo'blar ishqida ko'z birla ko'ngul bedodidin,  
Ne baliyatlarki munglug' boshima kelturmadim.  
Jom barqidinmu zuhdum xirmanin kul qilmadim,  
Boda saylidinmu aqlim qasrini indurmadim.  
Lolaruxlardinmu har dam qilmadim ashkimni qon,  
Sarv qadlardinmu gardung'a fig'on yetkurmadim.  
Dayr piri ilgidinkim, bog'ladim zunnorni,

Mug'bacha ollida mushafni magar kuydurmadim.  
Qaysi sho'xi bodapaymo bazmidin surgach meni,  
Nangsizlikdin yirog'roq turubon telmurmamdim.  
Masti loyaqil yaqo yirtib, ayog'u bosh yalang,  
Yig'lamoqdin kimnikim, o'z holima kuldurmamdim.  
Yo rab, o'z tavbamg'a yo'qtur etimodim, sen magar  
Tavba bergaysenki, men aytib bajo kelturmamdim.  
Bermading tavfiq, yo'qsa ne uchun har qatlakim,  
Tavba sindurdum, o'zumni g'ussadin o'lturmamdim.  
Ey Navoiy, istasang tinmoq, ishing tengriga sol,  
Yo'qsa men say aylabon, sendin ko'ngul tindurmamdim.  
409

Vasling istab o'qdek etkay erdi surat paykarim,  
Naylayinkim, hajr o'qi paykonlaridur langarim.  
Otashin laling g'amidin o'rtanib, qon yig'lasam,  
Goh qondin, goh o'tdin lalgundur paykarim.  
Ko'zu mujgoningdin ayru uyqu yo'q men xastag'a  
Kim, momug' yanglig' tnkon birla to'lodur bistarim.  
Ey niholi noz, ohimdin hazar qilkin, bukun  
Ko'p ko'han paykar shajarni yiqqudektur sarsarim.  
Ul quyosh aksin may ichra ko'rgali oshuftamen,  
Ne ajab oshuftalig'kim, sug'a tushmish axtarim.  
Men ozibmen yo'ldinu bas tiyradur hijron tuni,  
Toli o'l, ey kavkabi iqbolu, bo'lg'il rahbarim.  
Ey Navoiy, ne ajab gar nazmim elni yig'latur  
Kim, yozilmish hajr o'tining dudasidin daftarim.  
410

Yetkach ul qotil, erur bo'g'zumda ikki barmog'im,  
Tig'i o'rnin ko'rguzub, surgil debon yolbormog'im.  
Vasl jomining agar mufrit emas kayfiyati,  
Sen qachon kelgach, mening nedur o'zumdin bormog'im?!

Hajr tirmog'i bila ko'nglumnikim, qildim figor,  
Bo'lmasun g'ayring demakdindur bu nav axtarmog'im.  
Baski shavqung g'olib o'lmish telbalardek, ey pariy,  
Yo'qturur tun-kun xayoling birla so'zlab hormog'im.  
Hajr aro yo'qkim, visol istab, o'lum istab, erur  
Furqatingdin o'zni bir tadbir ila qutqormog'im.  
Soqiyo, taklif ila ich dema, to'ldur dog'i ko'r  
Kim, ayog'ning naqshini eltur qirib sipqormog'im.  
Ey Navoiy, tortayin dermen ko'nguldin intiqom,  
Yo'qsa yuz g'amni anga har dam nedur boshqormog'im.  
411

Yor tig'i qatl urub, men hajr mayli qilmadim,  
Ko'nglum olib qovdi, men ko'nglum bila ayrilmadim.  
Zulm ila ovora aylar chog'da o'lturgil debon,  
Ne tazallumlarkim, ul qotil qoshinda qilmadim.  
Ko'nglum olurda ummidi mehr ila zor ayladi,  
Dilrabolar zor etib, bemehr o'lurni bilmadim.  
Oshiq o'lmang dermen, ey ahhob, pand aylang qabul,  
Men nelar ko'rdum, chu el pandin ko'zumga ilmadim.  
Lahza-lahza hajr o'ti chekti alam uzra alam,  
O'ttimu bir lahzakim ul shulag'a yoqilmadim.  
Hajridin bor ersa ranjing, tunu kun bo'l mastkim,  
To manga bu nukta kashf o'ldi, yana oyilmadim.  
Og'zi hajridin Navoiydek adam sahrosida,  
Ittim andoqkim, o'zum ham istabon topilmadim.  
412

Harir ko'nglaku ko'ksin nazzora aylamadim  
Ki, ko'nglak o'rnig'a ko'ksumni pora aylamadim.  
Demaki, ko'ksini men muncha pora qilmaymen  
Ki, ani men xud o'zum muncha yora aylamadim.  
Firoq shomi o'zi dog'i tiyradur yolg'uz,  
Duxoni ohim ila ani qora aylamadim.  
Dema necha tuganing bor, bilmon adodin,



Agarchi hargiz alarni shumora aylamadim.  
Ulusqa ishqim o'tin ko'ksun ohi fosh etti,  
Men ani ishqim ila oshkora aylamadim.  
El istixora qilur tavgah'a sahargahu men,  
Bajuz sabuhi uchun istixora aylamadim.  
Navoiyo, meni ul mast bazmidin surdi,  
Yo'q ersa kom ila andin kanora aylamadim.  
413

Itinki, bordi qilib tuma bag'rimu yuragim,  
Oqarg'usidur aning intizoridin so'ngagim.  
Firoq o'ti yuragimni su aylab oqizdi,  
Chekarga hajri g'ami emdi yo'qtur yuragim.  
Etak-etak guhar o'lingda sochsam ermas ayb  
Ki, ko'z xazonasidin dam-badam to'lar etagim.  
Mayim firoq aro xunobi g'amdurur, may emas,  
Xayol birla labing qandi chun erur gazagim.  
Tikan nishonimu guldek kafingdadur, yoxud  
Yetishgach anda ko'zum, qoldi yopishib nenagim.  
Sipehr zulmig'a yo'q chora bodadin o'zga,  
Bu ishda aqldin ermas tahammul aylamagim.  
Visolin istadim - ochti sahar yadi bayzo,  
Navoiyo, ajab ar mustajob emas tilagim.  
414

Firoq tig'i halokidin oncha emgandim  
Ki, yetsa dog'i ajal, o'lmamakka o'rgandim.  
Yerim gar o'lsa tamug', ko'p ko'runmagay muhriq,  
Firoq shulasig'a munchakim, men o'rtandim.  
Halok dashtida itkan ko'ngul topilmadi hech,  
Quyun kebi nechakim, har yonida aylandim.  
O'qurda ruqa hijron uzuldi tori hayot,  
Nedinki, toridek azbas o'zumga to'lg'andim.  
Emas boshimdin ayoq oh dudi birla qora,  
Firoq dashti samumida buyla churkandim.  
Demangki, xum kebi dayr ichra sokin o'lkim, men  
Surud uniga magar hol etarda tebrandim.  
Navoiyo, o'tubon umr g'aflat ichra, darig'  
Ki, so'ng'i uyqug'a ko'z mayl etarda uyg'andim.  
415

Charx ayirdi tez etib nolamni ham, ohimni ham,  
Mehribon shohimni ham, nomehribon mohimni ham.  
Har kishi dilxohu diljo'yum edi, soldi yiroq,  
Shohi diljo'yumni dog'i, mohi dilxohimni ham.  
Ne fig'ondurkim, latofat avjida mohimni tun,  
Uyqug'a qo'ymas xilofat taxtida shohimni ham.  
Aytmon shohimni yo mohimni yetkur boshima,  
Ham mahi g'ofilvashimni, shohi ogohimni ham.  
Jonda shohim yodi, ko'nglum ichra mohim furqati,  
Deng anga qulluq, bu birga shayalillohimni ham.  
Ey falak, shohu mahim shami ruxidin g'am tuni,  
Yurutub uy, yo'lg'a keltur baxti gumrohimni ham.  
Ey Navoiy, shohim ayvoni mahim husnin ko'rub,  
Jon tarabgohimni topsa, ko'z nazargohimni ham.  
416

Bahoru bog'din ortar malolatu dardim  
Ki, yo'q chaman aro gulbargi nozparvardim.  
Meniki, ul yuzu xat dardmand etti, ne tong,  
Bahoru sabzani ko'rmakdin ortmoq dardim.  
Bahori husn tamannosi ichra bargi xazon,  
Sirishk qonlaridin bo'ldi chehrai zardim.  
Bahor yomg'uri rahmat sahobidindur agar,  
Yog'arda qo'ymasa chiqmoqqa ko'yidin gardim.  
Bihishtning chechagu marg'zoridin ne osig',  
Mangaki, ul xatu yuz keldi sabzayu vardim.  
Jahon xayolidin andoqkn, fard qildi meni,

Sipehr mehnatini ko'rmasin mahi fardim.  
Navoiy ayladi shabzindadorlig', netkay  
Ki, yetsa boshig'a bir kecha mohi shabgardim.  
417

Xo'blar oshiqlarin noshod etarlar, shod ham,  
Vahki, bizga yorimizdin lutf yo'q, bedod ham.  
Turfa ko'rkim, javri birla dog'i g'amnok aylamas,  
Garchi rahmu iltifoti birla qilmas shod ham.  
Yo'qki, lali no'shidin qilmas hayotim fikrini,  
G'amzai xunrezin etmas jonima jallod ham.  
Mahvashidin kimsaga mehr o'lmasa, xushtur jafu,  
Mehr bunyodin yiqib, qilmas jafu bunyod ham.  
Jon beribkim, xora yo po'lod yetmas yordin,  
Bu jafoni torta olmas xora bal po'lod ham.  
Soqiyo, bir jom ila bu g'amni yodimdin chiqar,  
Garchi holim shiddatidek charx bermas yod ham.  
Iltifot etmay, Navoiyni qilur har dam halok,  
Mavt mahudig'a gar tayin emas miud ham.  
418

Yor kelgach manga dushman bo'lurin bilmas edim,  
Yo'qsa tun-kun tilabon vasl, duo qilmas edim.  
Ayrilib kelgucha o'turmakini bilsam edi,  
O'lsam, andin boruri vaqtida ayrilmas edim.  
Oyg'a boqtim yuzi yodi bila, qonim to'kti,  
Bilsam ul bo'lsa quyosh, ko'zga ani ilmas edim.  
Bog'i husni gulidin rang yo'qi fahm o'lsa,  
Bog'dek sovrulubon, gul kebi sochilmas edim.  
Zarqni bilsam edi ishqu junun zumrasidin,  
Ayrilib, zuhdu riyo xaylig'a qotilmas edim.  
Anglasam erdiki, el rashkidin o'lturgusidur,  
Hajr dashtida tilar xalqqa topilmas edim.  
Ey Navoiy, nega vaslida hazinsen demakim,  
Yor kelgach manga dushman bo'lurin bilmas edim.  
419

Sharhi dardim yorg'a yozdim - javobe topmadim,  
Nomadek ul sharhdin juz pechu tobe topmadim.  
Yozmog'ida muztarib erdim javob ummidig'a,  
Chun javobe topmadim, juz iztirobe topmadim.  
Jannati vasl orzusidin bitik qildim raqam,  
O'trusida g'ayri do'zaxdin azobe topmadim.  
Vasl ummida vadasida maks agar ko'rguzdi yor,  
Umrin shavqida aning juz shitobe topmadim.  
Jonu tan ummidvor erdi, chu qat o'ldi javob,  
Juz tani farsudayu joni xarobe topmadim.  
Ruqai mehrinki, gardunning tilar el behisob,  
Men anga mayusluq yanglig' hisobe topmadim.  
Ey Navoiy, yor lutfu qahrining xohonimen,  
Ham erurmen xush, gar andin juz itobe topmadim.  
420

Muvofiq kiydilar, bo'lmish magar navro'z ila bayram,  
Chaman sarvi yoshil xilat, mening sarvi ravonim ham.  
Chaman sarvi qolib hayron, mening sarvim qilib javlon,  
Aning shaydosi bir dehqon, munga shaydo bari olam.  
Chaman sarvi qolib bebar, mening sarvim bo'lub dilbar,  
Ani yel aylabon muztar, bu yeldin sekretib adham.  
Qo'nub ul sarv uza bulbul, chekib gul shavqidin g'ulg'ul,  
Bu sarv uzra ochilib gul, anga terdin tushub shabnam.  
Qilib ohim sari parvo, buyon mayl etmading qato,  
Sabodin, ey qadi rano, bo'lur ham sarv gah-gah xam.  
Bu bog' ichra may, ey soqiyki, bormen asru mushtoqi  
Ki, anda sarv ham boqiy emas, gul ahdi ham mahkam.  
Navoiy, ko'yin et manzil, yuzu qaddig'a bo'l moyil  
Ki, bog' etmas seni xushdil, gulu sarv aylamas xurram.  
421

Shomi g'am hajr o'tig'a kuymakni ko'p fan ayladim,  
Vasl shamin yoqib, el bazmini ravshan ayladim.  
Elga gardundin nashot etmak uchun ermish bukim,  
Oh o'qidin charxni yuz yerda ravzan ayladim.  
Bor emish go'yo visol ahli nashot aylargakim,  
Hajr aro qon yosh ila davronni gulshan ayladim.  
Men kuyub, el bazmi garm o'lmoq ne, yani go'yiyo  
Ani elga do'st, o'z jonimg'a dushman ayladim.  
Bu baliyatdin qutulmoq topmadim, ey mayfurush,  
Bexud o'lmoqqa xarobot ichra maskan ayladim.  
Dayr eli tutti Masiho so'gini, ey mug'bacha,  
Baski, Mar'yam charxidek hajringda shevan ayladim.  
Ey Navoiy, yetsa yuz ming g'am falakdin ne g'amim,  
Xossakim, dayri fano kunjini maman ayladim.  
422

Agarchi asru ko'p zolimdurur nomehribon mohim,  
Bihamdillahki, ham odildurur, ham mehribon shohim.  
Shahim bordiyu men qoldim, boray desam, bora olmon,  
Erishib ani, mohim bo'lmasa bu yo'lda hamrohim.  
Mahimg'a kim dey olg'aykim, manga bu yo'lda hamroh bo'l,  
Magar shohimki, mohim dardi ishqidindur ogohim.  
Manga dnlxoh mohimdur, dog'i diljo'y shohimdur  
Ki, yo rab, tushmasun ayru ne diljo'yum, ne dilxohim.  
Agar shohim vafosi jomidindur ishrati shomim,  
Vale mohim jafosidindurur ohi sahargohim.  
Manga shohim vafosi ham kerak, mohim jafosi ham,  
Ki, budur mujibi shavqu tarab, ul - izzatu johim.  
Agar mohim Navoiydin jahon naqdin tama qilsa,  
Ne g'am, shohimg'a borib zohinr aylay shayalillohim.  
423

Ul quyoshqa, vah, ne had birla bitik aylay raqam,  
Noma eltur qush malak bo'lg'ay, magar had bo'lsa ham.  
Tayyi arzing bo'lsa, ey payki sabo, nomamni elt,  
Yo'qsa qat o'lmas bu yo'l urmoq bila qosid qadam.  
Qosido, jon naqdini ham topshururmen, nomag'a,  
Chun ilik sunsa, ayog'ig'a nisor et jonni ham.  
Sen borib kelguncha, ey qosid, o'zumda bo'lmag'um,  
Jon yetib og'zing'a shavqung shiddatidin dam-badam.  
Anglamonkim, ul haramda bor topqung, yo'qsa yo'q,  
Bor topsang ham, olib nomang o'qurmu ul sanam?  
Gar o'qur ham bo'lsa, radmu bo'lg'usi yoxud qabul,  
Ham qabuli tushsa, yozg'aymu javob, aylab karam?  
Ey Navoiy, noma ul yon yozg'ali ne had sanga,  
Tut firoq ichra visolining xayolin mug'tanam.  
424

Ey xush ulkim, ofiyat kunji manga erdi maqom,  
Surai vashshamsu vallayl erdi virdim subhu shom.  
Subh andin xilvatimg'a nafxai ruhul quds,  
Shom mundin kunji faqrim ravzai dorussalom.  
Sayd subham donasi birla maloyik qushlari,  
Anda qo'ymay rishtai zuhdu riyoi birla dom.  
Ne birovning qomati ranosidin nolam biyik,  
Ne kishining g'amzai jodusidin uyqum harom.  
Ne ichimda lolaruxlar ishqidin qonlig' tugan,  
Ne boshinda siymbarlar vaslidin savdoyi xom.  
Ham ko'nguldin nozaninlar suhbat bo'lg'an unut,  
Ham nazardin mahjabinlar surati borib tamom.  
Nogahon shah bazmida jonimg'a tushti ofate,  
Men o'zumdin bordim, ul bilmon qayon qildi xirom.  
Hush ketti, aql itti, qolmadi jonu ko'ngul,  
Ishq chekti zuhd ila savdolarimg'a intiqom.  
Tushmish o't jonimg'a ul damdin beri ul navkim,  
Jon berib o'lmakni topmon, aylabon yuz ihtimom.  
Yor g'oyib, dard muhlik, xalq g'ofil, naylayin,

G'avruma kim yetkay illo shohi gardun ihtishom.  
Ey Navoiy, shohdin darding iloji bo'lmasa,  
Bosh olib ketgil, urub ovoralig' dashtig'a gom.  
425

Ne kun kelgayki, kelgay nozaninim,  
Ne xush bo'lg'ayki, bo'lg'ay hamnishinim.  
Saodat xatlari qilmish huvaydo,  
Iting changiga surtulgan jabinim.  
Erur ul sho'x otqan kaj guruha,  
Ko'ngul ganji aro durri saminim.  
Nedin ul ko'z chekar o'q go'shalardin,  
Gar o'lturmakka qilmaydur kaminim.  
Tekurma otashin lalingg'a boda  
Kim, ul o'tdin kuyar joni hazinim.  
Ketur, ey mug'bacha, jomi mug'ona,  
Erur, olsang, bahosi naqdi dinim.  
Navoiy, ne osig', jonong'a yetmas  
Navolarkim chekar joni g'aminim.  
426

Har qizil gulkim, yuzung shavqida olib isladim,  
Yetkach ohim shulasi, ani sarig' gul ayladim.  
Charx varzish aylabon Farhod ila Majnung'a javr,  
So'ngra maqsudi mening bedodim ermish - angladim.  
Toshki otdi, xasta ko'nglum chokidin solib ani,  
Yor ko'nglidek meni bedil ichimda asradim.  
Kirdi maydon ichra go'y o'ynarg'a ul chobuksuvor,  
Men ham aning raxshi ollida boshim go'y ayladim.  
To yo'luqti ofiyat ko'yida ul kofir manga,  
Aqlu dinim bordi, bilmon, ne balog'a uchradim.  
Subhdam dayr ichra mast o'lsam meni muflis ne tong,  
Shayx dastorin kecha masjidqa kirgach, sirmadim.  
Ey Navoiy, ko'ngluma ishqida qo'y dum dog'lar,  
Ul meni gar o'rtadi, men dog'i ani o'rtadim.  
427

Ne tong gar muhlik o'lsa dudi ohim imtidodi ham  
Ki, bir hijron tunicha bor aning qaddi savodi ham.  
Labi birla mengi vasfin yozay desam, munosibdur,  
Varaq jon safhasi, dog'im qorasidin midodi ham.  
Agar bir dam unutsam ani, haqdnn pstaram o'lmak,  
Agarchi o'lturur har dam meni bedilni yodi ham.  
Tutulmish zulfunga, lekin yuz ochsang, ochilur ko'nglum,  
Sening o'lingdadur ul telbanng bandi kushodi ham.  
Hayotim naxlini hajringda ashkim sayli chun yiqti,  
Madad qildi nigun aylarda ohim tundbodi ham.  
Uqublatlar bila hijronda o'ltursang meni, ey ishq,  
Jahon ahli aro ibrat uchun yetkur munodiy ham.  
Kerakmas g'arra bo'lmoq, shohidi davlat bosh indursa  
Ki, bir xamliq erur aning salomi xayrbodi ham.  
Meni zuhdi riyoiy sari targ'ib etting, ey zohid,  
Salohi bor esa, zohirdurur aning fasodi ham.  
Navoiy, egninga qo'ydung sabu ichmakka dayr ahli,  
Bu erdi umrlar, ey mug'bacha, aning murodi ham.  
428

Qayg'udin ko'nglum toriqmishtur, ko'nguldin qayg'u ham,  
Jonig'a yetmish bu g'amgindin ul-u andin bu ham.  
Furqatingdin ne tirikmen, ne o'luk, vah, ne ajab,  
Elga holimdin gah o'lsam yig'lamoq, gah, kulgu ham.  
Vahki, emdi tushga ham kirmas visoling, negakim,  
Ko'zdin andoqkim, uchar vasling, o'chubtur uyqu ham.  
Uyla ohimdin jahondur tiyrakim, zafim chog'i,  
Og'zima qo'ymoqqa topilmas yorug' bir ko'zgu ham.  
Lalu dur, tong yo'q ko'zumda, ne uchunkim bog'lamish,  
Sovug' ohim shiddatidin anda qon, balkim su ham.  
Intihosi ishqinng hijron emish, ey ahli ishq,

Vasl davroni aro mag'rur bo'lmang asru ham.  
Ey Navoiy, men kimu ul oy visoli bazmi, lek  
Basdur ul davlatki, o'ltursam yiroqtin o'tru ham.  
429

Yog'liging ilgimda, ashkimni ravona aylaram,  
Ko'zga surtub, ashk aritmog'ni bahona aylaram.  
Ul ko'zumga chun yetib taskin topib giryonlig'i,  
Ko'zdin olg'ach, yana ashkimni ravona aylaram.  
Yana yetkach, ko'zga ashkim tursa olurmen ani,  
Yana borsa, chorasin bu nav yana aylaram.  
Qo'zda kirpiklarni tillar aylabon har torig'a,  
Zafi holim ko'z tili birla fasona aylaram.  
Balki har torig'a jonim rishtasin chirmashturub,  
Jonima kasbi hayoti jovidona aylaram.  
Bir qadah bersangki, tutsa mug'bacha, ey piri dayr,  
Naqdi din sarmoyai jomi mug'ona aylaram.  
E, Navoiy, toki bo'lmishmen fano dayrida mast,  
Aqlu din tashvishidin forig' tarona aylaram.  
430

Ko'nglum ichra ishq o'ti yoqmog'in angiz ayladim,  
Kuydurub o'zlukni, ohing shulasii tez anladim.  
Ul pariy ishqida kuydurdum maloyikdin qanot,  
Dudi ohimniki, har dam otashangez ayladim.  
Qaddu ruxsori uchun ohim o'tining shulasin,  
Shomi g'am gohi havoyi, gohi gulrez ayladim.  
Gulbuni qaddig'a el ko'ngli osilmish g'unchadek,  
Mundin ul naxli vafo vasfin dilovez ayladim.  
Ostoningda bosh urmoqdin agar toptim sudo,  
Ashku ul tufrog'din ani sandalomez ayladim.  
Soqiyo, may tutkim, ul ayyomning uzrin qo'lay  
Kim, qadahdin zuhd ranji birla parhez ayladim.  
Ey Navoiy, bir pariyvash turkning majnunimen,  
Yo'q ajab, har qayda raxshin surdi, men xez ayladim.  
431

Har kishi yor ollida der chinni ham, yolg'onni ham,  
Vahki, ul bovar qilur voqini ham, bo'htonni ham.  
Jong'a yettim muxtalif ashobidin, ul dilrabo,  
Uylakim ko'nglumni oldi, kosh olsa jonni ham.  
Muddailar buyla hamroz o'lsalar yor ollida,  
O'zga tutmoq farzdur o'lmakni, bal hijronni ham.  
So'z dey olurlar gahu begah, mahallu bemahal,  
Bas mahaldur, tark qilsam mulku xonumonni ham.  
Chunki bag'rim qonini ko'z yo'lidin oqizdilar,  
Dam-badamdurkim, surubturlar sarosar qonni ham.  
Ey ko'ngul, dahr ahlig'a yo'q vadayu paymon durust,  
Necha kuygung sen dog'i, uz vada, buz paymonni ham.  
Hoshalillohkim, Navoiy aylagay tarki vafo,  
Bevafo kofirlar olsa jonni ham, imonni ham.  
432

Ey musulmonlar, kelur holim ko'rub, kofirg'a rahm,  
Naylayinkim, kelmas ul sho'xi pariy paykarg'a rahm.  
Rahm etarlar telba ko'nglumni ko'rub ahli junun,  
Ne ko'ngul bo'lg'ayki, kelmas ul pariy dilbarg'a rahm.  
Gar jafosi boru rahmi yo'q, anga ne etiroz  
Kim, xudo bermaydur ul sho'xi jafogustarg'a rahm.  
Xo'blug' rasmin ilikdin berma, ey berahmkim,  
Xo'blar oshiqklaridin qildilar aksarg'a rahm.  
Yo'lung ustida yotibmen xastayu zoru zaif,  
Bir o'tarda aylagil bu bekasi muztarg'a rahm.  
Bevafolar sari gar dunlarga'a rahm ermas, ne tong,  
Yo'qki dunlar, balki yo'q garduni dunparvarg'a rahm.  
Ey Navoiy, sarv yanglig' dudi ohu siymi ashk,  
Ne osig' chun kelmadi ul sarvi siymn barg'a rahm.  
433

To o'yuldi xanjari hijron bila giryo ko'zum,  
Ul tanur o'ldiki, zohir ayladi to'fon ko'zum.  
Vola ul suratqa, jono, to bo'lubturmen. erur  
Surati bejon ko'zidek, ul taraf hayron ko'zum.  
Dedim: etkil orazing birla ko'zung vasfin, dedi:  
Orazim davri qamar, sarfitnai davron ko'zum.  
Ashkdin yuz sari chun zohir qilur durri samin,  
Go'yiyo ko'z mardumi g'avvos erur, Ummon ko'zum.  
Bo'ldi bir gulgun bo'yalg'an shamining xam shulasi,  
Qilg'ali rangin sirishkidin tanimni qon ko'zum.  
Chun keraktur pok ko'z manzuri bo'lmoq pok yuz,  
To yuzung bor, o'zga yuz ko'rmak emas imkon ko'zum.  
Ey Navoiy, yo'q hadim ul sho'xni ko'rmakka, lek  
Har qayon azm etsa, asrar xalqdin pinhon ko'zum.  
434

Javhari paykonlarningning maxzani jon istadim,  
Jondin ortuq tuhfani jon ichra pinhon istadim.  
Tarki ishq irshod qildim ko'ngluma, qatl aylading,  
Bu edi jurmumki, kofirmi musulmon istadim.  
Ey sabo, devona ko'nglumdin xabar topqilki, men  
Topmadim, chun ul pariy ko'yida har yon istadim.  
Zulf aro qoshing ko'rungach, bo'lmadi zohir hilol,  
Shomi iyd ani sipehr uzra farovon istadim.  
Vasl aro ahbob ila ul zolim oncha qo'ydi dog'  
Kim, ul o'tqa to'zmagandin dog'i hijron istadim.  
Xonaqah ahli azobidin may ettim orzu,  
Zohido, o'ldum deganda, obi hayvon istadim.  
Ey Navoiy, ishq aro o'lsang dog'i vasl istama  
Kim, muyassar bo'lmadi, men ulcha imkon istadim.  
435

Labnng hayot suyidin zulol emish - bildim,  
Zulol nuqtasi ustida xol emish - bildim.  
Uchuq labingda emas, reza inju lal uzra  
Ki, bargi gul uza bir qatra bol emish - bildim.  
Qadimki xam bo'lub, og'zing xayolidin itti,  
Adam ichinda hamonoki, dol emish - bildim.  
Qoshingda xolning ovozasin eshitmish edim,  
Bu Kaba toqiyu ul bir Bilol emish - bildim.  
Yuzungni bilmas edim zulf aro chu qildi tulu,  
G'arib axtari farxundafol emish - bildim.  
Daniy tajammulu ozodaning falokatidin,  
Zamon tabiati beitudol emish - bildim.  
Firoq shomida so'rdum Navoiy ahvolin,  
Soching xayolida oshuftahol emish - bildim.  
436

Ne uchun tarki muhabbat qildi mohim - bilmadim,  
Bu g'azabkim, ayladi mohim, gunohim - bilmadim.  
Oshiq o'ldum, yordin topqay debon ko'nglum visol,  
Hajr bu yanglig' bo'lurni kiynaxohim - ilmadim.  
Yor ko'yi ichra itti zor jismim ohdin,  
Qayda tushkanni bu yeldin bargi kohim b" bilmadim.  
Ishq bo'stonig'a kprganda havoiy qush kebi,  
Sunbuli zulfi bo'lurni domi rohim - bilmadim.  
Aqlu xushu sabrim itti, ko'rgach ul kirpik safin,  
Bir-bir o'lmog'ni qora ko'rgach, sipohim - bilmadim.  
Kirmaguncha dayr aro tinch o'lmadim, tut bodakim,  
G'ussadin bu qala erkanni panohim - bilmadim.  
Ey Navoiy, buyla qilg'an ro'zgorimni qora,  
Hajr shomi erdi yoxud dudi ohim - bilmadim.  
437

Ey, ko'ngulga yuz tuman bedod sendin, jong'a ham,  
Muncha birla rashk andin munga, mundin ong'a ham.  
Moviyu gulgun to'n ermaskim, ko'zu ko'nglum aro,

Sug'a dog'i tushmish ul usruk, bo'yalmish qong'a ham.  
Husnig'a hayronmen ul yanglig', meni hayronki el,  
Ham aning husnig'a hayrondur, meni hayrong'a ham.  
El buzug' ko'nglin so'ra borg'an emish ul ganji husn,  
Ranja qilg'aymu qadam, yo rab, bizing vayronga ham.  
Lamai paykonidinmu ko'nglum ichra tushti o't,  
Yo'qsa ko'nglumdin o'qig'a tushti o't, paykong'a ham.  
Qil gadoying'ga vafo, ey xo'blar sultonikim,  
Bevafolig'dur gadog'a umr ishi, sultong'a ham.  
Ey Navoiy, davr ayog'in tut g'animat, ushbu dam  
Kim, sabote yo'qturur bu davrg'a, davrong'a ham.  
Nun Harfining Nozaninlarining Namudori "Favoyiddin  
438

Tilab jannatni, o'tmon do'st ko'yida gadolig'dii,  
Muhaqqar bog' uchun kechmak bo'lurmu podsholig'din.  
Bo'lub bsgona, ul may dog'i to xirqamdatur bildim  
Ki, dog'i hajr emish oxir natija oshnolig'din.  
Firoqing ichra qolg'ach, o'lmakimga qilma hayratkim,  
O'lumdin o'zga ish yo'q, jismg'a jondin judolig'din.  
Ajoyib ibtilodur bandi zulfung ichra jonlarga  
Ki, bor o'lmakcha bir soat najot ul muhtalolig'din.  
Jahon sho'xinki, el mahbubidur, aqd aylading, lekin  
Taammul qilki, ne lozim kelur bu kadxudolig'din.  
Yorut may lamasidin xilvatimni bir kun, ey mug'kim,  
Yorug'lug' topmadim xilvatda yillar porsolig'din.  
Ko'zum andoq qorarmish tiyra zuhd ichraki, gar soqiy,  
Demon may tutsa, zahr ichkaymen ani ko'z qorolig'din.  
Bu gulshan g'unchasida jola ermaskim, tish irjaytib  
Kular oshufta bulbul navhasig'a bevafolig'din.  
Navoiy, benavoliq shevasin berma ilikdinkim,  
Navo har kimki istabtur, topibtur benavolig'din.  
439

Yetkurub erdim firoqing tunlari gardung'a un,  
Shukrkim, vasling kuni emdi ne ul undur, ne tun.  
Yuz yopib, qilding uzun shomi g'amimni, ey quyosh,  
To quyosh mag'ribqa moyil, soyasi ko'prak uzun.  
Dema: zulfum bandidin bosh chekma, bo'ynung to'lg'ama,  
Tig' agar sursangki, men bosh qo'ydumu tuttum bo'yun.  
Tiyra ohim elga zohir qildi ko'nglum kuymakin,  
Garchi o't yoshunsa, ani oshkor aylar tutun.  
O'rtanib jismim, balo dashtida sargardon kezar,  
Shuladin tarkib topqon buylakim ko'rmish quyun.  
Soqiyo, tut jom, solma tonglag'a may vadasin,  
Tongla chun malum emas, bori g'animatdur bukun.  
Ey Navoiy, qo'l surohidek bo'yunni quchqali  
Yetmasa, bori surohi bo'ynig'a ilgingni sun.  
440

Yuzungkim tozaroqdur bargi guldin,  
Uchar ko'zdin vale chiqmas ko'nguldin.  
Kuyub hajringda kul bo'ldum va lekin  
Yoruqtur ishq miroti bu kuldin.  
Ajab farxunda zote senki, odam  
Mubohot aylagay sendek o'g'uldin.  
Qulimen ishqningkim, tanlamaydur  
Muhabbat shevasida shahni quldin.  
Siroti mustaqim o'ldi shariat  
Ki, jannat topmog'ung o'tmay bu puldin.  
Bag'oyat hiylagardur zoli gardun,  
Agar ersen, hazar qilg'il bu tuldin.  
Tariqi ishq ila borg'il, Navoiy  
Ki, ozdi har kishikim, chiqti yo'ldin.  
441

Ishq chun berdi tanim shulasig'a ko'kta o'run,  
Chekti bir-birdin ani, ayirib uchqun-uchqun.

Ishq o'ti yoqqali chok etti quruq jismimni,  
Yorsa xushroq tutashur, necha quruq bo'lsa o'tun.  
Shulaliq tan bila g'am dashtida sargardonmen,  
Go'yiyo yeli samum o'lsa, bo'lur buyla quyun.  
Dudi ohimg'a yetishmas, chiqibon abri bahor,  
Uylakim rifat ila abri bahoriga tutun.  
Charx yog'dursa kavokibni, sirishkimcha emas,  
Qanda daryo bila teng bo'lg'ani bordur shudrun.  
Tiyir boroni g'aming jonu tanimdin o'tti,  
Olloh-olloh ne balo bu yog'in ermish o'tkun.  
Ko'kragim chokini tikmak bila butsun demangiz,  
Subhning ko'nglakining chokini kim ko'rdi butun.  
Zohido, tonglagi kavsar mayidin ko'p dema so'z,  
Kelki, mayxona aro xush tutoli o'zni bukun.  
Istamas bo'lsang ishing uzra girih, tuzluk qil  
Kim, yog'in rishtasig'a qatrasini xud keldi tugun.  
Mastmen, lek unaman tugmai toj aylasa shayx,  
Zuhdi ko'yi aro xirqamdin agar tushsa yurun.  
Ey Navoiy, dema zulfi aro holingni, degil  
Kim, erur asru aning qissasi chirmashu uzun.

442

Rishtai jonim sanga bog'ligdur, o'ltur bir zamon  
Kim, erur qo'pmoq hamonu rishtani uzmak hamon.  
Fahm etar yaxshi yomon vasling manga tegmasnikim,  
Yaxshilardin yaxshisen sen, men yomonlardin yamon.  
Vasli no'shi lazzatin so'rdung, javobin ne deyin,  
Menki hijron neshidin bir lahza topmasmen amon.  
Ashk uza qolqir zaifu zor jismim ohdin,  
Tund yel tahrikidin andoqki, bahr uzra samon.  
Eldin o'lmishmen ramida ani rom aylay debon,  
Lekin ul yor elga rom, ammo erur mendin ramon.  
Bu fano dayrida har damkim o'tar, tut mug'tanam  
Kim, yana bir damg'acha mumkin emas bo'lmoq zamon.  
Ey Navoiy, davr agar budur, meni mast etkali  
Sen to'la quykim, men aning sofur durdin tolg'amon.

443

Ul koni malohatda demon bor edi bir on,  
Lav tanzur fi husnihi-l-on kamo kon.  
In ihtariqa jismi min nori havoyih,  
Kuymasligi xasning choqin yetkanda ne imkon.  
O'lgum susabon hajr biyobonida, rahm et,  
Konat shafahak-aynu hayot ano atshon.  
Yo qurratu ayni ji va-r-ham bidumui,  
Kim qildi bu selob ko'zum uyini vayron.  
Ey qonki, ko'zumdin oqasen rahmki, o'lgum,  
Min jayri dami-l-ayni lano hosilu iyqon.  
Lav lam yakuni-r-royihati-l-manzili salmo,  
Yuz qatla band manzilidin ketmish edi jon.  
Har vajh ila gar o'lsa Navoiy ne ajabkim,  
Min kulli vujuhin sufi vajhika hayron.

444

Ey, yuzung ustida ko'z andoqki, oraz uzra ayn,  
Nun bila ikki qoshing ichra tafovut binu bayn.  
Men kimu taqvo musulmonlarki, har soat solur  
Ko'ngluma ul ikki kofir ko'z xayoli sho'ru shayn.  
Anjum istar charx tosidan tugonlar ishqdin,  
To ko'rubtur ul muqammirvash qo'lida kabatayn.  
Yirtting umrum sijillin, tig' ila boshim chopib,  
Qolmadi bo'yumda hijron o'lturub bori bu dayn.  
Dedi: og'zimdur sening umrung, visolim istagil,  
Umr agar bo'lsa, visolin topqamen al umr ayn.  
Soqiyo, ko'p vada qilding, roh ila rohat yetur,  
Yo'qsa qil mayuskim, alyasu ihd-al rohatayn.  
Ey Navoiy, nega mayus o'lg'ay ulkim, shohidur  
Xusravi G'oziy muizzi mulku din Sulton Husayn.



445

Ishq aro kuysam, kulumni lutf etib yo zulminan,  
Xayli mo'ri qilkim, ul ko'y ichra qilg'aylar vatan.  
Ko'yida uryon tanim dafn aylang, o'lsam ishq aro  
Kim, shahid o'lgang'a tufrog' pardasi basdur kafan.  
Dard o'qi jismimg'a yog'di, go'yiyo bo'ldi sipehr,  
Har hilol andoza qavsiddin manga novak fikan.  
Ko'yida qatlimg'a rozimen, nechukkim telba it,  
Cheksalar, lekin toqib bo'ynung'a zulfidin rasan.  
Nozik ermas hulla, jonlar rishtasiddin ko'nglak et,  
Kim anga jisming tahammul qilg'ay, ey nozuk badan.  
Bu chaman gulzorig'a berma ko'ngul, ey andalib,  
Kim erur, har gulki ko'rsang, tegrasida yuz tikan.  
Ey Navoiy, ko'yiga bordim tilab qaddu yuzin,  
Bog'ni naylay, keraklik yo'q manga sarvu suman.

446

Musavvireki, qilur ko'yi gardining raqamin,  
Qo'yungki, ko'zga chekay surma milidek qalamin.  
Yilon taharrukin ar qush tutarda ko'rmaisen,  
Ko'ngul olur chog'i ko'r bandi zulfi pechu xamin.  
Nihon tan ichra tuganlardin o'ldi munglug' jon,  
Gadoki, tabiya qilg'ay libos aro diramin.  
Ko'ngulki, g'am sipahin ko'rدي - chekti shulai oh,  
Birov kebiki, tikar mo'r xaylig'a alamin.  
Xiromin asru sevarmen vale ko'ngul ichra,  
Ayog' chu qo'ydi, tilarmen, ko'tarmagay qadamin.  
Xumor muhlik edi, dayr piri tutti qadah,  
Unutmog'um, agar o'lsam dog'i, aning karamin.  
Navoiyo, adam istar falak vujudungni,  
Teng onglasin dog'i aning vujud ila adamin.

447

Netib tama qilayin bo'ynuma soching rasanin  
Kim, ul quyosh yuziga soldo chin ila shikanin.  
Buzug' ko'ngul aro ishqing chu kirdi - qochti xirad,  
Bu ajdahoni ko'rub, bum qo'ydi o'z vatanin.  
Tirildi xattu yuzungdin ko'ngul, magar ekting,  
Xizr suyi bila bu bog' sabzayu samanin.  
Qatili ishqing agar kirsaravza tavfig'a hur,  
Ketursa hulla, ola olmag'ay aning kafanin.  
Ko'ngulda xor g'amidur - o'larman, ey Maryam,  
Masih ignasi birla chekay desang tikanin.  
Jahonda raz qizining lalidin og'iz olma,  
Desangki, ko'rmagasen zoli charx makru fanin.  
Navoiy usruk agar dayr ichinda o'rtadi dog',  
Magarki suzguch ila kimsa bog'lag'ay tuganin.

448

Necha kundurki xabar topmamisham siymbarimdin,  
Ne asardur xabarimdin, na xabardur asarimdin.  
Nazarim ollida oysiz kechadin tiyraroq o'ldi,  
Hajr kunduzlari, to bordi quyoshim nazarimdin.  
Zaxmi qotil ekanin derga erur har biri bir til,  
Tig'i hajri qayu pargolaki, tildi jigarimdin.  
Keluram oh nla rasvolig' o'ti har sari sochib,  
Ofiyat ahli, salomat qo'punguz rahguzarimdin.  
Buylakim, ul ko'zi ofat yonar o't jonima urdi,  
Barqi ofat choqilur olam aro har shararimdin.  
Ul sifat ishqu junun tog' ila dashti aro ittim,  
Ki,na Farhod nishon topti, na Majnun xabarimdin  
Dahr bog'ida vafo naxli ekib, berdi jafobar,  
Bog'bono, deki, ne bergamen ul samarimdin.  
Nosihon, ishqu junundur hunarim, tarki buyurma,  
Sanga or o'lsa, manga faxrdurur bu hunarimdin.  
Ey Navoiy, boribon yor, fano dashtig'a tushtum,  
Magar ul qaytsa, men qaytqamen bu safarimdin.

449

Yo'q furqat aro bahram ne tandinu ne jondin,  
Billahki, to'yubturmen ham mundinu, ham ondin.  
Jon dushmanu jonon xud andin manga dushmanroq,  
Tong yo'q, ko'p esa dardim jondin esa jonondin.  
Ko'ksunga urar toshqa gar tegdi o'qung ne sud,  
Kuydurmakima, chunkim o't sekredi paykondin.  
Men xastani rashk o'rtar, aylarga malak surma  
Gardeki, chiqar ko'kka javlonida maydondin.  
Zulfidin agar ko'nglum jam o'lmadi, ayb ermas  
Kim, topqusi jamiyat ul xayli parishondin.  
El zarqu firibidin voqif kishi Majnundek,  
Ne ayb, ko'ngul uzmas gar g'uli biyobondin.  
Zahr ichgulu may ichma, dahr ichra Navoiydek  
Kim, naf xumor-o'qdur bu sog'ari davrondnn.  
450

Muzahhab aylagan paykonlaring jismim aro har yon,  
Dema bosh chektikim, chekti zabona shulai hijron.  
Qachon paykon ko'runmas, hajr o'tining shulasi bo'lsa,  
Ani tortib chiqarmoq zaxm ichidin bormudur imkon.  
Ne tosh otib, tanimni zaxm qilsang, g'amg'a qolurmen,  
Munga ne bog'lay ani, qayda bog'lay, deb meni uryon.  
Balo dashtida ko'rgan vahsh Majnunni, meni dogi,  
Xirad ahli qoshinda telba ko'rgandek, qolib hayron.  
So'ngaklarni tanimdin bir-bir ayirdi g'ami hajring,  
Mahaldur itlaringni aylasam kulbam aro mehmon.  
Ne men qolg'um, ne sen boqiy, zamone kelgil, ey soqiy,  
Qadah davrini xush tutkim, vafosizdur base davron.  
Vafosizdur zamon ahli, zamonda ne vafo bo'lg'ay,  
Vafo ahli bulardin gar vafo istar, erur nodon.  
Xusho, dayr ichra mayxona, to'la ilgimda paymona,  
Menu ahli fano og'zida kullu man alayho fon.  
Fano dayrida soyilliqni sultonlnqdin ortuq tut  
Ki, o'lmaklikda tengdurlar agar soyil, agar sulton.  
Jahon ichra kishining chun yo'qiyu bori yaksondur,  
Ne farrux kimsadur ko'rgan jahon boru yo'qin yakson.  
Navoiy, o'zni xush tutkim, kishiga dahr ishi bordur,  
Agar mushkul tutar - mushkul va gar oson tutar - oson.  
451

Furqatingdin sudurur ko'nglum, xayoling ul sudin  
Uyla zohirdurki, zohirdur jamoling ko'zgudin.  
Ul yuz ollimdin ko'rungach, qochti hijron zulmati,  
Soya qolg'andek keyin, xurshid chiqqach o'trudin.  
Hajr biymi ichra bo'ldum past, baskim, yig'ladim,  
Vasl ummida dog'i topsam, sustayurmen kulgudin.  
Deb eding qatlingg'a kelgum, chun ishim o'lmakdurur,  
Kelsa o'lgum, kelmasa ham, o'lgum ushbu qayg'udin.  
Chekmisham qotil ko'zung ollinda ko'nglum saydini,  
Chun qulaydur - bir o'q ot, o'tkarma ani qobudin.  
Dermen, aylay surma bir sohib nazarning gardini,  
Ohkim, uyg'onmag'ur baxtim, ko'z ochmas uyqudin.  
Ko'rgali ani Navoiydek o'zumdin bormisham,  
O'ziga kelturmas ul ayyor ushbu bexudin.  
452

Yorutmas quyosh tiyra shomim qorosin  
Ki, bu shom etar tiyra aning ziyosin.  
Ochar shoh o'zi band qilg'anni, lekin,  
Xalos aylay olmas birov mubtalosin.  
Gar Ayyub sabr etti turluk baloda,  
Vale ko'rmadi hajr shomi balosin.  
Bulut bo'ldi ohimkim, ul oyni yopqay,  
Ulustin qilib tiyra ishq havosin.  
Diram o'rnig'a bersa anjumni tashlar,  
Agar imtihon qilsang, ul oy gadosin.

Qani raiy mundin savob, ey ko'ngulkim,  
Kishi qoyil o'lsa, bilib o'z xatosin.  
Navoiy erur bulbulung lekin, ey gul,  
Unutturdi hajring xazoni navosin.  
453

Netib o'pkaymen ul chobuk ayog'in,  
O'pa olmon chu raxshining tuvog'in.  
Bularni bo'lmasa o'pmak, ne imkon  
Taxayyul birla ham o'pmak dudog'in.  
Aziz andoqki ko'z ichra savodi,  
Ko'ngulda ham tutarmen toza dog'in.  
Kerak tutmoq xating atrini topqan  
Binafshazordin o'tsa dimog'in.  
Menu sog'ar, faqihu jomi kavsar,  
Bale, har kimsa ko'rsun o'z ayog'in.  
Jahon makrin biravkim bildi, bermas  
Jahon mulkiga bir damlig' farog'in.  
Saranjom o'lmak ermish, ey Navoiy,  
Xizr umri muyassar bo'ldi sog'in.  
454

Ikki gul kecha kulbamni guliston aylabon,  
Oldilar jonimni bedod, ulcha imkon aylabon.  
Biri bo'rkin sindurub, jonlar safin sindurg'ali,  
Aqlu din mulkin safi mujgona vayron aylaboi.  
Biri bir necha hilolin egri bog'lab noz ila,  
Anjumu aflokni husnig'a hayron aylabon.  
Biri xatti sabzasidin gulga bog'lab hoshiya,  
Bazmin ul sabzayu gul bog'i rizvon aylabon.  
Biri olam ahlining ko'ngli qushin sayd etkali,  
Sunbuli domini gul uzra parishon aylabon.  
Biri qoshu kirpigidek o'q bila yo ilgida,  
Lekin ul yo birla-o'q jonlarni qurbon aylabon.  
Biri vo'sma birla surma rangidin ko'k toqini,  
Ofat angizu qora nargisni fatton aylabon.  
Biri bog'lab bargni to'n uzra minorang qur,  
Naxli qaddin g'ayrati sarvi xiromon aylabon.  
Biri gulgun to'ng'a sarig' astardin zeb etib,  
Sarvi ranosin guli ranoda pinhon aylabon.  
Mastlig'din ul qilib ilgida dog'in oshkor,  
Sho'xlig'din jong'a bu yuz dog'i pinhon aylabon.  
Zulm ila ul o'lturub, bu lutf birla tirguzub,  
Gar bu qilsa zulm, ul ham lutfu ehson aylabon.  
Men agar boqsam bu yon, tig' urub aning ishvasi,  
Boqsam ul yon, g'amzadin bu tiyr boron aylaboi.  
Ey Navoiy, bu fasonang yo tush erkin, yo xayol,  
Necha lof urmoq o'zunga muncha bo'hon aylabon.  
455

Ey ko'ngul, gar quti jon qilmoq tilar bo'lsang labin,  
Yo'qtur imkon solmayin bo'ynungg'a tavqi g'abg'abin.  
Shomi hijron uyla muhriqdurki, har soat qurur,  
O'l qilib daryog'a yopinsam bulut chodirshabin.  
Tiyradur ul navkim, qilg'ay quyosh nurin qora,  
Garchi kunduz charx toli qilsa baxtim kavkabin.  
Uyla usruk chiqti javlon aylab ul, oykim, qilur  
Yer bila teng, ko'k uza sekretsa nogah ashhabin.  
Lali jon olmoq tilar, yo'qsa takallum aylasa,  
Ruh ila qilg'ay musharraf yuz Masiho qolibin.  
Sofi may ichkim, kuduratdur sarosar, angladim  
Ham zamon rasmini, ham ahli zamonnnng mashrabin.  
Charx toqidin sado ermas, maloyik zikridur,  
Chun Navoiy yetkurur gardung'a yo rab-yo rabin.  
456

Yetishti bayramu raf etti ro'za qayg'usin,  
Hilol musayqali yorutti boda ko'zgunin.

Sipehr jomi hilolig'a jilva berdi, magar  
Ki, boda zabt eta olmas nashot kulgusin.  
Magarki, qildi shabistong'a azm shohidi iyd.  
Ki, to'kti farruh ayog'ig'a axtar injusin.  
Dalil rohi shafaq rangu jomi minoyi,  
Shafaq mayini ko'ru charx jomi minusin.  
Farog'ate tilar ersang, ko'p og'zi xishtini ol,  
Ushat bu xisht bila zuhd nangu nomusin.  
Saharki, xalq musallog'a yuz qo'yar, xush tut,  
Borurg'a dayri fano sari tong qorong'usin.  
Navoiy, ich qadahu foniy o'lki, topti baqo,  
Biravki, topmadilar el surog'u belgusin.  
457

Sebakedur orazim rangi birav hijronidin,  
Olmadek bo'lmish qizil har yoni ashkim qonidin.  
Novaki qonlig' ko'nguldin, eykn, dersen o'tmamish,  
Aylagil bore nazarkim, qon tomar paykonidin.  
Men kebi majnunni ham bosti mazallat gardikim.  
Fahm bo'lmas zaxm ila dog'i tani uryonidin.  
Go'y urardin yo'qki, ul chobuk qilur bir boshni go'y,  
Buki bir g'avg'o chiqar har dam aning maydonidin.  
Xo'blug' davrida yod etgil gahe ushshoqni  
Kim, base yod aylagungdur xo'blug' davronidin.  
Aysh bazmin, ey ko'ngul, mayxona ayvonig'a chek  
Kim, balo toshi yog'ar har dam sipehr ayvonidin.  
Ko'yida itlar fig'oni andin erkin har kecha  
Kim, uyumaslar Navoiy nolayu afg'onidin.  
458

Yuzung ko'rgach, ilik ko'ksumga urmon, ishq tobidin  
Ki, ko'nglumga qo'yarmen, sekre aning iztirobidin.  
Chiqibtur chun tishing hajrinda ohim abri naysondek,  
Ne tongdur, yog'sa jola o'rnig'a aning sahobidin.  
Ko'nguldin poralar malum o'lurkim, istar ul oyni,  
Damim o'ti sharorining falak sari shitobidin.  
Havoyi ishqdurkim, buzg'ay uylarni hubob oso,  
Buzulg'ochkim, havo chiqsa ko'zum bahri hubobidin.  
Savodi hajr shomicha to'kulgay mushk har sari,  
Parishon aylasa yel, tob ochib zulfung tanobidin.  
O'tukin to rikob o'pti, aning rashkidin istarmen,  
Ki, tishlab-tishlab, o'tuk nalidek uzsam rikobidin.  
Ajab yo'q, totsa har it telbarab og'zidin o't sochqay,  
Junun ko'yida tushkan shulaliq bag'rim kabobidin.  
Sadodin obi hayvon qatras sekrimu har sari,  
Vayo so'z der zamon, dur sochilurmu lali pobidin.  
Desang hajring xumoridin xalos o'lg'aymen, ey soqiy,  
Magar og'zimg'a quyg'aysen labi laling sharobidin.  
Ne moqidur, ne mustaqbal orada, sensenu bu dam,  
Ne shod o'lmoqdurur har dam uzun umrung shitobidin.  
Desang do'zax azobin chek Navoiy, tortsun ming yil,  
Xalos etsang ani, yo rab, dame hijron azobidin.  
459

Malolat bumi uchmas men gado vayroni tomidin,  
Muzahhab qush kebi shah qasrining mili maqomidin.  
Jamoling subhidin so'rdung nishone, vah ne nav aytay,  
Qutulmaymen chu hargiz tiyra zulfung hajri shomidin.  
Bu yanglig'kim taqibsen har ko'ngulga zulfdin tore,  
Ko'ngullar ne qutulg'aylar qading sarkash xiromidin.  
Yuzungnung hajrida bu ko'z qorasin lola yanglig' bil,  
Qorasi davrida evrulkan ashki lolafomidin.  
Seni istarda bu majnun xiromi barqdek, tong yo'q  
Ki, po'ya vaqtida o't choqilur har tez gomidin.  
Labing obi hayotida erur Iso dami muzmar,  
Ne tong, bo'lsa o'luk jonbaxsh aning shirin kalomidin.  
Chu ko'rdu og'ziyu zulfini, hushum bordi yag'mog'a  
Ki, mul kayfiyati fahm o'ldi aning mimu lomidin.

Nasimi zulfin istishmom qilsa aqli kuli chiqmas -  
Junun atri qiyomatqa degin aning mashomidin.  
Ul oy hajrnda mahzunmen, kerak mayxona ul yanglig'  
Ki, may kam bo'lmag'ay yillar ichib aflok jomidin.  
Manga chun dayr piri say qildi butparast o'lmoq.  
Unuttum xudparast o'lmog'ni aning ihtimomidin.  
Erur ko'ngli qushig'a halqamu ushshoq otin ko'rgach,  
Navoiy otig'akim, halqa chekting ul asomiydin.  
460

Dema gulgundur libosimkim, sirishkim qonidin,  
Rang tutmish, qon oqar siqsang, tutub har yonidin.  
Necha ko'nglum bog'ida, ey ishq, kirsang topilur,  
Sarv birla g'uncha aning novaku paykonidin.  
Oshkoro ganji husnndin chu bahram yo'qturur,  
Qayda topqaymen tamattu xur dai pinhonidin.  
El bila kasbi havoyu su qirog'i istading,  
Bo'lma g'ofil ohu ashkim sarsaru to'fonidin.  
Xo'blug' davronida ushshoqdin yod et gahe  
Kim, base yod aylagungdur xo'bluq davronidin.  
Istamang oxir giyohi mehr yo bargi vafo  
Kim, ko'karmaydur bular hargiz jahon bo'stonidin.  
Ey Navoiy, yoqmasa ul oyg'a, bas qildim navo,  
Lek man aylarga ojizmen ko'ngul afg'onidin.  
461

Tilab maqsad harimi tavrini yeldek xirromimdin,  
Oziqqan hamrahim topmas asar qum uzra gomimdin.  
Qiyomatqa degincha zahr o'tidin marg'zor o'lg'ay,  
Agar bir qatra tomsa, furqating bazmida jomimdin.  
Qamar davrida yorug'luq yuzini ko'rmagay kimsa,  
Quyosh ruxsorig'a gar tushsa xole tiyra shomimdin.  
Shamimi zulf vasfidin eshittim nuktaye bir kun,  
Erur yillarki, mushki nob isi ketmas mashomimdin.  
Sipehr uzra emas gulgun bulut, har sarikim tushmish,  
Falak mirotig'a aksi sirishki lalfomimdin.  
Kabobim juz bag'ir yo'q, garchi bor ohim aningdekkim,  
Tushar vayronim ichra churkanib, qush o'tsa tomimdin.  
Xalos o'ldum ishim tengriga solib, toki bildimkim,  
Ochilmas ish menpig behuda sayu ehtnmomimdin.  
Mug'anniy nag'masidpn toza bo'lmas, ey Navoiy, ruh,  
Agar zeb etmasa lalig'a ruhafzo kalomimdpn.  
462

Shioiy xatlar ayrilg'an kebi xurshidi raxshondin,  
Ko'ngullar yo'llar etmishlar jamoling sari har yondin.  
Sirishkim yomg'uriyu shomi hijroning'a rahm etkim,  
Bu o'tti Nuhning umridin, ul bir o'tti to'fondin.  
Dema, ey Xizr, jon birla baqosi bobida ko'p so'z,  
Fano ahli aro jonon borinda kim desun jondin.  
Buzug' ko'nglum aro xattu uzoring, ey bahori husn,  
Erur andoqki, butkay sabza birla lola vayrondin.  
To'ladur ko'ksun ichra novaking, surtub ilik, fahm et,  
Tanimda har sarmmo' o'rnida bir no'gi paykondin.  
Chu davr ahli jafosidin icharmen boda, ey soqiy,  
Unutma davr ayog'idin, vale yod etma davrondin.  
Qachon oy kakhkashondin soyir o'lsa, bo'lg'ay ul yanglig'  
Kim, ul xurshndi siymo sayr uchun o'tkay xiyobondin.  
Chu gulda yo'q vafo rangi xazon yetkuncha, ey bulbul,  
Sabodin bargi gul yanglig' uchub chiq bu gulistondin.  
Navoiyg'a Hijoz ohangi bo'ldi, to yana qaytib,  
Maqom etmas Iroq ollida, yod etmang Xurosondin.  
463

Lolalar ochilsa vayron marqadim har yonidin,  
Dog'i ko'nglum o'tidindur, rangi zaxmim qonidin.  
Har o'qungnung zaxmidin qon oqsa, tong yo'q, nov-nov,  
Xossa ikki nov ham topqay ul o'q paykonidin.

Borg'ali devona ko'nglum tan uyin sog'inmadi,  
Itti Majnun, uylakim, yod etmadi vayronidin.  
Hajr shomi yig'laram g'urbatdin, ey hamsoyalalar,  
Bu kecha voqif bo'lung bu saylning tug'yonidin.  
Hajr yuz ming yilchayu ashkim urar gardung'a mavj,  
Men ham o'ttum Nuhdin, bu ashk ham to'fonidin.  
Eyki, bu bazm ichra ichting kom ila bir davri may,  
Bilki, nokom oncha qon yutqung falak davronidin.  
Ey Navoiy, tush ko'rarsenmu vatanni, demakim,  
Telba tushdek sog'inur, yod etsa xonumonidin.

464

Yuz o'tida yuz qatra su, tong yo'q, xo'yi g'altonidin,  
Ko'nglum o'tida yo'qmudur yuz qatra su paykonidin.  
Qilg'anda raxshin garmpo'y ul shahsuvori tundxo'y,  
Qilg'ay debon ollida go'y, olmon boshim maydonidin.  
Bu dardu g'amdin lolmen, maydon aro pomolmen  
Kim, ko'rgach-o'q beholmen ul ishvagar javlonidin.  
Boshim sari nazzora qil, ey charx, dod, boringni bil,  
Dog'i saodat anglag'il har zaxm aning chavgonidin.  
Maydong'a ul chobuk surub, boshimg'a chavgon yetkurub,  
Sargashta jonim kuydurub, el po'yasi har yonidin.  
Ko'k mazraidin xo'shaye kasb aylasang, qil to'shaye,  
Kom istabon tut go'shaye, go'yi falak davronidin.  
Gardun chekib tig'in nihon, yuz javr birla to'kti qon,  
Oxir Navoiy topti jon, topqach vafo jononidin.

465

Gar meni yod etmas ul oy zulm ila bedodidin,  
Shukrkim, g'ofil emasmen bir dam aning yodidin.  
Lutf etib, gar yod etar, yo zulm ila bedod etar,  
Men rizosin istaram yodidinu bedodidnn.  
Kecha aysh ahli mug'anniy lahnidin xushhol emas,  
Onchakim men tongg'a tegru itlari faryodidin.  
Xotirim sinmoq tilar, ko'ngli tilarmen, men dog'i,  
Har ne bu shishamga kelgay xushtur, ul po'lodidin.  
Sabr toshidin ko'ngulga ko'p bino tarh ayladim,  
Ko'z yoshim sayli qo'ngardi barchani bunyodidin.  
Dayr piri dedi: maydin bosh ko'tarma, ey rafiq,  
Solik uldur, chekmagay boshini pir irshodidin.  
So'rma, ey hamdam, Navoiyning g'aminkim, olame  
G'am bila to'lg'ay, dam ursa xotiri noshodidin.

466

Yorab, ulkim vasl shomi kom olur zebosidin,  
Tiyra qilma ayshi ko'zqusini subh anfosidin.  
El mayn lalin netay, mamzuj esa obi hayot  
Kim, mening jomim erur mamlu fnroq olmosidin.  
Ul pariy ishq agarchi ayladi majnun meni,  
Shukr erur, boreki qutqardi xirad vasvosidin.  
Fosh mehri tuxmini ko'nglumda ektim, ko'r nishon,  
Har so'ngak yonimda urmoqqa muhabbat dosidin.  
Urmag'aysen posbonlng' lofi ko'k qo'rg'onida,  
Voqif o'lsang, ey ajal, hajrim tuni bir posidin.  
Qilmag'il bu korgah vasfig'a fikru boda ich  
Kim, xirad idroki ojizdur aning ehsosidin.  
Ey Navoiy, piri soqiyvashqa andoq men xarob  
Kim, unutmishmen jahon tarxon ila barlosidin.

467

Ey musulmonlar, fig'on ishq baloangezdin,  
Ohu vovaylo balolig' furqati xunrezdin.  
Qayda faryodim eshitkay ulki, ko'yi kam emas,  
Xalq afg'oni bila g'avg'oi rustoxezdin.  
Gul yuziga xo'y tushub, lalig'a ko'nglum qildi zaf,  
Bo'ylakim zaf aylamish qandi gulob omezdin.  
Ko'nglim ichra gulsitoni husnidur, ey bog'bon,  
Kelki, ohim farqi yo'qtur nafhai gulbezdin.

Ahli din qatlig'a mundoq chiqsa mast ul mug'bacha,  
Soqiyo, may berki, kechtim taqvoyu parhezdin.  
Ishq o'ti mazlunkushdur, bilmas ani ahli zulm,  
Anglag'il bu nuktani Farhod ila Parvezdin.  
Ey Navoiy, itlarin ko'rmakka borsang, bag'ring uz,  
Kim guziring yo'qturur bu nav dastovezdin.  
468

Dameki ishq o'tida qolmag'ay asar mendin,  
Namuna bo'lg'usi uchmakda har sharar mendin.  
Pariyvashim g'amidin telba itdek o'lmishmen,  
Salomat ahli, bukun aylangiz hazar mendin.  
Aningdek ashk ila ohim solibturur to'fon  
Ki, bordurur yeru ko'k vazig'a xatar mendin.  
Aningdek o'ldi fano ishq aro vujudumkim,  
Adam diyorida ham topmog'ung xabar mendin.  
Anga yetarga boshoq saqli man etar garchi,  
Xadangi kasratidin chiqti bolu par mendin.  
Taayunot ichida ishq bnr haqiqat erur,  
Gar o'lsa bulbulu parvonadin va gar mendin.  
Navoiy, aylama tun-kun nishotu talim ol,  
Shabona oh bila nolai sahar mendin.  
469

Har kishi bayram sabohi shodu men g'amnokmen,  
Iydgoh ichra ayog' ostidag'i xoshokmen.  
Garchi el bayram sabohi shodmondurlar, valek  
Sog'inurmen barcha g'amgindur, chu men g'amnokmen.  
Oh dudi birla toju ashk qonidin libos,  
Ul qora, bu ol, ul yanglig'kim, bu bebokmen.  
Qavsang o'lingdin, yonarda demagil kohil meni,  
Qo'y inoningda yugurmak, ko'rki, ne cholokmen.  
Borma mahvashlar tamoshosig'a dersen men kebi,  
Zohido qilding gumonkim, muncha beidrokmen.  
Toki qildim raz suyidin tarki hush, ey bog'bon,  
Xam bo'lub, qo'l har taraf solg'an nachukkim tokmen.  
Ey Navoiy, fayzdin anfosim o'lmish ruhbaxsh,  
To Masihodek aloyiq zulmatidin pokmen.  
470

Qadni ul xurshid ayog'inda agar dol etkamen,  
Jilvasig'a zulf yanglig' o'zni pomol etkamen.  
Xoldek yuzum qora, gar to'yg'amen ruxsordin,  
Gar ko'zumnung mardumin ruxsorig'a xol etkamen,  
Ul pariy paykarga forig'bol yetmak istabon,  
Tunu kun tengridin istido paru bol etkamen.  
Har kecha holim xarob o'lg'anda, yolg'on tush bila,  
Vadai vasl aylab, andin o'zni xushhol etkamen.  
Gar desamkim, ko'yi tufrog'in aylay ko'z halqasin  
Ming teshukluk pardai jon birla g'arbol etkamen.  
Bodani bo'g'zumg'a quyg'aysen yiqib, ey mug'bacha,  
Gar icharda tavba uzri birla ihmol etkamen.  
Rishta jismingdin, somon sarig' yuzungdin chirmayin,  
Ey Navoiy, nomakim ul oyg'a irsol etkamen.  
471

Bilgasen, chekmas kishi dardu balo andoqki men,  
Gar birovga muftalo bo'lsang, sanga andoqki men.  
Ishq dardig'a davokim vasl debsen, ey hakim,  
Bu balog'a kimsa ermas muftalo andoqki men.  
Uylakim, yo'q sen kebi husn ahli ichra bir pariy,  
Yo'qturur bir telba ahln ishq aro andoqki men.  
Eyki qo'ymaysen, tanimni tuma qilgay itlaring,  
Itlaringga jonni kim qildi fido andoqki men?!  
Ey Navoiy, fayzdin anfosim o'lmish ruhbaxsh,  
To Masihodek aloyiq zulmatidin pokmen.  
470

Qadni ul xurshid ayog'inda agar dol etkamen,  
Jilvasig'a zulf yanglig' o'zni pomol etkamen.  
Xoldek yuzum qora, gar to'yg'amen ruxsoridin,  
Gar ko'zumnung mardumin ruxsorig'a xol etkamen.  
Ul pariy paykarga forig'bol yetmak istabon,  
Tunu kun tengridin istido paru bol etkamen.  
Har kecha holim xarob o'lg'anda, yolg'on tush bila,  
Vadai vasl aylab, andin o'zni xushhol etkamen.  
Gar desamkim, ko'yi tufrog'in aylay ko'z halqasin  
Ming teshukluk pardai jon birla g'arbol etkamen.  
Bodani bo'g'zung'a quyg'aysen yiqib, ey mug'bacha,  
Gar icharda tavba uzri birla ihmol etkamen.  
Rishta jismingdin, somon sarig' yuzungdin chirmayin,  
Ey Navoiy, nomakim ul oyg'a irsol etkamen.  
471

Bilgasen, chekmas kishi dardu balo andoqki men,  
Gar birovga muftalo bo'lsang, sanga andoqki men.  
Ishq dardig'a davokim vasl debsen, ey hakim,  
Bu balog'a kimsa ermas muftalo andoqki men.  
Uylakim, yo'q sen kebi husn ahli ichra bir pariy,  
Yo'qturur bir telba ahli ishq aro andoqki men.  
Eyki qo'yaysen, tanimnn tuma qilg'ay itlaring,  
Itlaringga jonin kim qildi fido andoqki men?!  
Garchi o'lturdung jafu birla meni, lekin tilab,  
Topmog'ung davronda bir ahli vafo andoqki men.  
Yo'qturur davron jafosidin qutulmoq, ey rafiq,  
Tutmasang mayxonaning kunjini to andoqki men.  
Ey Navoiy, gar berur husni zakotin yo'q kishi,  
Xastaye zore g'aribiy benavo andoqki men.  
472

Yorab, anglabmu ekin ul oykim, aning zorimen,  
Kechalar savdosidin andoqki zulfi torimen.  
Sihhatim bo'lsa, topibmen lali yodidin shifo,  
Notavon ham bo'lsam, aning ko'zlari bemorimen.  
Yo'qturur haddim demakka yornmen yoxud iti,  
Itlariga har kishi yor, ul kishining yorimen.  
Xo'blar ushshoqig'a jon bersalar, ul qilsa qatl,  
Har sari yuzlansa ishq ahli, men aning sorimen.  
Istasa el jonini, bilmon berur-bermaslarin,  
Bo'lsa yuz jon ham, anga borin berurmen borimen.  
Jilva aylab mast, to ko'nglumni oldi mug'bacha,  
Dayr piri itlari silkida xidmatkorimen.  
Hajrdin to notavon jonimni qutqardi ajal,  
Ey Navoiy, anglakim, jon birla minnatdorimen.  
473

Yuz jafu, tong yo'q, gar ul nomehribondin ko'rgamen,  
Kim vafo ko'rmish biravdinkim, men andin ko'rgamen.  
Kimsa abnoyi zamondin ko'rdimu hargiz vafo  
Kim, men ul xunrezu oshubi zamondin ko'rgamen.  
Qo'yki, itdek telba ko'nglum necha mehnat, ey rafiq,  
Har dam ul ovorayi bexonumondin ko'rgamen.  
O'zgalar lutfin netaykim, jonima orom erur,  
Javru bedodikim, ul oromi jondin ko'rgamen.  
Nozaninlar jilvagohi ichra har yon telmurur  
Ko'zlarimkim, ul sumanbarni qayondin ko'rgamen.  
Yeru ko'knii ashku ohim saylu dudi qildi gum,  
Necha ranju mehnat ul ikki yomondin ko'rgamen.  
Dema ul oy orazin ko'rsang, urar boshing'g'a tig',  
Har balo kelsa boshing'g'a osmondin, ko'rgamen.  
Xirqayu sajjodani qilsam fano dayrida rahn,  
Ikki olam sudini mundoq ziyondin ko'rgamen.  
Ey Navoiy, so'rmag'ilkim, qilmag'umdur oshkor,  
Yuz nihoniy dardu mehnatkim, falondin ko'rgamen.  
474



Telba ko'nglum javridin andoq parishonholmen  
Kim, aning bedodining sharhin demakdin lolmen.  
G'am sipohi chun hujum aylar aning to'sh-to'shidin,  
Holig'a rahm aylabon, g'am xaylig'a pomolmen.  
Gohi majnunvashlig'i birla bo'lurmen muztarib,  
Goh behol o'lmag'idin zaf aro beholmen.  
Zaf holingg'a necha rahm aylagaymen, ey ko'ngul,  
Sen dog'i rahm etki, men ham bas zaf ahvolmen.  
Ishq aro gohi bo'lurmen zor mo'yangdin chu mo'y,  
Furqat ichra goh nolangdin nachukkim, nolmen.  
Kosh itsang, uylakim nomu nishoning topmasam,  
To desam ishq anduhidin emdi forig'bolmen.  
Ey Navoiy, necha dermen ishq tarkin aylayin,  
Chun ish ishga yetti, aylarmen yana ehmolmen.  
475

Hajr shomidin qorong'uroq tun o'lg'aymu ekin,  
Yo rab, ul tundin xalos o'lg'an kun o'lg'aymu ekin?!  
Barq yanglig' olam o'rtar lamai shomi firoq,  
Do'zaxi hijron chiqarg'an uchqun o'lg'aymu ekpn?  
Ko'yida itlar izi ruxsorima bo'ldi baho,  
Mundin oyo qimmatiroq oltun o'lg'aymu ekin?  
Subh furqat bir balo daryosi buzdi xalqni,  
Shomi hijronimda yog'qon shudrun o'lg'aymu ekin?  
Gul masallik toza qonlig' dog'lar birla tanim,  
Dard bog'ida ochilg'an gulbun o'lg'aymu ekin?  
Tiyir boroni firoq ahhob jonidin o'tar,  
Hech yomg'ur mundin, oyo, o'tkun o'lg'aymu ekin?  
Bog' aro gullarga o't soldi Navoiy nolasi,  
Benavo bulbulg'a, vah, mundoq un o'lg'aymu ekin?!  
476

Bu kecha hajr kuni shomi qiyrgunimu erkin,  
Yo'q ersa sab g'amim do'zaxi tutunimu erkin?  
Chu shayx xirqasig'a ruqa tikti, jismi tutashti,  
Samum hullasidek ko'nglagim yurunimu erkin?  
Firoq dashtida itkan ko'ngul yelib chiqa olmas,  
Aning bu vodi aro g'ul rahnamunimu erkin?  
Ko'zum uyiniki sayli sirishk buzdi, yiqilmas  
Qading xayoli bu vayronaning sutunimu erkin?  
Bu o'tki telba ko'ngulni pariy xayoliga solmish,  
Yuzung shioimu yo shulai jununimu erkin?  
Biravki kasbi fano qildi, ko'kka qo'ydi qadamni,  
Bumu zabun anga yo ul munung zabunimu erkin?  
Navoiy ozdi esidin, chu kettin jismiga ko'p nal,  
Talab yo'lining alar nali bozgunimu erkin?  
477

Demangiz kelmish alam sihat ketib, yor ilgidin  
Kim, manga ham yuz alamdur ul jafokor ilgidin.  
To ilik bo'ynig'a osti yuz duoyu hirz ila,  
Surtubon yuzni musharraf bo'ldi, tumor ilgidin.  
Zor ko'nglum ilgida, ozor ham ilgidatur,  
Bedavo ozorini kasb etti bu zor ilgidin.  
Kosh jonimni aning ilgiga qilg'aymen fido,  
Jong'a har ne bo'lsa bo'lgay, bori dildor ilgidin.  
Dardini minnat tutub, jonimga aylarmen qabul,  
Anglasamkim, kam bo'lur bir zarra ozor nlgndin.  
Boda olg'ach, titratur har subh ilgimni xumor,  
Ichmasam ikki labolab jom xammor ilgidin.  
Ey Navoiy, ko'nglum ilgidin chekarmen yuz balo,  
Tuxmat aylarmenkn, bor ul moh ruxsor ilgidin.  
478

Garchi ul mahvash jafu aylar, taammul qilmayin,  
Chunkn oshiqmen, vedur choram tahammul qilmanin.  
Hajr biymin anglabon aylar ko'ngul vaslida maks,  
Qatl uchun elturda el bormas, taallul qilmayin.

Og'zin anglarda belnn ko'nglumda aylarmen xayol,  
Xurdadon bo'lmas kishi, nozuk taxayyul qilmayin.  
Ishq sirrin gar bayon aylar esam, ey piri aql,  
Etiroz etma, hadisimni taaqqul qilmayin.  
Vah, necha qon yutqamenkim, soqiyi davron manga  
Chun yetar har davr aro, o'tmas tag'oful qilmayin.  
Foniy o'l, faqr istar ersangkim, erur maqsad muhol,  
Yo'lga chun qo'ygay qadam rahrav, tavakkul qilmayin.  
Ey Navoiy, shart qildimkim, agar bo'lsam xalos,  
Ishqidin o'zga bu ish zikrini bikull qilmayin.

479

O'rtama ko'nglumni komin hosil etmastin burun,  
Qushni kim biryon etibtur, bismil etmastin burun.  
Jism aro ishqing vatan qilmay, hanuz oldi ko'ngul,  
O't yoqar yer topti uyni manzil etmastin burun.  
Oshiq o'ldum, jonim osonlig' bila ol, ey ajal,  
Ishq dardi jong'a ishni mushkul etmastin burun.  
Ey ko'ngul, yor ochti yuz, hijronda o'lmak sab erur,  
Jon fido qil yuzga burqa hoyil etmastin burun.  
Pandlar berdi xirad ko'nglumga, yuz shukr, ey pariy,  
Telba qilding nosih ani oqil etmastin burun.  
Foniy o'lsun kim baqoyi jovidon istar ani  
Foniy o'lg'anlarg'a davron doxil etmastin burun.  
Ey Navoiy, g'ayr naqshidin orit ko'nglungnikim,  
Fayz mumkin ermas, o'zni qobil etmastin burun.

480

Yorumas shami jamoling, rishtai jon o'rtabon,  
Furqating dardi kam o'lmas, dog'i hijron o'rtabon.  
Ko'ngluma o't, boshima solding qilich, ammo ne sud,  
Oshkoro urmag'ing su, uyni pinhon o'rtabon.  
Barqe kulmak birla kuydirgan kebi jismim xasin,  
Ohkim, kul qildi gul gulbargi xandon o'rtabon.  
Xayli ishqing har so'ngakni tanda biryon o'rtadi,  
Korvon yoqqondek o't, xaslarni har yon o'rtabon.  
O'qlarin o'rtab tanimda, to'kti ko'nglum qonini,  
Turfa saydi ayladi bismil, nayiston o'rtabon.  
Soqiyoy, sol otashin laling bila bir o't manga  
Kim, ko'ngulga shula solsun, jonni oson o'rtabon.  
To Navoiydek bo'lay ozod o'zluk mulkida,  
Har nenikim o'rtamaklik bo'lg'ay imkon o'rtabon.

481

El g'amimdin kuymasun deb, nolai zor aylamon,  
Dardi holimning mingidin birni izhor aylamon.  
Yo'qsa yo'qtur hech soatkim, fig'oni zor ila,  
Yuz tuman ming bag'ri toshning ko'nglini zor aylamon.  
Turfa bukim, tortibon yuz muncha do'zax shulasi,  
Yor ko'nglin bu haroratdin xabardor aylamon.  
Turfaroq bukim, fig'onimdin uyumay dahr eli,  
Uyquluq baxtim ko'zin bir lahza bedor aylamon.  
Ishq aro men o'zga, Farhod o'zgardur, ey do'stlar,  
Teshai g'am birla men tog' bag'rin afgor aylamon.  
Soqiyoy, andoq sabuh istar ko'ngulkim, bersa dast,  
To qiyomat subhi andin o'zni hushyor aylamon.  
Ey Navoiy, sudrab eltur boda birla mug'bacha,  
Ixtiyorim birla azmi ko'yi xammor aylamon.

482

Qatra terlardin yuzinda dur nishonimu deyin,  
Yo takallum vaqti lali durfishoninmu deyin?  
Og'zidin jismim adam bo'lmag'lig'inmu sharh etay,  
G'uncha yanglig' tah-batah ko'nglumda qoninmu deyin?  
Tan firoqinmu desun, jon ishtiyoqinmu desun,  
Men xayoli tan guzori jonsitoninmu deyin?  
Eyki, dersen nuktai ishqu junun ahlidin ayt,  
O'z fasonam, yo'qsa Majnun dostoninmu deyin?

Soqiyo, ko'nglumda may hirsin ko'rub, so'rdung sabab,  
Hajri dardin yo xumori begaroninmu deyin?  
Charxdin qilsam shikoyat so'rmang, ey xalqi zamon,  
Xalqning javrinmu, oshubi zamoninmu deyin?  
Qolg'ali shomi firoq ichra Navoiy shamdek,  
Kuymakinmu aytayin, ashki ravoninmu deyin?  
483

G'am tuni laling surudi hajr der men zor uchun,  
Chun ajal yetti - Masiho zahr ezar bemor uchun.  
Ko'zki uchqan chog'da ustiga yopishturdum somon,  
Nomabar qushdurki, sarig' ruqa eltur yor uchun.  
Orazing shavqidakim, ashkim to'kar ko'z mardumi,  
Bog'bon yanglig'dururkim, su ochar gulzor uchun.  
Ko'yi tufrog'in meniig diydang'a sol, ey tong yeli  
Kim, erur ul surma loyiq diydai bedor uchun.  
Chun yiqildi zafdin jismim uyi, naylay, aso  
Kim qilibtur sarvi pushtibon yiqug' devor uchun?!  
Umr naqdig'a imorat aylang, ey dayr ahlikim,  
Vaqfi jon mulkin qilibmen kulbai xammor uchun.  
Gar Navoiy, hajr dashtidin o'ta olmas, ne tong,  
Yo'l yuruy olmas kafi g'am toshidin afgor uchun.  
484

Necha ashkimdin manga, ey ishq bedod etkasen,  
Ohdin jismim xasin har lahza barbod etkasen.  
Elga dilbar iltifotidin meni aylab g'amin,  
Elni bo'lg'andin manga nomultafit shod etkasen.  
Menkim o'ldum, g'amda jon bermak manga talim etib,  
Ulki qotildur, anga o'lturmak irshod etkasen.  
Ey ko'ngul, bergaysen elga suri nafxidin xabar,  
Aylab ohingdin qiyomat, chunki faryod etkasen.  
Har zamon ishqing chu yuz ming qatlig'a qoni emas,  
Furqatingdin yo'qturur hojatki, imdod etkasen.  
Ishqdinkim jonima yuz gul ochilmish, ey hakim,  
Jahl erur,gar nomiya ruhig'a isnod etkasen.  
Uyla mahv o'lmish Navoiy xotiringdin, ey pariy  
Kim, unutub, shoyad ul devonani yod etkasen.  
485

Yer holidin manga, vahkim, xabar yo'qtur bu kun,  
Bu jihatdin aqlu hushumdin asar yo'qtur bu kun.  
Subh selobi sirishkim oqti ko'p, ey do'stlar,  
Pand uchun kelmangkim, ul sudin guzar yo'qtur bu kun.  
Kecha gar bag'rim bo'lub qon oqti ko'zdin, g'am emas,  
G'am budurkim, itlariga mohazar yo'qtur bu kun.  
Men bukun o'lgach, aning ko'yiga to'ldi xalqkim,  
Ashku ohim saylu barqidin zarar yo'qtur bu kun.  
Vadai vaslini tongla demagilkim, umrg'a,  
Etimodim hajr shomi to sahar yo'qtur bu kun.  
Ichmagum, ey dayr piri, jomi may, ul mug'bacha  
May tutarg'a bazmi aysh ichra agar yo'qtur bu kun.  
O'zluvin chun soldi o'lgan kun Navoiy boshidin,  
Bu jihatdindur anga gar dardisar yo'qtur bu kun.  
486

Ko'zlarim ko'r et, ko'ngulga dog'i hijrondin burun  
Kim, bu ikki kuydurubturlar meni andin burun.  
Garchi ko'ptur oshiqing, lekin yuz ochsang, kimsaning  
O'lmaki mumkin emas men zori hayrondin burun.  
Ashk ila dersen buzay ko'nglungni, ey ko'z, lek ishq  
Yer bila teng qilmish ani sayli mujgondin burun.  
Kel-kel, ey jonu ko'ngul oromikim, bo'lmoq fidong,  
Jon ko'nguldin burnaroq istar, ko'ngul jondin burun.  
Sofi vasling borida tutma desam durdi firoq,  
Derki, zahr ichmaklik avlo obi hayvondin burun.  
Gar sanga yo'qtur vafo, husnung'a ham yo'qtur vafo,  
Bas g'animat bil vafo, bo'lmoq pushaymondin burun.

Ey Navoiy, yetkay ul oyg'a fig'onim der edim,  
Ohkim, to ochti yuz - jon yetti afg'ondin burun.  
487

Yuzung subhida xoling nuqtayedur, subh aro bo'lg'an,  
Yo'q ersa ko'rmaduk tong yulduzin hargiz qoro bo'lg'an.  
Xato bo'lmas ko'nguldin xud o'qung, ammo tilar ko'nglum  
Ki, ham tekkay anga, har sari otqandin xato bo'lg'an.  
Ne bilgay kirpiku qoshing g'amin bir shastig'a mag'rur  
Ki, bilgay bir meningdek ohi novak, qaddi yo bo'lg'an.  
Birovkim otashin laling uza xoling ko'rar - anglar  
Ki, o'tlug' jonima ushbu qarog'imdur balo bo'lg'an.  
Davoyi ishq erur yo vasl, yo marg, ul emas mumkin  
Bu birdur, kimsa topilsa, bu dardig'a davo bo'lg'an.  
Tomug' o'tin og'izg'a olmag'aysen, voizo, bir dam,  
Sanga bo'lsa firoqim ohidin, yillar mango bo'lg'an.  
Qadah doir qil, ey soqiyki, bu topmish iloju bas,  
Bu foniyl dayr aro davron g'amig'a muftalo bo'lg'an.  
Butu zunnor mug'anniysin ne bilgay xonaqah ahli  
Ki, andin ramz so'rgay sokini dayri fano bo'lg'an.  
Ne tong ming til bila afg'oning, ey bulbulki, sendursen  
Bu gulshanda Navoiydek asiru benavo bo'lg'an.  
488

Buki ko'nglum yarasidin oqadur, qonmu ekin?  
Yo qizarib erigan su kebi paykonmu ekin.  
Ul xatu labki berur ko'zga safo, jong'a hayot,  
Sabzai jannat aro chashmai hayvonmu ekin?  
Husn xoni arokim, yoydi qazo yuzu labing,  
Qursi xurshid bila lali namakdonmu ekin?  
G'uncha og'zig'amu gulshanda yog'ibtur jola,  
Yo jamoling guli ichra labi xandonmu ekin?  
Yor der: ko'zni yuzumdin nega bot olmassen,  
Do'stlar, tengri uchun deng: bu ish osonmu ekii?  
Yor javriyu ulus zulmi, falak bedodi,  
Manga yolg'uzmu ekin, barchag'a yaksonmu ekin?  
Ey Navoiy, el aro fitnadur ul kofirg'a,  
Azmi maydonmu ekin, mayli xiyobonmu ekin.  
489

Ko'z bog'ida gul ekmisham ul yuz xayolidin,  
Vojibdurur ko'zumga su bermak jamolidin.  
O'ptum labin yuz ochqach, erur turfa ko'rmakim,  
Gul birla meva bir yo'li ul qad niholidin.  
Ruxsori ko'zqusiga, ko'zum mardumig'a aks,  
Fahm ayladim biaynihi ul yuzda xolidin.  
Jonim gadolig' etti bir o'pmak, vale labing  
Bersa javob koshki aning savolidin.  
Ro'yyat chog'i biyik daraja birla yangi oy  
Ko'rди nazzora ahli qoshingning hilolidin.  
Zohidki, qildi mastlig'im ayb, ayilmag'ay,  
Bir dam su ichsa, maykada sing'an safolidin.  
Faryod ila Navoiy aning vaslin istamish,  
Faryod, aning bu nav xayoli muholidin!  
490

Bir musofirda ko'rub timsolini, bechoramen,  
Topqali ani jahon mulki aro ovoramen.  
Dema, zafingdin kachon ko'z yumg'assi, kel so'rg'ali  
Kim, turubmen muntazir, mavqufi bir nazzoramen.  
Eyki so'rdungkim: qachondin telbasen, andin beri  
Kim, nihoni zor ul sho'xi pariy ruxsoramen.  
Munchakim javrig'a men to'zdum, emasmen odame,  
Go'yiyo tufrog'men, zulmida balkim xoramen.  
Deb etmish: kim aning boshin ketursa, lutf etay,  
Boshim olib iynak ul qotilni istay boramen.  
Dasht yo tog' ichra o'lgan topqunguz bir kun meni,  
Buylakim Majnun bila Farhodqa hamkoramen.

Chun kishilikdik chiqarmishdur meni ishq junun,  
Ey Navoiy, bas ajabdurkim, xaloyiq oramen.  
491

Uyga kelmish, deb xabarlar aytibon jononadin,  
Mast elturlar bu nav aldab meni mayxonadin.  
Bo'lmasam loyaqilu mundoq libosot o'lmasa,  
Tushmakim ayru ne mumkin sog'aru paymonadin.  
Istamang Farhodu Majnun tavrini mendinki, xalq  
Qilmamish ahli xirad rasmin talab devonadin.  
Ishq mulkida ulug' hangoma tuzgay ahli dard,  
Aylagan bir doston zoxir bizning afsonadin.  
Bo'lmish ul begonavash begonalarg'a oshno,  
Oshnolig'lar isi topsam, ne tong, begonadin.  
Orazu xoling giriftori esa ko'nglum, ne ayb  
Kim, guziri yo'qtur ul qushning bu obu donadin.  
Bu kuhan dayr ichra kim topsa rafiqu sog'are,  
Odam ermas, tashqari qo'ysa qadam vayronadin.  
Sarv qadlar sadqasi bo'lg'ang'a o'rtanmakdur ish,  
Ravshan et bu mojaroni sham ila parvonadin.  
Xorlig' gardi aro botib, havodis toshining,  
Vahmidin har dam chiqa olmon buzug' koshonadin.  
Himmating bor esa, dunyo sho'xidin ozod bo'l,  
Shohidi makkora mayli xo'b emas farzonadin.  
Kim Navoiyni qilur g'oyib, topar mayxonada,  
Goh dudi ohu gohi narai mastonadin.  
492

Ishq aynidin ko'zumni qilmadi yoruq jahon,  
Ne uchunkim Qof tog'i ostida erdim nihon.  
Qof tog'i ostig'a qolg'an o'luk tufrog'ni,  
Ne qadar ayni anodin qutqara olg'ay jahon?  
Vahki, to kirdim jahon bog'ig'a maxlas topmadim,  
Lahzaye yuz Qofcha dard ostidin men notavon.  
Dushmanimdin ne balolar yetmish o'lg'ay jonima,  
Do'stdin menkim, jahonda ko'rmadim juz qasdi jon.  
Anikim jonu jahonim der edim, jonig'a aysh  
Yo'q jahonda onchakim olg'ay mening jonim ravon.  
Muncha bedod oncha ermaskim, meni maxjur etib,  
Muddailar vaslidin topqay hayoti jovidon.  
Soqiyo, jonim fidong o'lsun, tutub bir jomi may,  
Yuz tuman anduhdin jonimni qutqar bir zamon.  
Boribon ahbobu men g'aflat asiri bo'lmag'im,  
Uyladurkim, it uyub qoldiyu ko'chti korvon.  
Ey Navoiy, ish qila olur chog'ingda qilmading,  
Chun qariding, ne osig' hasrat bila ohu fig'on.  
493

Ko'ngul, qayg'urmakim, dashti fanog'a borg'udekturmen,  
Ham o'zni, ham seni hajr ilgidin qutqarg'udekturmen.  
Siyosatgohi ishq ichra fano jallodi chekkach tig',  
Ayog'ig'a tushub tajil uchun yoborg'udekturmen.  
Balo bazmida soqiyi ajal jomi fano tutsa,  
Tag'or o'lsunki, og'zimg'a quyub sipqarg'udekturmen.  
Firoq anduhi o'ti dudidin ko'nglum uyi to'lmish,  
Aning dafi uchun ko'ksumni har dam yorg'udekturmen.  
Bu yanglig'kim, fano dashtida yuzlandim, to'yib jondin,  
Masiho bo'lsa yo'ldoshim, ani qaytarg'udekturmen.  
Bu yanglig'kim, oqar g'am shomi bag'rimdin shafaqqun qon,  
Saharg'a tegru subhi hajrdek sarg'arg'udekturmen.  
Munungdekkim, fano dayrida tutti mug'bacha sog'ar,  
Navoiy voqif o'lg'inkim, o'zumdin borg'udekturmen.  
494

Bo'ldi shomu qildi jonimg'a jafu bunyodi tun  
Kim erur oshiqлару bemorlar jallodi tun.  
Tush ko'rub, bir kun qiyomatni bo'lub erdi unut,  
Berdi hajringda meni mahzung'a ul kun yodi tun.

Men tirik qolmoq edi hijron tuni behad muhol,  
Xossakim, qatlim uchun qildi aniig imdodi tun.  
Kahkashon domida anjum donasin sochmoq nedur,  
Gar emas o'lturgali umrum qushi sayyodi tun.  
Dedilar, hijron tunidin so'ngra subhi vasl erur,  
Naylayinkim, subhg'a tegru tirik qo'ymadi tun.  
Bu chamanda demangiz shabxez qushlar nolasi  
Kim, erur ushshoqi mahzun oh ila faryodi tun.  
Hajr shomi gar Navoiy jonin oldi, tong emas  
Kim, erur ahli baliyat qatlining mutodi tun.

495

Bahor andoqki bulbul guluzori toza istarmen  
Ki, ul gulbong ila o'zni baland ovoza istarmen.  
Chu ul gul toza-toza o't solur ko'nglum aro, men ham  
Ul o'tdin ko'kragim dog'ini toza-toza istarmen.  
Chu yo'q andoza ishqim birla shavqimg'a, ul oyni ham,  
Jamolu mehr oyinida beandoza istarmen.  
Eritsam gar ko'ngul choki uchun paykonlaring, tong yo'q  
Temurdin chun hisori dard uchun darvoza istarmen.  
Uzori shavqi tig'idin o'lub qonlig' kafan birla,  
Aning har xoridin huro yuziga g'ozza istarmen.  
Firoqing ichra rozimen falak jismim uyin yiqsa,  
Xilofi odat uy vayron qilurg'a roza istarmen.  
Navoiy nazmining avroqi zulfungdin parishondur,  
Aning jildig'a sunbul toridin sheroza istarmen.

496

Voykim, dushvorroqdur mehnati ayyomdin,  
Subhim o'tkan subhdin, shomim ham o'tkan shomdin.  
Vaslidin yo'q komu hijronda ne umr o'lg'ay bukim,  
Bir o'lar jon minnatin chekmak kerak nokomdin.  
Sabrdnn yo'q muztarib ovora ko'nglumga asar,  
Ul sifatkim, dasht paymo jismima oromdin.  
Tiyar boroni balokim, paykarimg'a yog'di, ruh  
Qochti andin uyla qushdekkim, qutulg'ay domdin.  
Hech ish sarvi gulandomimg'a beandom emas,  
G'ayri javru zulmikim, xoriydurur andomdin.  
Jomdin bizga g'araz may ichra dilbar aksidur,  
Yo'qsa o'z aksi ham aylar jilva xoli jomdin.  
Ey Navoiy, necha zafing yozib ul bazl aylagay,  
O'lmaguncha ish ochilmas ishq aro payg'omdin.

497

Ne bahor o'lg'ayki, nolam rad erur, ashkim yog'in,  
Barq der ko'rgan jahon ichra damim o't solmog'in.  
Notavon boshimga yog'durmoqdin o'zga qasdi yo'q,  
Sarsari ofat uchursa hajr ko'yi tufrog'in.  
Charx uza ermas shihob, ul ham bir oy hijronida,  
Resh qildi, tortibon ko'ksiga axtar tirnog'in.  
Sog'inib ko'yungda o'lgan itlaringni sen unut,  
Men unut bo'lg'anni ham ul o'lgan itlardin sog'in.  
Yo'qki ul xurshiddin, xurshid andin kuymasun,  
Derki, bir yondin solur chobuksuvorim qolpog'in.  
Ul anokim, bor edi farzandi sendek durri pok,  
Yub edi erkin sadafdek lavslardin qursog'in.  
Tavbayu taqvo qarig'an elga bo'ldi lozima,  
Ey yigit, bilgil g'animat ishq majnunlug' chog'in.  
Arsh parvoz o'ldi kirgan jannati axloq aro,  
Ey xush ulkim, topti ul xushxo'ylikning uchmog'in.  
Gar Navoiy soyir erdi hajrdin g'am tog'ida,  
Tebrana olmas, chu hajr egniga qo'ydi g'am tog'in.

498

Chu yor ko'nglaki chokin nazzora aylarmen,  
Yaqoning o'rnig'a ko'ksumni pora aylarmen.  
Raqib bazmida maxsus bo'ldi, men mardud  
Topib panoh yiroqtin nazzora aylarmen.

Ne anjumandaki ul bo'ldi, el tafarruj etib,  
Men elga daldalab, andin kanora aylarmen.  
Chu xo'yi nozuk erur, topmanam ilojin aning,  
Qoshiga borg'ali har necha chora aylarmen.  
Ko'runmas oxiri holida juz pushaymonlig',  
Chu ishq tarki uchun istixora aylarmen.  
Darig'u dardki, ahhobdin biri yo'qtur,  
Necha tafakkur ilakim shumora aylarmen.  
Navoiy o'ldi aning ishqini yoshurmaqdin,  
Ne bo'lsa bo'lsun, ani oshkora aylarmen.  
499

Biravdurur manga matlub dilrabolardin  
Ki, ani jonima tanlabmen ul balolardin.  
Itik qora-qora mujgon tikildi bag'ring'a,  
Manga bu foyda yetdi ko'zi qorolardin.  
Ko'zum firoqida ko'nglum yarolari kebidur  
Ki, qon tarashshuh etar tinmay ul yarolardin.  
So'rung mening dog'i ovora telba ko'nglumni,  
Kishi xabar desa ko'yida muhtalolardin.  
Yana junun bila ishqim fasonasin demangiz  
Ki, men malul bo'lubmen bu mojarolardin.  
Qarib anosiru aflok tug'madi farzand,  
Bizing yigit kebi andoq ato-anolardin.  
Zamona ahli vafosizdur, ey zamon ahli,  
Zamone xush bo'lingu yod qilmang olardin.  
Iloji zafim erur bir qadah may, ey soqiy,  
Ki, noumid bo'lubmen bori davolardin.  
Gadolig' etti Navoiy aning visolini, lek  
Shah etsa or, ne tong, benavo gadolardin.  
500

Xarob erdim agar yori sitamkorim jafosidin,  
O'larmen bu zamon yori vafodorim azosidin.  
Biri javri qazodur jonima, birga qazo yetti,  
Xalos ermas kishi har hol ila tengri qazosidin.  
Aning hajri dog'i muhlik, munung dardi dog'i qotil,  
Nechuk jon eltkaymen buyla ikki ish arosidin.  
Jafosidin munung charx etmasun bori meni mahrum,  
Agarchi ayladi mahjur ul birning vafosidin.  
Munung javru jafosi ro'zgorimni qora qildi,  
Bu mahzunni chiqarmay ro'zgor aning qorosidin.  
Aning hajri gar o'lturdi, bu birning vasli tirguzdi,  
Tirik bo'lsam chiqa olmon munung shukri adosidin.  
Tiriklik jonima bu ikki ishtin bir balo bo'ldi,  
Ajal, qutqar meni mundoq tiriklikning balosidin.  
Kishiga bo'lmasun bu nav ikki yorkim, o'lgay  
Birining ishtiyoqidin, birining ibtilosidin.  
Navoiy ishq tavrini ibtido qilg'andadur yuz hayf  
Ki, bir ham qilmading andisha bu ish intihosidin.  
501

Zulm tig'i qolmadi gardun boshimg'a urmag'an,  
Har tuki soyi jafu toshi bila sindurmag'an.  
Yuz o'lumcha bordurur ag'yor ila o'lturmag'i,  
Javri tig'idek yonimda bir zamon o'lturmag'an.  
Ko'rgach ani, notavon ko'nglumni uzdi iztirob,  
Do'stlar, mundoq ko'ngulni kimdurur oldurmag'an.  
Borsa ashkim yer quyi, ne vajh ila istay ani,  
Men ko'zumda asrabon, mundoq vatanda turmag'an.  
Bir pariy ishqinda mendek bo'lsa rasvo, tong emas,  
Sirrini devonalig'din ko'nglida yoshurmag'an.  
Qoshidin ko'rsam jafu tong yo'qki, bu qavsi sipehr  
Hech kim jonig'a ermas javr yosin qurmag'an.  
Bu ko'han dayr ichra tinmasliqqa qolgay tunu kun,  
Xotirni yaxshi yomon savdosidin tindurmagan.  
Jonni jonon istasa - bergil, Navoiykim, emas  
Oshiqi sodiq nekim jonon tilar, topshurmag'an.

502

Kosh ko'nglumdin chiqarg'ay erdim ul oy ulfatin,  
Vasl ayyomida-o'q xo'y etkay erdim furqatin.  
Vaslini zikr etmagay erdi tilim, bal ishqini,  
Bilsam erdi hajrida bu nav ko'nglum holatin.  
Ko'rmamish bo'lsang yog'ochkim, bargin ol etmish xazon,  
Jismim uzra ko'r yangi qonlig' tugonlar hayatin.  
Tanda har yon hajr tig'i, zaxmi chektim, qilma chok,  
Jonning, ey tig'i ajal, yuz ming yamog'liq kisvatin.  
Tig' ila g'amgin ko'ngul o'tig'a taskin bermadi,  
Ohkim, tufroqqa elturmen ul su hasratin.  
Demagil uzr, ey mug'anniykim, unum topmish xarosh,  
Qir o'shul suhon ila ko'nglumdin anda suratin.  
Ey Navoiy, istasang kasb etmak oyini fano,  
Xonaqah shayxin qo'yub, qil dayr piri xidmatin.

503

Ishq ahli, sotqun, olsa izing to'tiyosidin,  
Qilg'il tarozu ikki ko'zumning qorosidin.  
Qoshingki juzv-juzvida bor qavs hayati,  
O'q yog'dururg'a jong'a otar barcha yosidin.  
Ko'rmak tilar yuzungni ko'ngul, kosh itlaring  
Yonimni tuma qilsa so'ngaklar orosidin.  
Ey noz, shami kokulung ermasksi, dud erur  
Kim, zohir o'ldi shulai husnung ziyosidin.  
Gar o'lturur habib muroding'a yetmayin,  
Istay desam hayot, Masiho davosidin.  
Mendek qul o'lg'an elga qo'yub tengri qullug'in,  
Mingdin bir ermas emgakim aning sazosisidin.  
Dam urma bu chamanda, Navoiyki, bir gule  
Bilmas zag'an fig'onini bulbul navosndin.

504

Kul o'lsa raxshi nali barqidin ishq ichra bir xirman,  
Vafo ahli ko'zi ul kuldin o'lg'ay surmadek ravshan.  
Xayoling har ko'ngulga kirgach, ani o'rtasang tong yo'q,  
Anga nevchunki o'tlug' ko'nglum otashgohidur maskan.  
Chu ko'nglum mazraida xirmani sabring'a o't solding,  
Yangi dog'im emas, qolmish qora o'rni kuyub xirman.  
Nihon ishqing agar qatlimg'a boisdur, bo'yinsundum,  
Kechar jon naqdidin ulkim, yoshurg'ay shoh uchun mahzan.  
Firoqing biymidin bir yerda yo'q g'am shomi oromim,  
Kecha yer ko'p yuvutkar kimki bor qasdida bir dushman.  
Boshinda savsani belbog' ila ul sarv etar jilva,  
Nazar aylang ochilg'an bog' aro ozoda qad savsan.  
Buzug' ko'nglumda ravzan bo'ldn tig'ing zaxmidin, yoxud  
Bu vayron uy, hamonkim ochilmishdur, emas ravzan.  
Sipehr o'lsa sanga markab, shafaq anjum bilan rangi,  
Ko'p ildam surmakim, sen mast erursen, abrashinng tavsan.  
Navo chek vasl gulzorida gul shavqidin, ey bulbul  
Ki, hijron bog'ida bo'lmish Navoiy shevasi shevan.

505

Borsang ol jonimni, to sensiz manga jon qolmasun,  
Jon qolib, jon ichra nogah dog'i hijron qolmasun.  
Chun o'larmen - chin deyin, ishq'i buzug' ko'nglumdadur,  
Men o'lub, ul ganj bu vayronda pinhon qolmasun.  
Ey ko'ngul, dey ko'zga bu damkim, tirikmen, kelsa yor,  
Orazidin bahra olsun, asru hayron qolmasun.  
Hajrida oncha balo yetkur manga, ey charxkim,  
O'zgalari ishqin havas qilmoqqa imkon qolmasun.  
Mujdai vaslin tilab, eykim, ko'nguldin hajr o'qin  
Tortasen, vah, oncha voqif bo'lki, paykon qolmasun.  
Dahr aro andoq maosh etgilki, sendin qolmasa  
Toat andoqkim, keraktur bori isyon qolmasun.  
Ey Navoiy, sobit o'lsun shoh G'oziy davlati,  
Ollida qul bo'lmag'an olamda sulton qolmasun.



Vov Harfining Vilohatafzoylarining Vaqoyei "Favoyiddin  
506

Tariqi ishq aro gar o'zni fard qilsa birov,  
Harif emas yeru ko'k, necha gar erurlar ikov.  
Ko'nguldin ayla mavolid maylini kam-kam,  
Bo'lurg'a fard mavonidururlar ushbu uchov.  
Desang falakka chiqay, foniy ul anosirdin,  
Nedinki, ruhungadur chormix bu to'rtov.  
Havosi xams ila maqsud bo'lmadi mudrik,  
Ko'ngulni top iki-uch uzv, besh emas bu beshov.  
Fanoiy mahz yetar "Sittai zaruriya  
Nedinki yo'qqa zarurat emas bu nav oltov.  
Xilofi shar agar yetti ko'kka chiqqungdur,  
Yaqinki, yetti tamug'din batardur ul yettov.  
Navoiyo, sekiz uchmoq havosidin kechgim,  
Bular mavoni erur, yor istar o'lsa birov.  
507

O't yolindek sen qachon chopsang samandi barqrav,  
Bir alam ul o'tqa boshing ustida gulgun yalav.  
Tortibon tig'i jafu, bag'rimni yuz chok ayladi,  
Bordi ulkim der edilar el meni bag'ri butav.  
Hullai kofurgun ul xilati xazro uza,  
Sabzai jannatqa go'yo tushti rahmatdin qirav.  
El inoni ixtiyori chiqqti yaksar ilgidin,  
Po'yada har sari ul chobukki qaytardi jilav.  
Xo'blar ichra birav ko'nglumni olmishkim, ani  
Mendin o'zga kimsa birla qilmag'il, yo rab, ikav.  
Tiyralar lutf aylabon tutmas safo ahli yerin,  
Yorig'an birla uchi, sham o'zini tutmas ko'sav.  
Gar Navoiy kilkidek el kilki shakkarrez emas,  
Ayb qilma, birdek o'lmas nayshakar birla g'arav.  
508

Yordin ayru may ichmak qindurur balkim og'u,  
Xoh og'zda talx su, xohi burunda sho'r su.  
Deb eding, ey hajr, yoring kelmasa jon bergasen.  
Chiqti jonim birga, vah, bu ikkidin vaqt o'ldimu.  
Istasam husnung zakotin, gar bo'lur moni raqib,  
Ne ajab, chun it bo'lur doim gado birla adu.  
Nevchun og'zingg'a yetar deb jomi gulgun dam-badam,  
Xasta ko'nglum g'unchadek qon bog'lanibtur to'-bato'.  
Menki, o'ldum ko'yida, ko'nglum o'tining dudidur,  
Zog'din qilmang gumon, qonlig' tanim uzra g'ulu.  
Zohidi xudbing'a xirqam zayli tegdi, ey rafiq,  
Olib egnimdin, fano dayri aro may birla yu.  
Ey Navoiy, ko'rgach ul qotilni, qo'ydung yerga bosh,  
Buyla bosh qo'yg'ach nafas tashvishidin forig' uyu.  
509

Ey sabo, ovvora ko'nglum istayu har yon boru,  
Vodiyu tog'u biyobonlarni bir-bir axtaru.  
Topako'r ani chu topsang, har qayon ozim esa,  
Boshig'a evrul quyundek, dog'i aldab qaytaru.  
Say etib kelur mening sari, vagar xud kelmasa,  
Ollida bedilligimning dostonin o'tkaru.  
Aytqilkim, sen xud itting, jon dog'i chiqmoqtadur.  
Boshima yetkur, vagar xud kelmas o'lsa, yolbaru.  
Olakel var bo'lsa Majnun shevayu beixtiyor,  
Qo'ymayin o'z ixtiyorig'a, bu sari boshqaru.  
Kelturub, chok aylabon ko'ksam, ani o'rnig'a sol,  
Meni bedillik baloyu mehnatidin qutqaru.  
Ushbu yanglig' istagil doim Navoiy ko'nglini  
Kim, gar andin yetmasa, haqdin sanga yetkay qoru.  
510

Yig'lamoq kam qilmadi bu diydai giryonda su,

Ikki arig' ayrilib ne o'ksugay Ummonda su.  
Yetmay el og'zig'a lali obdoring jon berur,  
Bu latofat birla yo'qtur chashmai hayvonda su.  
Ne ajab ko'rgach yuzung, ko'p oqsa yoshimkim, bo'lur  
Chashmalar ichra bahor ayyomida tug'yonda su.  
Har ko'zumdin goh su, gah qon oqar ko'yung aro,  
To'rt ariq oqqan masallik ravzai rizvonda su.  
Buzg'udektur charx uyin ashkim, hamono yo'q emish  
Nisficha olamni vayron aylagan to'fonda su.  
Jong'a shirindur o'qung, vah, nayshakardurmu nayi,  
Yo magar jon shirasidin bo'ldi ul paykonda su.  
Eyki dersen, lali serobimg'a ko'p labtashnasen,  
Mundin o'zga yo'q ishim, to bo'lg'usidur jonda su.  
Soqiyo, maxmurluq og'zim qurutmish, rahm etib,  
Boda gar yo'qtur, solib ber sog'ari davronda su.  
Shodlig' xayli, Navoiy ko'ngliga tushmay o'tung  
Kim, bu manzilning o'ti ko'ptur vale yo'q anda su.  
511

Soqiyo, men yutmag'an xunobi hijron qoldimu,  
Bermasang may, emdi qon yutmoqqa imkon qoldimu.  
Eyki, dersen, istasang vaslimni, jon qilg'il fido,  
Muni so'r avvalki, hajringdin manga jon qoldimu.  
Ishq maxfiy qolmas oxir, ey ko'ngul, ko'p chekma jon.  
Men ham avval ko'p yoshurdum, ko'rki, pinhon qoldimu.  
Chektilar majruh ko'nglumdin xadangin kuch bila,  
Bore, ey jon, mujdaye bergilki, paykon qoldimu.  
Ko'rgach ul oyni, junundinkim yiqildim, ey rafiq.  
Tengri uchun aytkim, holimg'a hayron qoldimu?  
Ey ko'ngul, bu gulshan atrofig'a boqkim, g'unchaye  
Kim, ko'ngul jam ayladi, bo'lmay parishon qoldimu.  
Ey Navoiy, qochmag'il hamdamlig'imdin, ko'rki yor,  
Gar sanga mehrin kam etti, bizga yakson qoldimu.  
512

Garchi ko'p sargashlik etti bog' aro bunyod sarv,  
Qomatingg'a banda bo'lmay, bo'lmadi ozod sarv.  
Dahr dehqoniki, yuz ming sarv qildi jilvagar,  
Gulshani davron aro bermas qadingdek yod sarv.  
Boshig'a to qomating davosidin tushti havo,  
Ko'rdi ko'p qushlar lagadko'bi bila bedod sarv.  
Topmamish yeldin sado birla taharrukkim, ko'rub  
Qomatingni iztirob aylab, qilur faryod sarv.  
Go'yiyo qaddingg'a oshiqliq havosin tuzdikim,  
Sarsari ohim yetib, berdi o'zin barbod sarv.  
Laxli qadding shavqidin bo'ston aro chun tushsa o't,  
Shula tez aylar o'tundin, uylakim, shamshod sarv.  
Sheva qil tuzlukka, osibe xazondin ko'rmadi,  
Toki bo'ldi rostlig' oyinida mutod sarv.  
Doimo ozodlarning sabzu xurram bo'lmog'i,  
Bog' aro bulbul tili birla qilur irshod sarv.  
Ey Navoiy, dahr bo'stonida bulbul men kebi  
Bo'lmag'ay, topsang yurub, bir guljabinlik zod sarv.  
513

Lalini desam chashmai hayvon erur ushbu,  
Der muktai jonparvarikim, jon erur ushbu.  
Jismimnn ajal dedi junun dashtida go'yo,  
Sahroyi qiyomat, dog'i uryon erur ushbu.  
Bilmonki, erur g'unchai nobing ko'ngul ichra,  
Yo hajr o'qidin qon aro paykon erur ushbu.  
G'am dashti aro oh samuminki yoyibmen,  
Kim ko'rsa degay: shulai hijron erur ushbu.  
Ko'z hayratini toglamakim, to seni ko'rmish,  
Yo husnunga, yo holima hayron erur ushbu.  
G'am shomi erur tiyra, gar ichsam mayi ravshan,  
Ayb etma manga, shami shabiston erur ushbu.  
Ishqimni Navoiy qiladur tark demishsen,

Jon tarkini kim qilsa, ne imkon erur ushbu.  
514

Hajrida oshiqning afg'ondin qarori bormu,  
Kecha it faryod etarda ixtiyori bormu!  
Ro'baro'men yor ila, ey xozini jannat, degil:  
Ravzaning mundoq xazon birla bahori bormu?  
Mehr ul yuzcha emas desam, tong ermas mehrning  
Ko'zu qoshu xattu xoli mushkbori bormu?  
G'unchadin ortuqdur og'zi, g'unchag'a aylang nazar,  
Buyla ikki rasta durri shohvori bormu?  
Yorutur parvona shomin sham nuri vaslidin,  
Men kebi aning qorarg'an ro'zgori bormu?  
Adl jomi bazm aro, soqiy, bukun nnsaf emas,  
Hech kimning mencha oshubi xumori bormu?  
Demaknm, olamni xascha ko'rmamishsen mutabar,  
Ayt filvoqiki, oncha etibori bormu?  
Eyki bizni xonaqah sari tilarsen dayrdin,  
Shayxnnng xilvatda jomi xushguvori bormu?  
Ey Navoiy, demakim, ushshoq sari yorning  
Iltifoti ko'p degil, men xasta sori bormu?  
515

Kamandi zulfung aro solma pechu tob asru,  
Ko'ngul shikanjasig'a eshmagil tanob asru.  
Bihishti vasl aro, qo'ykim, dame tanaum etay  
Ki, hajr do'zaxida chekmisham azob asru.  
Kuyub bag'ir uza sho'roba to'kma ko'p, ey ko'z  
Ki, qochmag'ay iti, sho'r o'lsa bu kabob asru.  
Raqiblarg'a tutub jomi ayshu men mardud,  
Alarni mastu meni aylading xarob asru.  
Ayog' sol ikki ko'zum halqasig'a, ey chobuk  
Ki, o'pmasin ayog'ing ul ikki rikob asru.  
Visol chehrasidin parda och, bo'lub foniy  
Ki, o'zhlukung tuzi o'lmish, anga hijob asru.  
Navoiy o'lgusidur, azm istasang, jono,  
Tilab halokin aning qilmag'il shitob asru.  
516

Bulbuli ruhum qilur bog'i visolin orzu,  
Suyu dona o'rnig'a ruxsoru xolin orzu.  
Ham ko'ngul gulzorida gulbargi ruxsarin havas,  
Ham nazar bo'stonida qaddi niholin orzu.  
Lali serobin gar ettim orzu, vah, kimdurur  
Ulki, qilmas chashmai hayvon zulolin orzu.  
Men kimu topmoq va lekin bir yiroq ummid uchun,  
Doim aylarmen visoli ehtimolin orzu.  
Ishq aro ahvolim andoq sabdurkim, tunu kun,  
Aylaram Majnun bila Farhod holin orzu.  
Muntaqildur jon adam mulkiga baskim, bor aning  
Qildi g'urbatdin vatanga intiqolin orzu.  
Shami gulro'yum firoqinda qilurmen uchqali  
Jismima bulbul parin, parvona bolin orzu.  
Shoh dardu ishq agar qilsa havas, bor uylakim,  
Soyil etkay saltanat johu jalolin orzu.  
Ey Navoiy, go'yiyo ul yuz ko'zum ollindadur,  
Baski aylarmen tamoshoye jamolin orzu.  
517

O'tluq uzoring uzra ul turfa xoli jodu,  
O'tqa tushub kuyubtur otashparast hindu.  
Ayni xumordindur ul ko'zga zaf oncha  
Kim, holin anglamoqqa ul yuz keturdi ko'zgu.  
Hijron kuni yoshimning ko'prak bo'lur zuhuri,  
Xushroq ko'runur anjum, chun tun bo'lur qorong'u.  
Raglardin ip taqayin, ko'ksumda dog'lardin,  
Dardu balo chekarga ishq aylasa tarozu.  
Bu no'shxand qildi, ul zahrxand, chunkim

Og'zinda kulgu ko'rgach, ko'rguzdi g'uncha kulgu.  
Ichgil mayi shafaqgun, miynoyi aylabon jom  
Kim, qon to'kar shafaqdin har tun bu charxi minu.  
O'lgach Navoiy, ul oy gar bo'lsa shod, tong yo'q,  
Ul qo'ymadi chu borib, olam tunida qayg'u.  
518

Oyati vashshams xurshidi uzoridin o'qu,  
Surai vallayl xatti mushkboridin o'qu.  
Qomating shavqi shahid etkanlar armonin agar  
Bilmasang, har qaysining mili mazoridin o'qu.  
Ul quyosh ruxsoriyu sarig' yuzumning sharhini,  
Safhai xurshid, xatti zarnigoridin o'qu.  
O't tutashqan ko'nglum ahvolin, desangkim, anglayin  
Ul xututekim, bo'lur paydo, sharoridin o'qu.  
Sabzai xat birla bu gulshan vafosiz erkanin,  
Kilki qudrat yozdi, rayhoni bahoridin o'qu.  
Boda g'am dafin qilur kayfiyatin, desang, bilay,  
Ol ilikka jomu arqomi kanoridin o'qu.  
Isatasang dardu junun, ochib Navoiy daftarin,  
Telbalik sharhini topib, holi zoridin o'qu.  
519

Yuziga tushub erdi uyquda gesu,  
Quyoshni yoshurgonda tun ne tong uyqu.  
Yaram kasratidin ulus yig'lar, ammo  
Kelur har birisiga holimg'a kulgu.  
Iki ko'z jamolingdin ar bahra topti,  
Ko'ngul yutti qonlar, budur qushqa qoru.  
Yuzung o'trusida quyosh xush ko'runmas,  
Quyoshqa aningdekki, oy bo'lsa o'tru.  
Yuzung o'tin ohim yorutur erur, shukr  
Ki, ul dam bila tiyra bo'lmas bu ko'zgu.  
Manga may nashotin ko'rub qayg'urur shayx,  
Nashot aylaram men ko'rub anda qayg'u.  
Navoiyni ishq o'lturur, tirguzur ham,  
Zihi ishq ishi ne qnyomat erur bu.  
520

Ul oyni ko'rgan el derlarki, mehri xovaridur bu,  
Meni chun aylamish devona dermenkim, pariydur bu.  
Qulog'i durru lalidikim quyoshqa yondoshibturlar,  
Sharaf avjida ul kavkab, saodat axtaridur bu.  
Yuzin xo'y toza qilg'anni nazzora ayladim, go'yo,  
Eram gulzorida serob gulbargi taridur bu.  
Qadining jilvasin yuz noz ila bo'ston aro ko'rgan,  
Degay, tovusi rano yo magar kabki dariydur bu.  
Yuzinda lali nutqidin chu toptim ruh, bildimkim,  
Quyosh ichra Masih ul, nuktai jonparvaridur bu.  
Ko'nguldin otashin lali xayoli birla cheksam oh,  
Bu o'tning shulasidur ul va lekin axgaridur bu.  
Manga dayr ichra berdi mug'bacha bir mayki, jon toptim,  
Bu jannatning hamono huri uldur, kavsaridur bu.  
Sovurma dayr tufrog'ini har xorij nafas birla  
Ki, jon bergan Masih anfoslarining paykaridur bu.  
Xiyobonda Navoiy sabrini gar xo'blar oldi,  
O'zidin voqif o'lsun, negakim shahri Hiridur bu.  
He Harfining Humoyunvashlarining Halokangezlig'lari "Favoyiddin  
521

Falakdin yaxshiliq yetkay debon, ko'nglungni shod etma,  
Yomonlig'kim yetar, holo unut, o'tkanni yod etma.  
Zamona ahlig'a gar yuz quyoshcha ko'rguzubsen mehr,  
Vafo zinhorkim, bir zarra chog'lig' etimod etma.  
Nujumu charx deb o'kma gadoning baxyalig' sholin,  
Tutunni charx, uchqunlarin anjum etiqod etma.  
Fano ahli ayog'i tufrog'i sharhin yozar bo'lsang,  
Qarog'imni hal ayla, ey rafiq, o'zga midod etma.

Midod etkan qarog'imni qilibon kirpikim xoma,  
Ko'zumning pardasidin o'zga kog'azga savod etma.  
Qilib solih amal kasbi shioringni saloh etgil,  
Vale fosid xayoling birla har dam bir fasod etma.  
Chu bilding, rizq erur maqsum, chekma do'stdin minnat,  
Qazodin xorij ermas ish, adug'a inqiyod etma.  
Tilarsen faqr dashtin qati qilg'aysen eranlardek,  
Bag'ir su qil, yurak pargolasidin o'zga zod etma.  
Navoiy, istasang uqbo murodin, nomurod o'lg'il,  
Agar dunyo murodi yo'qtur, o'zni nomurod etma.  
522

Chamanda sarv yo gul chun sabodin tebranur nogah,  
Sog'inib sarv gulro'yum kelur, afg'on chekarmen, vah.  
Boshimni olmag'aymen sajdai shukr aylayu yerdin,  
Agar sarvi xiromonimg'a bo'lsam soyadek hamrah.  
O'zum ham ermon o'z holimdin ogah, to ani ko'rdum,  
Yo'q ulkim, ermas ahvolimdin ul nomehribon ogah.  
Zanaxdoningda ho'y ermaski, obi zindagonidur  
Ki, hayvon chashmasining ostida voqidurur ul chah.  
Yuz olman sarv birla gul ayog'idinki, vah, yo'qtur  
Aning qaddu yuziga bog' aro bu ikkidin ashbah.  
Yuzung vasfina yuz tah safhag'a yozsam, tamom o'lmas  
Ki, bo'lg'ay safhai xurshidcha ul safhadin har tah.  
Jununum man qilding ul pariy ishqida, ey nosih,  
Kishi devona bo'lsa yaxshiroq, yuz qatlakim ablah.  
Tajammul raxtidin, ey shah, gadog'a qilma istig'no,  
Chu bog'lar raxt bu dayri fanodin gar gado, gar shah.  
Navoiy, ko'p dema g'am xaylidin mayxona mamandur,  
Azimat qilsang ul dorul-among'a fi amonullah.  
523

Ne po'ya urdum yo'lida, ne boshim o'ldi xoki rah,  
Ul sho'x ishqiy sayida boshtin ayog'imdur gunah.  
To boda ichti ul sanam, to mayg'a cho'mdi lali ham,  
Jonimda o'tdur dam-badam, bag'rimda qondur tah-batah.  
Chun jilva bo'ldi yorg'a, aysh o'ldi joni zorg'a  
Kim, ul qadu raftorg'a jon gulshanidur jilvagah.  
Jon qasdig'a qilsa kamin, xayli erur yuz nozanin  
Xurshid cheksa tig'i kin, anjum ne tong bo'lmoq siyah.  
Yuz ishva birla boqibon, jonimg'a o'tlar yoqibon,  
Lab tishlabon, ko'z qoqibon, tirgizdiyu o'lturdi, vah.  
Ochqach yuzin ul no'shlab, qildim fig'on birla taab,  
Bulbulg'a tushsa ne ajab, oshubu afg'on subhgah.  
Umr o'tmakini andisha qil, davrong'a yo'qtur mehr - bil,  
Ey shah, gadoni ko'zga ilkim, ne gado qolur, ne shah.  
Soqiy, to'la jome ketur, dardimg'a orome ketur,  
Holimg'a anjome keturkim, g'am ani qilmish tabah.  
Har yon, Navoiy, sunma qo'l, ne kelsa haqdin - rozi o'l,  
Sen ojizu hokimdur ul, al fajru lak al hukmu lah.  
524

Sarvu gul husn ichra yo'q ul sarvi gulruksorcha.  
Uylakim, qumriyu bulbul nolada men zorcha.  
Ul bahori husn uchun har sayl ranginkim, bulut  
Zohir etti, yo'q edi bu didai xunborcha  
Garchi davron xoridin gul yafrog'idur yuz teshuk,  
Hajr neshidin emas bu xotiri afgorcha.  
Zulfining har tori bir mo'minni chun kofir qilur  
Desa bo'lg'ay ani din ahlig'a ming zunnorcha.  
Ko'yini ul hurning selobi ashkim kasrati  
Aylamish jannatu tajri tahtuhol-anhorcha.  
Abri rahmat soyai sihat boshimg'a solmag'ay,  
Ul quyosh ko'yi qirog'inda buzug' devorcha.  
Bu ko'han dayr ichra bir dam qilg'ali dafi xumor,  
Amni manzil topsa, bo'lmas kulbai xammorcha.  
Olam ahlig'a vafu aylab, jafu ko'rgan erur,  
Yuz tuman ming zor emas, ammo biri men zorcha.

Chun Navoiy ko'nglini snndurdung, endi topmag'i  
Mumkin ermas, itti chun har yon tushub bir porcha.  
525

To qulog'ingg'a zirih soldingu qoshingg'a girih,  
Xasta ko'nglumdurur yuz girih, andoq zirih.  
Qo'ngluma g'uncha kebi tushti tugun uzra tugun,  
Qo'rgali sunbuli zulfungda girih uzra girih.  
Ne nazohatdurur ul gulshani ruxsordakim,  
Ravzai xuld aning shabnamidin bo'ldn nizih.  
Bo'ldi qoshu ko'zidin zulf saromad, ne ajab  
Kim, ko'ngul qaydi uchun ikkisidin keldi firih.  
Qoshi yosig'a dedim chilla kerak rishtai jon,  
Bu so'zumga, ne ajab, bor esa har go'shada zih.  
Anga g'am tig'i bu bog' ichra harom o'ldikim,  
Kiydi pashmina sarig' yuz bila, andoqkim beh.  
Honaqah ichra Navoiyg'a yetar ko'p makruh,  
Dayrdin ul sari bormoqqa ham erdi korih.  
526

Dayr ichra yana kirdim bir jura uchun, vah,  
Ul but manga minnat qo'yar alminnatu lillah.  
Masjidqa yana kirmasu yuz sajdag'a qo'ymas,  
Har kimki, bo'lur dayr ila but sirridin ogah.  
But shohid erur, dayr dog'i dayri fanodur,  
Kufr ahli erur sirrini chun bilmadi gumrah.  
Dermen kechakim tongla chiqay dayrdin, ammo  
Loyaqil etar mug'bacha may birla sahargah.  
Soqiyg'a vayo aksig'a may ichra boqarmen,  
Andin munga, mundin anga chun topmadim ashbah.  
Dayr ichra bu kun kavsaru hur o'ldi nasibim,  
Tanglag'a manga vada berur voizi ablah.  
Haq sirrini har kimga bayon etma, Navoiy,  
Tan aylamagay, bilmas ulus anglasa nogah.  
527

Tun-kunkim evrulur meni bemor boshig'a,  
Sudrab evursa kosh meni yor boshig'a.  
Netkay meni havoiiy agar ashk durlarin  
Sochsam borin bulut kebi dildor boshig'a.  
Ul naxl noz boshida guldur, yo'q ersa charx  
Payvand qildi gulni sapidor boshig'a.  
Boshim oqardi ishqda, yo ishq tig'idin  
Momug' yopushturuldi bu afgor boshig'a.  
Rahm etki, ishq jurmi bila chektilar meni,  
Bog'lab tanob bo'ynuma, bozor boshig'a.  
Tun-kun hariri bo'ldi quyoshning amomasi,  
Tun chirmadi ola-bula dastor boshig'a.  
Boshida ham o'tag'ayu ham boda, ham itob,  
Topti nelar yo'l ul buti ayyor boshig'a.  
Muhlikdurur xumor meni kosh, ey rafiq,  
Yetkursang erdi ko'chai xammor boshig'a.  
Qatl aylar elni g'adr ila gardun,  
Navoiyo, Tufrog' ushbu qotili g'addor boshig'a.  
528

Ey ko'ngul, tortar esang sarsari oh,  
Olam ahlin burun etgil ogoh.  
Buki qon etti labing bag'rimnn,  
Ikki xunbor ko'zum ikki guvoh.  
Hola ul yuzga mudavvar ko'zgu,  
Yuzining aksidur ul ko'zguda moh.  
Mehri ruxsoring uza sabzai xat,  
Ajab ermas bu esa mehri giyoh.  
Dahrdin bo'ldi panohim ishqing,  
O't samandarg'a, ne tong, bo'lsa panoh.  
Istaram mastlig' ul yanglig'kim,  
O'lgucha bo'lmasam o'zdin ogoh.

Soqiyo, bodaki, bu hasrat ila  
O'lmagaymen meni mahzun nogoh.  
Johu mol ahlida yo'q mehru vafo,  
Bas manga mehru vafo mol ila joh.  
Gar Navoiy gunahi ishqing erur,  
Afv qilmoqchi ham ermas bu gunoh.  
529

Bo'lur shom ul mahi Naxshab ravona,  
Kamandi zulfin ochib shab ravona.  
Qora tun azm etarkim, ko'rmagay el,  
Jamolidin vale yorur zamona.  
Meni man etmish o'z hamrahlig'idin,  
Manga, vahkim, ajab ish tushti yona.  
Hayotim emdi xud mumkin emastur  
Ki, o'lmakka tilar erdim bahona.  
Ko'z ochqaymen magar mahshar sabohi  
Ki, ichmishmen ajab jome shabona.  
Bu gulshan gullari chun bevaforur,  
Alardin chekma, ey bulbul, tarona.  
Navoiy o'lsa, yodin qilmag'ilkim,  
O'lar el ham, desang andin fasona.  
530

Nasha yetmas boda gulgun bazmgah gulzor esa,  
Gar ko'ngul ichra bironing xorxori bor esa.  
Bazm aro gar hoziru gar g'oyib o'lsun - bok emas,  
Tengri yori qayda bo'lsa, yori bizga yor esa.  
Vasl no'shidin agar ummid marhamdur, ne tong,  
Hajr neshidin bag'ir choku ko'ngul afgor esa.  
Ham kecha hojat emastur shamu ham kunduz quyosh,  
Munisim gar subhu shom ul sarvi gulruksor esa.  
Naqdi imonimni ul kofir chu toroj ayladi,  
Ne ajab ollimda but, bo'ynumda ham zunnor esa.  
Qechalar har ko'chada itdek yugursa, tong emas,  
Kimki aning dilbari bir shabravi ayyor esa.  
Ey xarobot ahli, bizdin juraye tutmang darig'  
Kim, erur may rahni gar xud jubba, gar dastor esa.  
Tut qadah davrini xushkim, yo'q bajuz sargashtalik,  
Dahr davrida bu to'qquz gunbadi davvor esa.  
Ey Navoiy, may bila daf ayla ul oy hajridin,  
Xasta jisming zor esa, ko'nglungda yuz ozor esa.  
531

Mehri ruxsorig'a xat zohir etibtur dilxoh,  
Ne ajab, sabzai xattini desam mehri giyoh.  
Surma chekkan ko'zi ohim tutuni kasratidin,  
Ohkim, qildi meni ham o'zidek xonasiyoh.  
Bir kichik yoshlig' uchun bo'lmish uluq tinmaq ishim,  
Garchi ishqida dame ting'ali qo'ymas meni oh.  
Buki qonimni to'kub, dermen ichibsen, basdur  
G'amza tig'i bila xunxora ko'zung ikki guvoh.  
Xo'blardin sanga gar yetsa g'ubore, ne ajab,  
Shohg'a bo'lmadi gard, aylamayin xaylu sipoh.  
Davri eli javridin o'ldum, qani mayxona yo'li  
Kim, erur qochqali ko'p daldasi har lahza panoh.  
Faqr yo'lig'a agar kirmasa el, andindur  
Kim, bu vodiya xatar ko'pturu ozdur hamroh.  
Shoh dargahig'a gar bor esa hojib moni,  
Ey gado, mujdaki behojib erur bu dargoh.  
Xayru shar bo'lmasa taqdirdin ayru, ey shayx,  
Bas Navoiyg'a gunah aylaganidin ne gunoh.  
532

Shamdek qomatu yuz shami ila jonona,  
Qildi o'rtarga ko'ngullar qushini parvona.  
Aqlning silsilai zulfunga vobastalig'i,  
Ko'runur uylaki zanjir ichida devona.

Oshnodur chun sanga jon bila ko'nglum azali,  
Ne tafovut, manga bo'lsang abadiy begona.  
Ko'p buzug' ko'ngluma yog'durma balo o'qinikim,  
Bir yog'indin teng o'lur yer bila bu vayrona.  
Yor agar kulbai ehzonima kirmas, tong emas,  
Kimsa bosh suqqudek ermas bu buzug' koshona.  
Xonaqah ichra riyo ahlidin o'ldum diltang,  
Ey xusho ahli xarobot bila mayxona.  
Bog'lasam dayrda zunnor, ne tong, mundoqkim,  
Dinni yag'mo qiladur mug'bachalar mastona.  
Dema farzona biravdurki, ulustin chiqmish,  
Teng ko'rar chunki ulus boru yo'qin farzona.  
Ey Navoiy chu erur boisi g'aflat ko'p so'z,  
Qariding, ish qilako'r, aytmag'il afsona.  
533

Firoq neshi ko'ngulning ichiyu toshida,  
Tikilmish onchaki, ohim chiqar xaroshida.  
Namoz botil erur, chunki egridur mehrob,  
Girihdur ofati din tushsa yer qoshida.  
Visol vaqti yuzung o'rtasa meni, ne ajab  
Kim, o'zga tob bo'lur yorning quyoshida.  
Iki ko'zungki, ko'ngul saydini talashdilar,  
Nelar kesildi bu sayd ul ikov taloshida.  
Pariyu hur ul oyg'a qarobat o'lmishlar,  
Va lekin oncha kishi yo'q uruq qayoshida.  
Toriqmasin, necha gardundin egrilik yetsa,  
Biravki tuzlugi yo'q xalq ila maoshida.  
Navoiy o'ldi, chu boshig'a yetti tig'n firoq,  
Boshini ayladi past ulcha erdi boshida.  
534

Menmudurmen ko'z yoshim rangin bag'ir qoni bila,  
Lek bag'rim qon biravning tig'i hijroni bila.  
Lali yodindinki, ko'nglum muztaribdur, ey rafiq,  
Pand anga ko'p bermakim, darmondadur joni bila.  
Su o'g'irlab bo'lsa ko'nglum zahmi muhlik, ne ajab  
Kim, su kelturdi o'qung zaxm ichra paykoni bila.  
Xatti ko'nglumda so'ngak yanglig' tanimni chirmag'an,  
Muhrluq bir noma, bilgil, dog'i pihonn bila.  
Dardkim, ko'nglumni buzdi, chiqmas andin, yaxshidur  
Chug'z yanglig'kim, erur xursand vayroni bila.  
Chun bu gulshanga vafo yo'q, ey ko'ngul, zinhorkim,  
Ko'p quvonma sunbulu sarvi xinromoni bila.  
Ey Navoiy, gar muroding davlati boqiy erur,  
Uns tutmoq bartaraf qil olami foniya bila.  
535

Zulfi qonlig' paykarimnn chekti pechu xam bila,  
Ul sifatkim, tortqay ajdar biravni dam bila.  
Nola chekmakdin chu qilding man, ey laling nigin,  
Bir yo'li og'zimni qilg'il muhr ul xotam bila.  
Marhami vaslin ko'ngul chokidin olma, ey rafiq  
Kim, chiqar jonim dog'i ayrilmay ul marham bila.  
To g'aming vodiysida ovora bo'ldum, ohkim,  
O'zni hargiz topmadim bir xotiri xurram bila.  
Rashkkin ishqing tutarmen jonu ko'nglumdin nihon,  
Bo'lmas el sirrin deyishmak ikki nomahram bila.  
Betalab yo'q vaslidin tolib, vale mahjurmen,  
Qolmisham darmonda ushbu nuktai mubham bila.  
Ey Navoiy, xalqdin tut go'shakim, men tinmadim,  
Toki bo'ldum oshno xayli bani odam bila.  
536

Tong sahobi uyg'atur uyqulug' elni su bilan  
Kim, sabuhi vaqti bo'ldi favtu sen uyqu bila.  
Su sepib uyg'otqusidurlar seni uyg'onmasang,  
G'unchai subhu surohi g'ulg'ulu kulgu bila.



Umrin bir subh olg'il bahrakim, fasli bahor  
Lola ham jomin tutubtur nargisi jodu bila.  
Nastaran yo sunbul ollida bo'lung xushhol ikav,  
Gar xitoyi birlasen sargarmu gar hindu bila.  
Xushturur bir vasl subhi may bila topmoq nashot,  
Necha hijron shomi bo'lmoq qon yutib qayg'u bila.  
Goh afg'oningni tuzgil bulbuli xudroy ila,  
Goh dildoringni yondoshtur guli xudro' bila.  
Har qushungg'a zahr ila qoru tutar shomi ajal,  
Bir sahar sen ham hayote top qushu qoru bila.  
Ne zulolu otashin guldurki, bo'ston shohida,  
Aylar oroyish bu englik dog'i ul ko'zgu bila.  
Ey Navoiy, subhung o'ldi shom, tinmay yig'lakim,  
Shoyad o'lgay nomai jurmung orig' ul su bila.  
537

Aningdek o't yana ishq urdi xonumonimg'a  
Ki, shula ayrilib andin, tutashti jonimg'a.  
Jununi daftaridin aqlu hikmag etkay fahm,  
Qachonki, Majnun ko'z solsa dostonimg'a.  
Chu zafdin so'ngak o'ldum, sinar vale qonamas,  
Firoq toshi yetib jismi notavonimg'a.  
Qolib g'am ichra, yana ko'rmadi nashot yuzin,  
Birovki soldi quloq nolai nihonimg'a.  
Emastur ashabining to'rt ayog' elinda xino  
Ki, ko'nglum ichra qilib jilva, kirdi qonimg'a.  
Menga harom fano dayri pirining qadahi,  
Vujud xonaqahi gar o'tar gumonimg'a.  
Navoiyo, tutubon boda, sirri vahdat so'r  
Ki, chekmay ikki qadah kirmas ul bayonimg'a.  
Uyquni ohim yeli ko'zdin uchurdi bu kecha,  
Aqlu his avroqu ajzosin sovurdi bu kecha.  
Anjam ermas, charx zulmin holima anglab qazo,  
Tiyra ruxsoring'a ming qatla to'kurdi bu kecha.  
Hajrdin tufrog' bo'ldum, go'yiyo ashkim suyi  
Boshima charxi ko'han toqin yemurdi bu kecha.  
Zulm toshi yog'durub, hijron qilichi indurub,  
Ne balolar ishq boshimg'a keturdi bu kecha.  
Zaxm ko'ptin men o'lum holida o'lgan sog'inib,  
It yalab qonim, so'ngaklarni ko'murdi bu kecha.  
Subh toli bo'lmadi, garchi ul oydin ayru hajr,  
Boshima ming qatla gardunni uyurdi bu kecha.  
Charx men sargashta yoshidin xijil bo'ldiki, ko'p  
Anjumi ashkim shihoboso yugurdi bu kecha.  
Tiyra andindurki, oy, kun shamin ohim sarsari  
Charx fonusi aro bir-bir o'churdi bu kecha.  
Ey Navoiy, o'lmakim anglab ul oyning ko'yida,  
Itlari bir dam ulub, bir lahza hurdi bu kecha.  
539

Ishq rahm etsa bu sargardon tani bemorg'a,  
Qaytara aylandurur tob ochqan eldek torg'a.  
Hajr dardidin quloqlashmaqqa mahram soyadur,  
Takya solmoq shomi furqat zafdin devorg'a.  
Uchti yo yanchildi mahvashlar toshidin, ey rafiq,  
Yoqma mundin nori marham bu tani afgorg'a.  
G'am emas o'lsamki, joni xoksorimdur mening,  
Gardkim, o'lturdi javlon vaqti ul ruxsorg'a.  
Lalu xattining Masihoyu Xizr din ori bor,  
Ey musavvir, sunma qo'l shingarf ila zangorg'a.  
Tark etib savdo, aning savdosig'a tushmish ulus,  
Kirgali Yusuf jamolim sayr uchun bozorg'a.  
Ne bade avzo erurkim, aql boshi aylanur,  
Gar dame fikr aylasam bu gunbadi davvorg'a.  
Tuzma oyini muhabbat el bila, gar istasang  
Kim, o'zungni solmag'aysen ranj ila ozorg'a.  
Ey Navoiy, yordin ag'yor mayli qildi yor,  
Yorkim ko'rdi bu yanglig' zulm qilg'ay yorg'a.

540

Yo'lunda tufrog' o'ldum, ey sabo, o'tsang g'uboring'a,  
Quyun bo'l dog'i eltib sadqa qilg'il guluzoring'a.  
Gar o'lsam ul malak siymo pariy hajrinda, aylang'ay  
Pariy birla malak parvonadek shami mazoring'a.  
Firoqi tiyr boroninki, chektim qushg'a o'xshatqay  
Ki, yulmishlar yungin boqqan kishi jismi figoring'a.  
Quyosh yanglig' yuzung hajrinda ermas yorumoq mumkin,  
Gar o'lsa yuz quyosh toli qorarg'an ro'zgoring'a.  
Yigitlar ishqini gar ixtiyor etmay desam, qo'ymas  
Yigitlik birla oshiq shevalik o'z ixtiyorim'g'a.  
Junun vodiysida qolur sabo yuz dashti po'yamdin,  
Anga yetmon, ne ildam sayr ekin chobuksuvoring'a.  
Seni, ey mug'bacha, mahrumluqdin asrasun tengri,  
Agar bir jomi may birla iloj etsang xumoring'a.  
Fano mayxonasining mayfurushig'a fido jonim  
Ki, may ehson qilur holatda boqmas yo'qu borimg'a.  
Vafo o'tig'a men kuydum vale topqay Navoiydek  
Muhabbat rishtasi boqqan kishi har bir sharoring'a.  
541

Surati devordek hayronmen ul ruxsorg'a,  
Yo'qsa g'amzang o'qlari tikmish meni devorg'a.  
Zor jismimda bo'g'unlar mehnatimning sonidur  
Kim, sanab, har yerda tugdum bir tugun har torg'a.  
Tori zulfung ichrakim, ashkim to'kar kofir ko'zing,  
Mehrai tasbih tortar rishtai zunnorga.  
Bir-iki kun zor ko'nglumdin firoqingni ketar,  
Zahrkim, bermish bu kunluk tonglaliq bemorg'a.  
Zaxmi ko'pluktin ko'ngul sirrini fahm etmak bo'lur  
Kim taammul birla boqsa bu tani afgorg'a.  
Gar desang sargashtalik ko'rmay yo'lungnn tuz yuru,  
Gar inonmaysen, nazar qil charxi kajraftorg'a.  
Ey Navoiy, gar desang hijron xumoring daf etay,  
Jahd etib, solg'il o'zungni kulbai xammorg'a.  
542

Ikki yuzdin qadingg'a ikki gesu bo'ldi piroya,  
Chu sham o'ldi iki, el qaddig'a ikki bo'lur soya.  
Sening gulgun to'nungkim, naqsh erur zar rishtadin har yon,  
Biaynih uyladurkim, zarvaraq ostidag'i loya.  
Chekarmen voyu doyim buki, jon lalingdin olg'ay kom,  
Mening jonimg'a voy ar hosil o'lmas, anga bu voya.  
Labi jonbaxshing o'ldi yuqori ul xoli jodudin  
Ki, teng ermastur ijoz ahliyu sehr axlig'a poya.  
Ajab yo'q, sabzai xat soyasida jonfizo laling  
Munosibturki, bo'lg'aylar Masihu Xizr hamsoya.  
Ato-onangga rahmat, ey o'g'ilkim, ko'rmamish sendek  
Ne ul to'qquz ato, bal ne bu to'rt asrag'uchi doya,  
Manga sarmoya zuhdu sud ummidi bihisht erdi,  
Chu toptim boda birla dayr, bordi sudu sarmoya.  
Ko'ngul to hajr aro itti, anga bir lahza ming yildur,  
Manga malum ermas holi ul chog'din ilo g'oya.  
Navoiy, chun har ish qilsang, kerak piroyayu sozi,  
Fano yo'lig'a kirkim, ne kerak sozu ne piroya.  
543

Yor ishqim anglamay, lali susabtur qonima,  
Toki malum etsa, kelgay ne balolar jonima.  
Ochmay o'tluq chehra chunkim o'rtadi ko'nglum uyin,  
Ochsa ne o'tlarki, tushgay kulbai ehzonima.  
Uyquda ul ko'z manga yuz fitna bedor aylamish,  
Noz ila uyg'onsa, netkay, angla, xonumonima.  
Ichmayin may buzdi ko'nglumni, gar ichsa, tutsa ham,  
Ko'r - ne ofat sayli yuzlangay yiqug' vayronima.  
Mast o'lub zunnor zulf ochsa, muhiqdurlar agar  
Aqlu zuhdu ilm motam tutsalar imonima.

Nosiho, chun oshiq o'lduq tanima mundin nari,  
Tanimasbiz biz seni, sen dog'i bizni tonima.  
Gar Navoiydek bo'lub oshiq, o'larmen pand deb,  
Jonima qilmang azob, ayting ani jononima.  
544

Yor aksi chunki aylar jilva may ko'zgisida,  
May icharmenkim, yuzi bo'lg'ay yuzum o'trusida.  
Ul sabohat birlakim, kuldung, manga mehr o'ldi fahm,  
Mehr fahm o'lmoq tong ermas subhning kulgusida.  
Uylakim, xayli hubob ichra tushar xas, bormen  
Ashk aro sargashta ul sultoni husn urdusida.  
Urdu olam buzg'ali bir-birga kirpik saflarin,  
Fitnalar bedor qilmoq ko'r ul oy uyqusida.  
Ne xato qilg'ay ko'ngullarga ko'zung mujgon o'qin,  
Har qayon chun boqsa, saydedur aning qobusida.  
Navbahori dahrg'a qo'ymang ko'ngulkim, yo'q vafo  
Ne guli bo'stonida, ne lolai xudro'sida.  
Shohlar pobo'sing etkandin, Navoiy, yaxshiroq  
Kim, boshingni xokirah etsang aning pobo'sida.  
545

Men o'lar holatdayu ko'yida itlar qoshima  
Jam o'lub ahbobdek, afg'on qilurlar boshima.

Charx ko'zgisin shafaqgun topqay aning aksidin,  
Ul yuzu lab hajridin boqqan kishi qon yoshima.  
O'lmisham lali mayi shavqida, may soling mudom,  
Yo'ndurub har yon qadahlar qabr qilg'an toshima.  
Ko'yiga qo'yg'ach qadam, boshimg'a urdi tig'i zulm,  
Sarfarozi etti bu xidmat aylagan podoshima.  
Topmag'ay shoyad sabuh aylarga mayl, ey tong yeli,  
Elt jonim naqdini mayxorai qalloshima.  
Shammaye fosh ayla sargardonlig'imdin, ey quyun,  
Uchrasang dasht uzra Majnun ismlik qardoshima.  
Dur sochar ko'zdin Navoiy, lek ul yo'qturki, yor  
Bir kecha so'ng'ay ayog'in didai durposhima.  
546

Ko'rgali chun toqatim yo'qtur seni bir yor ila,  
Vah, ne bo'lg'ay holatim ko'rgan zamon ag'yor ila,  
G'ussa tog'ida ulus ko'rgay ochilg'an lolazor,  
Har yon etsam mayl bu uryon tani afgor ila.  
Torami xurshid uza naylay Masihodin iloj,  
Zaf aro ko'yida xushmen soyai devor ila.  
Qondurur ko'nglumda, yonimda so'ngaklar qobsabon,  
Kom olur ishrat mayidin lahni musiqor ila.  
Ey fusungar, yozma tumor ul junun dafig'akim,  
Sharhi yozilsa, tuganmas yuz tuman tumor ila.  
Ko'nglum ichrakim, sig'ishmas novaking paykonlari,  
Berkitiburlar o'qung shavqini yuz mismor ila.  
Dema jismimda mudavvar dog'larkim, davri charx  
O'rtamakka qismat aylabtur ani pargor ila.  
Qasri jannat birla kavsar mayli qilmon, ey faqih  
Kim, ko'ngul ulfat tutubtur kulbai xammor ila.  
Olam ahlig'a qo'shilmoqqa o'zungni qilma zor,  
Chunkn ayrilmoq keraktur so'ngra yuz ozor ila.  
Dayr aro badmastlig' jurmonasi, ey mug'bacha,  
Buynuma osg'il sabu, bog'lab ani zunnor ila.  
Ey Navoiy, tuz bo'lub, ne kelsa, tutqil o'zni hush  
Kim, sitez etmaklik o'lmas charxi kajraftor ila.  
547

Novakingning tusidin ermas nishone bo'ynig'a  
Kim, erur qatl aylagan ahbob qoni bo'ynig'a.  
Begunah ishq ahlig'a tig'i jafu surgum desang,  
Bilki, mendin o'zga tutmas kimsa ani bo'ynig'a.

Hajrdin gar yuz qilich bo'ynung'a urdung, ey sipehr  
Sarbasar qildim qo'lum yetkan zamoni buynig'a.  
Qotilimni kimsa bilmay, zaxm yeb o'ldum, vales  
Men bilurmenkim, erur qonim faloni bo'ynig'a.  
Tavq bil jannat qushi bo'ynig'a to mushkin ipak,  
Tushti taviz etkali hirzi yamoni bo'ynig'a.  
Mayg'a egnimdinki, sajjodam garovdir, qildi man,  
Go'yiyo zohid ko'ra olmas ridoni bo'ynig'a.  
Gar Navoiy o'lsa, ul kofir diyorig'a cheking,  
Bog'labon sudrarda zunnori fanoni bo'ynig'a.  
548

Vahki, chamandin yana esti shamol o'zgacha,  
Har dam o'lur atridin ko'ngluma hol o'zgacha.  
Bulbulu qumri chekib lahnu navo o'zga nav,  
Ko'rguzadur sarvu gul g'anju dalol o'zgacha.  
Savsan o'lub sarbaland, g'uncha qilib no'shxand,  
Elga alardin yetib dafi malol o'zgacha.  
Sunbuli purtob ham, lolai serob ham,  
Dud ila o'tdin bo'lub shibhu misol o'zgacha.  
Kirdi magar dilbarim, huri pariy paykarim,  
Gulshan aro ko'nglida fikru xayol o'zgacha.  
Bo'lsa manga dog'i yo'l, andaki aysh aylar ul,  
Qilsam edi mast o'lub qolu maqol o'zgacha.  
Umri abad topqamen, tutsa manga bir qadah,  
Nashaye maydin anga husnu jamol o'zgacha.  
Dahrda yo'qtur karam, dahrning ahlida ham,  
Qilmag'asen, ey ko'ngil, fikri muhol o'zgacha.  
Zuhd, Navoiy sanga bermadi masjidda fayz,  
Emdi kirib dayr aro, tarhni sol o'zgacha.  
549

Qayu qushkim, qo'nar bu paykari Majnun misol uzra,  
Erur tan zafidin qushdekki, yo'ng'aylar xilol uzra.  
Balo toshi xam o'lg'an qaddim ustidin yiroq ketmas,  
Biaynih nuqta yanglig'kim, tushar yozg'anda zol uzra.  
Agar maygunlug'idin rang aylar ersa mashshota,  
Ko'zumnung mardumin qo'yg'ul o'yub ul turfahol uzra.  
Qoshingning toqi ustida emastur anbarin xoling,  
Zuhal go'yo ochibtur orazi mushkin hilol uzra.  
Ne tong, nozuklugidin gar qurayshi bo'rk og'ir keldi,  
Xam aylar, chun qirov ko'prak yog'ar nozuk nihol uzra.  
Savodi xat bila ham orazing xurshidi ravshandur,  
Safoda ne tafovut soya tushkandin zulol uzra.  
Belingga to soching chirmashti, rashkidin aning har tun  
Dimog'imda tong otquncha xayol ermish xayol uzra.  
Ko'zumni istasang ravshan, qadahni yopma, ey soqiy,  
Kerakmastur sahob ul axtari farxundafol uzra.  
Navoiy, yor lalida uchuqtur, yo'qsa yopushti  
Chibinning parridin bir pora qo'ng'an chog'da bol uzra.  
550

Hajr o'ti dog'i bila ko'nglumni, ey jon, o'rtama,  
Do'zax o'ti birla kuydur, dog'i hijron o'rtama.  
O'rtabon har kimni, o't jonimg'a solma rashkdin,  
Xalqni paydo, meni, majnunni, pinhon o'rtama.  
Lamai ruxsor ila din kishvariga solma o't,  
Muncha islom ahlini, ey nomusulmon o'rtama.  
Ohim o'ti uchqunin gardung'a tortib, ey pariy,  
Ul choqinlardin malak xaylini har yon o'rtama.  
Gar qulum, gar jismu jonim o'rtading, qildim bihl,  
O'z qulung, ey jismu jonim sadqang, oson o'rtama.  
Chunki sen ham qolmog'ung o'rtanmay, ey shami tiroz,  
Oraz o'ti birla parvonangni parron o'rtama.  
Chun Navoiy vasldin kechti, ani hajr o'tida  
O'rtamay deb aylab erding ahdu paymon, o'rtama.  
551

Zulfig'a mayl, ey nasimi anbarafshon aylama,  
Tarqatib yuz pora ko'nglumni parishon aylama.  
Olam ahli jonig'a rahm aylab, ey chobuksuvor,  
Otlanib usruk, yana ohangn maydon aylama.  
Azmi gasht aylab tun aqshom, oy kebi aylab tulu,  
Charxning yuz ming ko'zin husnungga hayron aylama.  
Zaxmliq' bag'rimni yuz ming pora aylab tig' ila,  
Zulmdin har porasin bir qatrai qon aylama.  
Deb emishsen, aylagum islom elinda qatli om,  
Aylama bu zulmni, ey nomusulmon, aylama.  
Gar desang ko'nglungni gardun tah-battah qon etmagay,  
Xurda maylim g'undachek ko'nglungda pinhon aylama.  
Ey Navoiy, bazm tuzgan ermish ul gul bog' aro,  
To parishon bo'lmasun, bulbuldek afg'on aylama.  
552

To'kulgudek edi jismim quruq so'ngaklar ila  
Magarki, bog'ladi ishq ul so'ngakni raglar ila.  
Halokim aylasa ul pok etaklik, ermas ayb  
Ki, tufrog'im toshig'ay poklar etaklar ila.  
Taashshuqumdin irik pandlar xalos etmas,  
Bu bandni kesa olmas kishi egaklar ila.  
Visol shomi dey olmon labingni yolqitsam,  
Vale taboninga ko'z surtubon muchaklar ila.  
Mayi visol ichib, lablaring o'pay dermen,  
G'arib boda tilarmen ajab gazaklar ila.  
Zamona ahliki, davlat chog'i qulungdurlar,  
Muloyamat yana ko'p qilma ul dadaklar ila.  
Navoiy o'lsa, xalos aylay olmag'ay oshiq,  
Jamol ahli anga vada aylamaklar ila.  
553

Bir kichik yoshlig' nigore topmisham nozukkina,  
Sekreturda tavsanin maydon aro chobukkina.  
Gah vafo, gah nozu gah afsun bila o'zginasin,  
Ko'rguzub har lahza dilbarlig'da bir turlukkina.  
Javr ila tahdidi bedillarg'a bori ching'ina,  
Mehr ila har vadam, qildi bori o'trukkina.  
Osrul yolg'on vadasidin kuymish erdi jong'inam,  
Ongdibon bir kecha tushti ilgima usrukkina.  
Istadim bo'ynin quchib, yuzginasidin o'pkamen,  
Iztirob aylab talashti, bor emish kuchlukkina.  
Yuz o'parga qo'ymadi, ilgin dedim bori o'pay,  
Tashlabon yumruqqina, qildi ko'zumni ko'kkina.  
Har ne deding bor edi yolg'ong'ina boshtin ayoq,  
Ey Navoiy, muncha yolg'on degucha bo'l shukkina.  
554

Ul yashil to'nluq pariyvash lali shakkarbor ila,  
Ruh to'tisin qilibtur munfail guftor ila.  
Garchi ahzar to'n bila bog'i latofat sarvidur,  
Lek hayron aylamish yuz sarvni raftor ila.  
Gar so'kuldi ul etak, kirpik bila tiksa bo'lur  
Kim, erur gul xilatin tikmak munosib xor ila.  
Angla axzar shamu sarig' bo'rki, aning shulasi,  
Tiyra kulbamnn yorutsa, koshki, ruxsor ila.  
Naxli qaddurmu yashil to'n ichra, yoxud naxli mum,  
Bog'lag'an sun ilgi yuz ming sanatu hanjor ila.  
Soqiyo, jomi zumurradgun aro quy lali may  
Kim, erur shingarf behad xushnamo zangor ila.  
To bo'lay lali zumurrad orzusidin xalos,  
Tortibon ani Navoiydek navoye zor ila.  
555

Har oyki g'ayrima bir zarra mehri fosh o'lsa,  
Aning sari boqa olmon, agar quyosh o'lsa.  
Ko'zumda ashkdek ul tifi parvarish topmish,  
Nazar haqini kerak bilsa necha yosh o'lsa.

Visol umidiga o'zni yaqin solur oshiq,  
Firoqdin necha javrinda davr bosh o'lsa.  
Ne tong, firoqi bag'ridin xaroshliq chiqmoq,  
Birovki, bag'rida g'am changidin xarosh o'lsa.  
Bahorim o'ldi chu gulchehra sho'xlar, ne ajab,  
Yog'ar nima boshima jolavor tosh o'lsa.  
Xush ulki, tog' etagin tutsa xalqdin qochibon,  
Uzalsa ostida xoro anga firosch o'lsa.  
Demang, Navoiy, agar yoring o'lsa qatlnng etar,  
Nekim murodidurur uyla qilsa, kosh o'lsa.  
556

Eyki, yuz ming dog' qo'ydung jismi g'amparvardima,  
Bilki, bo'lmish har biri oxir davo bir dardima.  
Xajr aro holim gahe behushluq, gah g'am yemak,  
Ishqing iqbolida qil nazzora xobu xo'rdima.  
Toza qonlig' dog' isi ko'nglum aro muhlikdurur,  
Atri ruhafzo ko'rung g'am bog'i ichra vardima.  
O'yla xoki jism ila ketmak tilarmen dahrdin  
Kim, ajal ham yetmagay suratlar aylab, gardima.  
Sovug' ohim hayrati ishq ahli ko'nglin o'rtadi,  
Turfa ishdur el ichin kuydurmak ohi sardima.  
Dahr bog'inpng hazoni yafrog'idur qon yoshim,  
Obkash yanglig'ki, xatlar chekti ro'yi zardima.  
Yel kelturgach ko'yi tufrog'ini, toptim shohlig',  
Ey Navoiy, qil tamosho ganji bodovardima.  
557

Qo'ydi usruk yuzni bu xoki tani bemorg'a,  
Sham yanglig'ki tayamishlar ani devorg'a.  
Anjum o'lsa mehr uza, oncha ko'runmas lutf aro  
Kim, gahi ter qatras ul mehrvash ruxsorg'a.  
Ul ko'z ermaskim, chekilmishdur uchi zulfung sari,  
Kofiredur, olg'ali mayl aylamish zunnorg'a.  
Qildi olamni guliston, ulki gulgun raxsh uza,  
Chiqti gulgun to'n kiyib, gul sanchibon dastorg'a.  
Dahr tufroqig'a mehnat sabzasi bosh chekti boq,  
Har taraf paykon uchi chiqqan tani afgorg'a.  
Husni davroni o'tar barham bo'lur, ey sarvi noz,  
Zor ko'nglumni ko'rub, mayl etmasang ozorg'a.  
Istadi foius aro surat kebi sargashtalik,  
Elga ulkim, davr berdi gunbadi davvorg'a.  
Yor yo'q olamdakim, bir yor sirrin asrag'ay,  
Bas ajab sirredururkim, el degay ag'yorg'a.  
Ey Navoiy, xonaqahda ko'rmading juz dardi sar,  
Ani daf aylarga yuzlan kulbai xammorg'a.  
558

Soluram ruqasini ko'ngluma urg'ach yora,  
Uylakim tom shikofi aro kog'az pora.  
Meni Farhod ila Majnun dog'i istab topmas,  
Tog'u homun aro to ayladi ishq ovora.  
Ey Masih, urma nafaskim, sovurur gardimni,  
Ishq maqtulig'a kim aylay olibtur chora.  
Charx tosh yog'durubon, yerga ko'milmish jismim,  
Yosag'on anglama qabrimda o'kulgan xora.  
Ey munajjim, gar ul oy sabru sukunum xabarin  
Demasang, yer quyi ham sobitu ham sayyora.  
Gar vafo bo'lmasa davr ahlida, tong yo'qki, hanuz  
Qilmamish charx vafo sog'arini inkora.  
Gar Navoiy g'am aro qoni qurub, bo'ldi halok,  
Ne ajab, dilbari bir qotil erur xunxora.  
559

Bilgay ulkim manzil etkay xotiri vayronima  
Kim, ajab dushvorlig'lardur balokash jonima.  
Hajr dashtida hamono berkitibtur bir balo,  
Har tikankim nesh sanchibtur tani uryonima.

Dardu g'am ahli o'lum holi bo'lurlar chiqqucha,  
Kirsalar holim so'rarg'a kulbai ahzonima.  
Bag'rimu ko'nglum g'amu dardig'a taskin bergali,  
O'lturubturlar baliyat o'qlari har yonima.  
Buki bag'rim qon edi, qatlimg'a xud hajr erdi bas,  
Rashk o'qi ham hojat ermas erdi kirmak qonima.  
Qilma ko'p oshufta ul zunnori zulf, ey mug'bacha  
Kim, tugunlar tushti andin rishtai imonima.  
Ey Navoiy, men xud o'ldum olg'ali ko'nglumni yor,  
Jonni dog'n olibon, yetkur ko'ngul olg'onima.  
560

Ishq ko'p soldi meni dardu baliyat chohig'a,  
Vahki, emdi sudratur hijron siyosatgohig'a.  
Ey xush ulkim, aylay olg'ay o'ltururda dardi ishq,  
Bir tazallum shohig'a yo bir vasiyat mohig'a.  
Ul quyosh har yonki borsa, soya hamrohi aning,  
Soyadek behol o'lurmen rashkdin hamrohig'a.  
Qo'rqaramkim, yetmagay holimg'a may nisyonidin,  
Nechakim, bor etimodim xotiri ogohig'a.  
Yo rab, u bedilki, bir dilxoh aning matlubidur,  
Ani ham yetkur meni bedil kebi dilxohig'a.  
Uyladurkim, sotibon Yusufni olg'ay siymqalb,  
Kimki matlubnn qo'yub, mayl etsa dunyo johig'a.  
Bir bihishtiy hur hajridin tamug'ning dudidur,  
Boqsang o'tlug' ko'nglidin chiqqan Navoiy ohig'a.  
561

Netib o'zumni tasavvur qilay visol ichra,  
Dalir chun boqa olmon anga xayol ichra.  
Qadi latofati bor etidoldin ortuq,  
Valek jilvasidur haddi etidol ichra.  
Nihol qaddin iki zulf sunbulida ko'rung,  
Alif kebiki, qazo qilki yozdi dol ichra.  
Chaman aro qizarur, sarg'arur guli rano,  
Magarki, qoldi jamolingdin infiol ichra.  
Degilki, xolidag'i nuqtasi bo'lur zohir,  
Tutarg'a rang qo'yar chunki nuqta xol ichra.  
Quyosh hayot suyinda ko'rundi yo soqiy,  
Jamol aksini soldi mayi zulol ichra.  
Zamona ahliida yo'qtur vafo, ani tilama  
Ki, qolmag'aysen ani topmasang, malol ichra.  
Chu savtu harf ila tavhid sirri mumkin emas,  
Ne ogah ahli jadal muncha qilu qol ichra.  
Navoiy ilgini tutqilki, vasling ummidi  
Solibturur ajab andishai muhol ichra.  
562

Raqib kelmagi ul no'shi lab sanam birla,  
Erur nechukki, birav umr topsa g'am birla.  
Ne umrdur buki, men g'am bila kechurgaymen,  
Nechuk ichar kishi hayvon suyini sam birla.  
Alam chu yetti, ketar ishq lazzati jondin,  
Kishi ne nav qilur ayshni alam birla.  
Yetishsa yor raqibi, meni chekar so'z ila,  
Ne ganjdurki, yutar ajdahosi dam birla.  
Bu guliston aro chun xorsiz gule butmas,  
O'zungga aylamagil xorliq sitam birla.  
Nechuk qul o'lmag'amen dayr pirig'aki, necha  
Ki, kamlig'imni ko'rar, o'tkarur karam birla.  
Navoiy og'zi xayolig'a tushti, istamangiz  
Ki, tushti emdi yo'li vodiya adam birla.  
563

Necha qamchi tushubtur ul qadi siymin badan uzra,  
Payopay sonqa tushkan kebi sarvu suman uzra.  
Ne bo'lg'ay erdi har bir o'rnig'a tushsa edi yuz ming,  
Aning ishqida men farsudai dardu mihan uzra.

Ko'zunga o't choqilg'an hajr kojidin, hamonokim,  
Choqindektur, damo-damkim tushar bu zor tan uzra.  
Asar ko'r ishq'i komilg'aki, zaxmi menda zohirdur,  
Ne qamchikim, tushubtur ul buti paymonshikan uzra.  
Aning nozuk tanida zaxm tong ermaski gardundin,  
Erur xoro aro qon lalul gul jismi tikan uzra.  
Mening holimg'a yig'langkim, agar Shiring'a gul yog'sa,  
Yog'ar yuz sangboroni baliyat ko'hkan uzra.  
Navoiy, yorg'a gulbarge teksta o'lgudek erding,  
Ne ayb o'lsang, ko'rub zaxm ul buti siyminbadan uzra.  
564

Hujumi xol erur ul guli jamol uzra,  
Nachukki, mushk sochilg'ay hariri ol uzra.  
Junun salosili bo'ynumda, zaflig tan ila  
Hunarvar uylaki, zanjir osar xilol uzra.  
Qading tahammuli yo'q ruhlarg'a andoqkim,  
Tuyur qilsa vatan nozanin nihol uzra.  
Beling xayoli tanim birla toki chirmashti,  
Xayoldur meni devonag'a xayol uzra.  
Menu firoq yuki hamli o'zga qavmdurur  
Ki, bazmi aysh tuzar masnadi visol uzra.  
Solur futur safolig' ko'ngulga xorij dam,  
Yel ul sifatki, tamavvuj solur zulol uzra.  
Navoiy ayladi jonin fidoyu vasl so'zi,  
Emas yaqinu o'tar barcha ehtimol uzra.  
565

Ko'rung, g'am qatlgohida, balo jallodi qoshimda,  
Junun zanjiri bo'ynumda, siyosat tig'i boshimda.  
Ichimning qonu dog'idin toshimg'a ham asar yetti,  
Nishondur loladek ul gul g'amidin ichu toshimda.  
Erur ul gul g'amidin sarguzashtimdin ayon xatlar,  
Hubobu mavjkim, zohir bo'lur gulrang yoshimda.  
Yuzimda ashk siymin birla g'am tuzdi maoshimni,  
Ne holim bor ekin zohirdurur vajhi maoshimda.  
Ko'ngul hajr ilgining tirnog'idin har yon xarosh o'lg'ay,  
Quloq solsang, erur zohir fig'on ichra xaroshimda.  
G'amingdin jon talashmoqdur ishim, jono, tirilgaymen  
Madad qilsang labingdin bir takallum bu taloshimda.  
Ko'ngulga boda garchi dosh yanglig' soldi o't, lekin  
Pishurmak juz qadah savdosi yo'qtur ushbu doshimda.  
Jafotoshi meni gar ayladi tufrog', topmaslar  
Nazzora qilsalar harfi vafodin o'zga toshimda.  
Navoiy sihr emas, go'yo Qalimullo asosidur,  
Bu mujizlarki, zohir bo'ldi kilki nuktaposhimda.  
566

Borg'ali shah, oyda bir may ichmadim mohim bila,  
Qoshki, bir oychiliq borg'ay edim shohim bila.  
Shohimu mohimg'a mardud o'lsam, ermas aybkim,  
Bormadim shohim bila, chun qolmadim mohim bila.  
Tiyra baxtim yo'ldin ozdi vodiya ishqim aro,  
Bilmon, oxir netkamen bu baxti gumrohim bila.  
Nechakim, dardim yoshursam, ishq etar bir damda fosh,  
Lalgun ashkim bila, yo tiyrafon ohim bila.  
O'lturur sharbat, vale ranjim bo'lur daf, ey hakim,  
Bo'lsa ko'nglum istagandek boda dilxohim bila.  
Dayr ko'yida gadoyu mastmenkim, rashki bor  
Shohlarning ko'rsalar bu ishratu johim bila.  
Ey Navoiy, dersen o'zni saxla, ko'rsang yorni,  
Netkamen beixtiyor afg'oni nogohim bila.  
567

Ul so'yulg'an bargi gul chog'liq yuzung bo'stonida,  
Bir qizil gul bargi butmish go'yi oq gul yonida.  
Yo'qsa oyning yonida Bahrom bo'lmish jilvagar,  
Jilvasi Bahromning, ne tong, qamar davronida.



Yo'qsa bir tirnog'ing o'lmishdur xinodin lalgun,  
Oyati keldi yadi bayzo chu ilging shonida.  
Yo'qsa nomam safhasin bir qatra qon etti nshon,  
Qon yoshim mahzun ko'ngul dardin sanga yozg'onida.  
Yo'qsa ul yuz ko'zgusi bir qatra terdin tutti rang,  
Chun quyosh tobi ayon bo'ldi sipehr ayvonida.  
Safhai jonimg'a, ey soqiy, tomiz bir qatra may  
Kim, o'zin topting, ko'ngul ne hol esa jononida.  
Orazi ul sho'x chobukning so'yulg'an vajhidin,  
Yuz ming andoq zaxmdur miskin Navoiy jonida.  
568

Niholi qadding eldin jon olur nozuk xirom ichra,  
Yuz ul olg'ancha gul barging berur shirin kalom ichra.  
Erur uryon tanimda bo'riyoe hajr naqshidin,  
Ko'ngul bir notavon qushkim, giriftor o'ldi dom ichra.  
Manga ishq otashin laling xayoli to bishirmakdur,  
Ne o'tlarkim, tutashti jong'a bu savdoyi xom ichra.  
Nishiman ayladi ko'nglum qushi ko'yungda, qayd etma,  
Kabutarg'a kishi qasd etmadi baytul-haram ichra.  
Agar hayvon suyi tomizsalar hajringda og'zimg'a,  
Berur men xastag'a zahri halohil tami kom ichra.  
Ajoyib tiyradur g'am shomi yo dud o'ldikim, o'rtar  
Muhabbat ahlini mehr o'tig'a gardun bu shom ichra.  
Bukim, Jamshidqa davron vafo ko'rguzmayin yiqti,  
O'qu kayfiyatinkim, yozilibtur davri jom ichra.  
Bu eski dayr chun qilmas mudom elga vafo, xush tut  
O'zingni doim eski may bila ayshi mudom ichra.  
Deding, ko'yida bo'lg'umdur Navoiy birla hamsuhbat,  
Raqib oxir ko'p, aning birla bo'lma bu maqom ichra.  
569

Gar quyoshtin qadrim ortug'roqdurur shoh ollida,  
Zarradin yuz qatla o'ksukrakmen ul moh ollida.  
Yenida oy ollida xurshid erur har kimsakim,  
Goh bo'lsa dilbarining yonida, goh ollida.  
Ko'z yumub ochquncha garchi ko'nglum olib o'rtadi,  
Vah, netib asray ko'ngulni buyla dilxoh ollida.  
Oy falak xirgohida andin chekar yuzga sahob,  
Kim ocha olmas yuzin ul mohi xirgoh ollida.  
Husn shohi boyu men munglug' gadolig' qilmasam,  
Kimni topib aylagaymen shayalilloh ollida.  
Ulki, vahdat sharhin aylar, sirridin ogoh emas,  
Gar fano kasb etmagan bo'lsa bir ogoh ollida.  
Ishq iqboli Navoiyg'a ekandur sarnavisht,  
Ko'rmay o'lmas ulki, mehnat bo'lsa yo joh ollida.  
570

Gulekim, yor bergay men kebi uryon gadolarg'a,  
Magarkim, sanchqaymen ani bosh uzra yarolarg'a.  
Ne gul, tufrog' keltursa sabo, ko'zlarga tortarmen,  
Samandi yo'lidin tarjih aylab to'tiyolarg'a.  
Ko'zu qoshini to ko'rdum - ko'zum qoshig'a hayrondur,  
Yana hech iltifotim yo'q ko'zu qoshi qorolarg'a.  
Chu ul begonavashdin oshnolig' ko'rdum, aylabmen  
O'zumni bir yo'li begona barcha oshnolarg'a.  
Ani haq asrasun bir o'zidekka muhtalolig'din,  
Tarahhum aylasa gohi o'ziga muhtalolarg'a.  
Jafosin garchi ko'p tortib, vafo qildim, talofiydur,  
Gar etsa bir vafo o'tgan zamon qilg'an jafolarg'a.  
Necha husn ahlidin yog'sa balo, ushshoq tortar, vah,  
Balokash el tahammul aylamay netkay balolarg'a.  
Menu may g'ulg'uliyu sho'x soqiy hukmi ijrosi,  
Sola olmon quloq davr ahli aylar mojarolarg'a.  
Zamona shug'li tavqi lanatin solg'an bo'yunlardin,  
Ajab yukdin o'zin qutqardilar, yuz rahmat olarg'a.  
Hamono g'ofil o'ldi podsholar podshohidin,  
Gadoyekim, o'zin muhtoj ko'rgay podsholarg'a.

This is not registered version of Total Doc Converter

Navoiy o'z davri uchun birinchi bo'lib keladi,  
Aning altofi yetkurdi muni bargu navolarg'a.  
571

Chunkn moyildur ko'ngul ag'yor sari yorg'a,  
Sadqa jonim yorning ko'ngli uchun ag'yorg'a.  
Istaram ag'yor ayog'in o'pkamen, balkim ko'zin  
Kim, borib ko'yiga yetmish davlati diydorg'a.  
Chun yetar atri dimog'img'a, kirar jismimg'a ruh,  
Har nasimikim, esa ul sarvi gulruxsorg'a.  
Har biriga jonni dermen sadqa aylay jilvada,  
Yuz tuman jon sadqa bo'lsun ul qadu raftorg'a.  
Naqdi jonu xirmani umrumni sarf ettim, valek  
Ul sanam qoni emas bu mablag'u miqdorg'a.  
Xalqdin yuz dasht yo'l tutsun qiroq ul zorkim,  
Derki o'zin solmayin har lahza ming ozorg'a.  
Xilvatingda chun kushode topmadim, mazur tut,  
Bo'lsam, ey shayx, emdi azm kulbai xammorg'a.  
Ey Navoiy, besarupolig' chu qilding ixtiyor,  
Kir fano ko'yiga, boqma kafsh ila dastorg'a.  
572

Hirotdin agar o't tushsa Sabzavorg'acha,  
Bo'lay samandaru tortay o'zumnn yorg'acha.  
Ko'ngul dog'i bu o't ichra yo'luqsa ham xushtur  
Ki, bo'lsa hamrahim ul sarvi guluzorg'acha.  
Junun aro yorishib gohu goh qichqirishib,  
Yetishsak ikkimiz ul tundi shahsuvorg'acha.  
Emas chu umr ishi malum, har nechuk bo'lsa,  
O'zumni yetkurayin yor o'lur diyorg'acha.  
Ajal chu yetti aning ko'yi sari sudransam,  
Fidosi jismi nazor o'lsa joni zorg'acha.  
Chu ko'yi ichra mazoring'a bersalar tartib,  
Qadamin qilsa gahe ranja, ul mazorg'acha.  
Visol qaydayu men qayda, soqiyo may tut  
Ki, mo'r sayri emas charxi zarnigorg'acha.  
Erur bahor g'animat, may ichki, bilmassen  
Ki, dahr bog'ida bo'lg'ung yana bahorgacha.  
Navoiyo, g'amim o'lturdi, g'amzada may ber,  
Yo'q ersa boshla meni yori g'amgusorg'acha.

AvvalgiII- qismB Keyingi